


Л Е В Т О Л С Т О Й
И к р о р н о м а

Лев ТОЛСТОЙ

ИҚРОНОМА



«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Давлат илмий нашриёти
Тошкент – 2020

Lev Tolstoy

IQRORNOMA

Ozod Sharafiddinov tarjimasi

Toshkent
«Ma'naviyat» nashriyoti
1998

BUYuK ADIBNING IQRORNOMASI

Bundan bir necha yil muqaddam biz bir guruh ijodkorlar Qashqadaryo viloyatidagi Muborak gazni qayta ishlash zavodiga bordik. Bizni zavod direktori Nuriddin Zayniev kutib oldi. U xo'jalik xodimi bo'lsa-da, qaddi-basti, shinamgina kostyum-shimi, bo'yinbog'i, shlyapasiga qaraganda rostmana ziyoliga o'xshardi. Ayniqsa, ko'zlarida chaq nab turgan teran ma'nodorlik, chehrasidagi nurafshonlik daf'atan odamni o'ziga mahliyo etardi. Uning rahnamoligida cho'li biyobonning qoq o'rtasida ertaklardagi pahlavonlardek qad ko'targan ulkan inshootni aylanib chiqdik. Zayniev zavodni ipidan-ignasigacha bilar ekan – uning tarixini, qanday ishlashini, nima mahsulot berishini, respublika iqtisodiyotida qanday o'rin egallashini, bugun qanday muammolari borligini chuqur bir iftixor bilan gapirib berdi. Aslini olganda ham har qancha iftixor qilsa arzirdi – zavodning qurilishi ancha avval boshlangan bo'lsa-da, O'zbekiston mustaqillik kasb etgandan keyingina qurilish nihoyasiga yetibdi, zavod to'la kuch bilan ishlay boshlabdi. Buni qarangi, u o'zining ko'lami va qudratiga ko'ra butun dunyodagi eng yetuk o'nta gazni qayta ishlab chiqaruvchi zavodning biri bo'lib qolipti. Suhbatimiz kechqurun dasturxon tevaragida davom etdi. Bu gurgunda men Nuriddin Zaynievni batamom boshqa jihatdan kashf etib, lol qoldim – endi u shunchaki o'z kasbini mukammal bilgan zamonaviy injener sifatidagina emas, juda ko'p o'qigan, olamshumul falsafiy muammolar haqida o'ylaydigan mutafakkir, donishmand odam sifatida ko'rindi. U ayniqsa, ulug' adib L.N.Tolstoy haqida hayajonlanib gapirardi. Uning bir asari ichki dunyosini ag'dar-to'ntar qilib yuboribdi. Unda inson hayotining ma'nosi haqida ibratli gaplar o'rta tashlangan ekan:

- O'shandan beri o'ylayman, - dedi Nuriddin. Haqiqatan ham inson hayotining ma'nosi nima? Inson tug'iladi, ulg'ayadi, berilgan muddatni yashab bo'lib, olamdan o'tib ketadi. Xo'sh, uning vafoti bilan hayotining ma'nosi ham yo'qolib ketadimi?

- Siz Tolstoyning «Iqornoma»sini aytyapsiz-da? – deb luqma tashladim men.

- Ha, ha, o'qigan ekansiz, - Nuriddin tilini va balki dilini tushunadigan suhbatdosh topilganidan mamnun bo'ldi. – Shu kitobni bir zamonlar o'qigan edim, shundan beri izlayman. Topib bo'larmikin-a?

Kitobni izlagancha bor edi – kitob Tolstoy hayotligida cherkovning ta'qiqiga uchragan va juda kam bosilgan edi. Sho'ro zamonida esa bu asar faqat bir marta – 1928 yilda adib tavalludining 100 yilligi bilan atigi ming nusxada chop etilgan, «Mukammal asarlar to'plami»ga kiritilgan edi. Keyin oshkoralik zamonlari kelib, 1991 yilda yana bir marta bosilgan edi. Shu kitob menda bor edi.

- Menga shundan nusxa ko'chirib jo'natsangiz juda minnatdor bo'lardim. Umuman, nega shunaqa asarlarni tarjima qilib chiqarmaysizlar?

Nuriddin Zaynievdagi buyuk adib ijodiga qiziqish o'tkinchi va tasodifiy emasligini ko'rib, boshim

osmonga yetdi. Buning boisi bor, albatta.

Insoniyat tarixida o'tgan adibu shuaroni sanab hisobiga yetib bo'lmaydi, ammo ularning kamdankami odamlarning ma'naviy rivojida salmoqli iz qoldirgan. Shundaylardan biri Lev Nikolaevich Tolstoydir. Uning olamdan o'tganiga salkam bir asr bo'lyapti. Shu muddat mobaynida uning olamshumul shuhrati ortsa ortdiyu, sira kamaygani yo'q. Bugun butun yer yuzida – hamma qit'alarda, hamma mamlakatlarda uning asarlari, otashin xitoblari, o'ylari yetib bormagan joy qolmadi, desak xato bo'lmaydi. Har xil irqdagi, har xil ijtimoiy tabaqaga mansub, har xil e'tiqodlarga ega odamlar o'z hayotlarining mushkul va murakkab damlarida Tolstoy asarlariga, uning boy va ko'p qirrali ijodiga murojaat qiladilar va undan ma'naviyat saboqlarini oladilar. Zamonlar aylanib hayotidagi juda ko'p narsalar eskirib ketgan bo'lsa-da, bizni qurshab olgan muhit, ashyolar dunyosi tubdan yangilangan bo'lsa-da, hatto, ko'pgina an'anaviy qadriyatlar o'rnini yangi qadriyatlar, yangi tushunchalar, yangi e'tiqodlar egallayotgan bo'lsa-da, hayotligidayoq «Insoniyatning ustoz» sifatida tanilgan Tolstoyning ma'naviy saboqlari mutloq eskirgani yo'q. O'zbeklar ham bu ulug' adibni asarlari bilan asrimiz boshidayoq tanishgan edilar. Tolstoyning bolalar uchun yaratgan masallari, ertaklari, jajji hikoyalari o'zbek tilidagi ilk darsliklarga kiritilgan. Ayrim o'zbek ziyolilari esa adib asarlarini o'qish asnosida tug'ilgan fikr-mulohazalarini bevosita Tolstoyning o'ziga yozib yuborishgan va undan javob ham olishgan. Hozirgi kunda deyarli hamma badiiy asarlari o'zbek tiliga ag'darilgan va allaqachon o'zbek kitobxonining ko'ngil mulkiga aylanib qolgan. Lekin shunga qaramay biz bugun Tolstoy haqida, uning boy, serqirra va murakkab shaxsiyati to'g'risida tugal tasavvurga egamiz deb ayta olmaymiz. Tolstoyning ko'plab falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy-tanqidiy asarlari hali-hanuz o'zbek kitobxonlarining nazaridan chetda qolib kelmoqda. Bu bilan biz o'zimizning hazrat Tolstoy shaxsiyatining yangi qirralari bilan tanishuvdan oladigan juda katta ma'naviy boylikdan mahrum qilib kelmoqdamiz. Shuning uchun bir zamonlar «dod sasi» kelgan Qarshi cho'lining qoq o'rtasida qad ko'targan tom ma'nodagi zamonaviy sanoat korxonasining yetakchisi «Iqornoma»dan bahs yuritarkan, demak, o'zbek ziyolilarining bugungi tafakkurida muayyan siljishlar ro'y bergan ekan-da! Ular ham umumjahon tafakkurining orbitasida o'z o'rinlarini izlay boshlabdilar-da! Butun insoniyatni javob izlashga majbur qilib kelgan, o'ylashga, bahs yuritishga, izlanishga undagan «mal'un savollar» endilikda hamma o'zbek ziyolilarining bo'lmasa ham-ku, ayrimlarining oldida ko'ndalang bo'la boshlapti-da! Axir, bunga quvonmasdan bo'ladimi?

«Iqornoma» hasbi hol janrida yozilgan asar. Jahon adabiyotida bunaqa asarlar unchalik ko'p emas. Eng mashhurlari – Jan Jak Russo, Oskar Uayld kabi yozuvchilarniki. Ularning barida mualliflar o'z hayotlari misolida inson faoliyatining eng murakkab jihatlarini yoritadilar. Lekin ular biografik yoxud memuar asar emas. Tolstoy «Iqornoma»sining eng muhim fazilati shundaki, u asarda qaysi muammo haqida bahs yuritmasin hamisha bu muammolarini o'z hayoti misolida tahlil qilgan va biror o'rinda samimiyatdan chekinib maqtanchoqlikka, manmanlikka, o'zni pardozlab ko'rsatishga uringan emas. Mana, quyidagi parchaga e'tibor bering: «Men urushda odam o'ldirganman, o'ldirmoq niyatida duelga chaqirganman, tasarrufimdagi mujiklarni kartaga boy berganman, ularning mehnati evaziga yashaganman, ularni qatl etganman. Yolg'onchilik, o'g'irlik, har xil rangdagi zinokorlik, ichkilikbozlik, zo'ravonlik, qotillik... Men qilmagan jinoyat qolgan emas...» Bu parchani o'qigan o'zbek kitobxon, albatta, yoqa ushlaydi: «Yo alhazar! Shu o'zimiz bilgan, soyasiga salom berib kelgan ulug' adibmi? Rosa bo'lgan ekan-ku! Voy soqoling ko'ksingga to'kilgur – ey!» Bunday deyishimizga sabab shuki, biz («biz» deganda o'zim tengi avlodni nazarda tutayapman) yuzaki fikrlashga o'rganganmiz, biz uchun faqat oq va qora ranglarga mavjud, biz har qanday odamni baholaganda ham yo uni maqtab, farishtaga aylantirib yuboramiz, yoxud qoralab qarg'ab, qora yerga kiritib tashlaymiz. O'rtaliqni tan olmaymiz, har qanday inson ham, birinchi navbatda, banda ekanini va banda sifatida adashish huquqiga ega ekanini unutib qo'yamiz. Tolstoy ulug' edi, lekin u ayni chog'da inson ham edi va ayni shu jihati bilan u boshqa insonlarga yaqin turadi. Ko'rinadiki, «Iqornoma» yuksak samimiyati bilan, o'zi haqida o'ta shafqatsiz qalam tebratish bilanoq bizga inson to'g'risida fikr

yuritganda bir tomonlamalikka yo‘l qo‘ymaslik zarurligini, masalaning hamma qirralariga birday e‘tibor bilan qarash kerakligini o‘rgatadi. «Iqronoma»ning yana bir fazilati muallif fikrlarining g‘oyatda o‘tkirlikida. U har gal betakror bir sinchkovlik bilan masalaning mohiyatigacha yetib borishga harakat qiladi va natijada kitobxon ilgari kam e‘tibor bergan jihatlarni ochib, uni yanada qiziqtirib, o‘z ortidan yetaklaydi.

«Iqronoma»ni muallif 1879 yilda, ya‘ni 51 yoshida yoza boshlagan, lekin uning mazmuni haqida, asarda qo‘yilgan axloqiy-ma‘naviy va falsafiy masalalar to‘g‘risida kamida 20 yoshidan o‘ylay boshlagan. Demak, asar daf‘atan tug‘ilgan, birdan esga tushib qolgan, fikr-mulohazalarga asoslangan emas. Ehtimol, shuning uchundirki, u bugungi kitobxon uchun ham g‘oyatda ardoqli, uning ma‘naviy yangilanishida g‘oyatda sezilarli tirgak bo‘ladigan asardir.

Ozod Sharafiddinov,
O‘zbekiston qahramoni

BOSILMAGAN ASARGA MUQADDIMA

Men pravoslav xristian dini ruhida cho‘qintirilganman va tarbiya topganman. Bolaligidan boshlab, keyin esa butun o‘smirligim va yoshligim mobaynida meni diniy ruhda tarbiya qilishdi. Ammo men 18 yoshga to‘lib, dorilfununning ikkinchi kursini bitirganimda menga o‘rgatgan narsalarining hech qaysisiga ortiq ishonmay qolgandim.

I

Ba‘zi bir xotiralaringa qarab hukm qilinsa, men hech qachon menga o‘rgatgan narsalariga va kattalarning mening huzurimda qilgan iqornomalariga jiddiy ishongan emasman. Ularga faqat ishonqirab qarardim xolos, ammo bu ishonqirashning zamini juda bo‘sh edi.

Esimda, men o‘n bir yoshda edim — allaqachon olamdan ko‘z yungan Volodenka M. degan bir gimnaziya talabasi yakshanba kuni biznikiga kelib, gimnaziya kashf etgan bir gapni katta yangilik sifatida gapirib berdi. Kashfiyot shundan iborat ediki, Xudo yo‘q va bizga o‘rgatgan narsalarning hammasi behuda gaplar (bu 1838 yilda bo‘lgan edi). Esimda, akalarim bu yangilikka qiziqib qolishdi va meni maslahatga chaqirishdi. Yana esimdiki, biz hammamiz ancha hayajonga tushdik va bu gaplarni juda g‘alati va bo‘lishi mumkin gaplar tarzida baholadik.

Yana esimda — akam Dmitriy dorilfununda o‘qib yurgan kezlarda birdan uning tabiatiga xos jo‘shqinlik bilan dinga berilib qoldi va hamma ibodatlariga qatnay boshladi, ro‘za tutdi, ozoda va pokiza hayot kechira boshladi. Shunda biz hammamiz, hatto kattalar ham tinimsiz tarzda uning ustidan kulib yurdik va uni negadir Nuh deb atadik. Esimda, o‘sha kezlarda Qozon dorilfununining mutavallisi bo‘lgan Musin-Pushkin hammamizni tantsa tushgani uyiga taklif qilgan edi. Akam borishdan bo‘yin tovladi. Shunda u istehzo bilan Dovud ham kema oldida raqs tushgan deb, akamni ko‘ndirishga urinib ko‘rdi. O‘sha kezlarda kattalarning bunaqa hazil-huzullari menga ancha ma‘qul tushgan edi. Men ulardan bitta xulosa chiqardim — diniy kitoblarni o‘qish kerak, ammo bularning barini haddan ziyod jiddiy qabul qilmaslik kerak. Yana shu narsa xotiramdiki, men juda yoshligimda Volterni o‘qiganman va uning istehzolaridan norozi bo‘lish o‘rniga ularni o‘qib, kayfim chog‘ bo‘lar edi.

Mening dindan qaytishim bizga o‘xshagan o‘qimishli odamlar o‘rtasida qanday sodir bo‘lgan va bo‘layotgan bo‘lsa, xuddi shunday ro‘y berdi. Mening nazarimda, ko‘p hollarda bu quyidagicha sodir bo‘ladi shekilli: hamma qanday yashasa, ayrim-ayrim odamlar ham shunday yashaydi. Hamma esa shunday ibtidolar asosida hayot kechiradiki, bu ibtidolarning diniy e‘tiqodlarga aloqasi yo‘qqina emas, balki ko‘p hollarda ularga butkul zid hamdir, diniy e‘tiqodlar tirikchilikda ishtirok etmaydi, boshqa odamlar bilan muloqotda bo‘lganingizda hech qachon diniy e‘tiqodlarga ro‘para kelmaysiz va o‘z hayotingizda ham hech qachon undan bahramand bo‘lishingizga to‘g‘ri kelmaydi; diniy e‘tiqodlarga kundalik hayotdan olisda va unga bog‘liq bo‘lmagan holda sig‘inasiz. Agar unga to‘qnash kelib qolsangiz, faqat hayot bilan bog‘liq bo‘lmagan tashqi hodisadek muomalada bo‘lasiz.

Odamning hayotiga qarab, uning ishlariga qarab, uning Xudoga ishonish-ishonmasligini bilib bo‘lmaydi. Avvallari shunaqa edi, hozir ham shunday. Mabodo bordi-yu, pravoslav dinidagi odam bilan uni inkor etuvchi kas o‘rtasida biron-bir tafovut bo‘lsa, bu dindor odamning foydasiga bo‘lmaydi. Avvallari bo‘lgani kabi hozirgi paytda ham pravoslav mazhabini tan oluvchilar va uni o‘zlarining imoni deb bilganlarning ko‘pchiligi aqli noqis, bag‘ritosh va vijdotsiz odamlardir. Ular haddan ziyod o‘zlariga bino qo‘yishgan. Donolik, to‘g‘rilik, nomus, ochiqko‘ngillilik va diyonat esa ko‘pincha o‘zlarini dinga ishonmaydigan deb tan oluvchilar o‘rtasida uchraydi.

Maktablarda diniy kitoblarni o‘qitadilar va shogirdlarni cherkovga qatnashga undaydilar; mansabdorlardan ibodatga qatnashlari haqida guvohlik talab qilinadi. Ammo ortiq biron joyda o‘qimaydigan, biron davlat ishida xizmat qilmaydigan bizning toifamizdagi odam hozirgi paytda ham, o‘tgan zamonlarda esa inchunin, o‘nlab yillar mobaynida xristianlar orasida yashayotganini biron

marta xayoliga keltirmasdan va o'zi ham xristian pravoslav dinidagi odam hisoblanishini esiga olmasdan umr o'tkazishi mumkin edi.

Ana shunaqa. Hozir ham xuddi o'tmishdagi kabi ishonib qabul qilganimiz va tashqi tazyiq bilan qo'llab-quvvatlanib turiladigan diniy e'tiqod diniy ta'limotga zid bo'lgan hayotiy bilim va tajriba ta'sirida kamdan-kam erib bitmoqda. Odam esa, ko'pincha, bolaligidan unga singdirilgan diniy ta'limot hamon uning ongida to'la-to'kis mavjud degan o'y bilan ko'p yillar o'zini-o'zi ovutib yuraveradi. Holbuki, uning ongida diniy e'tiqodlarning izi ham qolmagan bo'ladi.

S. degan juda dono va rostgo'y odam qanday qilib dinga ishonmay qo'yganini menga gapirib bergan edi. Yigirma olti yoshga kirganida, ov qilib yurgan chog'ida, bolalikdan o'rnatilgan qolgan odatiga ko'ra kechqurun ibodat qila boshlabdi. U bilan birga ovga kelgan akasi pichan ustida yotib, uni kuzatibdi. S. ibodatni tugatib, yotishga chog'lanayotganda, akasi unga: «Hali ham shu ishingni qo'yganing yo'qmi?» debdi. Ular bir-birlariga bundan boshqa bir og'iz ham gap aytishmabdi. Ammo S. shu kundan boshlab ibodat qilmay qo'yibdi va cherkovga qatnashni ham bas qilibdi. Shu ko'yi o'ttiz yildan beri ibodat qilmayotgan va cherkovga bormayotgan ekan. Bunday qilganiga sabab — u akasining e'tiqodlaridan xabardor bo'lgani va ularga qo'shilishga tayyorligi emas, o'z qalbida biror qat'iy qarorga kelgani ham emas. Bor-yo'q sabab shuki, akasining og'zidan chiqqan gap o'z og'irligidan qulay-qulay deb turgan devorga turtkiday bo'lgan. Bu gap shunga ishora qilganki, u diniy e'tiqod bor deb o'ylagan joyda allaqachon hech vaqo qolmagan ekan. Shuning uchun ham ibodat vaqtida uning og'zidan chiqqan iboralar, cho'qinishlari, sajdaga ketishlari — bari-barisi ma'nosiz harakatlardan o'zga narsa emas ekan. Ularning ma'nosizligini anglagach, u ortiq toat-ibodatini davom ettirmay qolgan.

Men o'ylaymanki, boshqa juda ko'p odam ham shu ahvolga tushgan va tushadi. Men bizning toifamizga mansub o'qimishli odamlar haqida, o'z-o'ziga rost gapiradigan odamlar to'g'risida so'zlayapman. Diniy e'tiqodini bironta vaqtinchalik, o'tkinchi maqsadga erishish vositasi qilib olgan odamlar bundan mustasno, albatta. (Bunday odamlar, aslida, uchchiga chiqqan dinsizlardir, negaki bunday odamlar uchun din hayotda muayyan marralarga erishish vositasi bo'lsa, bunaqa din din bo'lmaydi.) Bizning toifamizga mansub o'qimishli odamlar shunaqa ahvoldaki, hayot va bilim nuri sun'iy imoratni eritib yuborgan va ular yo buni sezib, joy bo'shatishgan yoxud hali uni sezishganlaricha yo'q.

Bolaligidan menga singdirilgan diniy e'tiqod boshqalarda qanday bo'lsa, menda ham shunday g'oyib bo'ldi. Faqat farq shunda ediki, men juda erta o'qishga va fikrlashga boshlaganim sababidan mening dindan qaytishim ilk qadamlardan o'ngli xarakter kasb etdi. Men o'n olti yoshimdan boshlab ibodat qilmay qo'ydim va o'z ixtiyorim bilan cherkovga qatnashni bas qildim. Men bolaligidan boshlab menga singdirilgan aqidalarga ishonmay qo'ydim. Ammo nimagadir ishonar edim, biroq nimaga ishonishimni so'zlar bilan ochiq-ravshan ifodalab berolmas edim. Men Xudoga ham ishonganman, to'g'rirog'i, Xudoni inkor etgan emasman, ammo qanaqa Xudoga ishonishimni aytib berolmas edim. Men Isoni ham, uning ta'limotini ham inkor etmadim, biroq bu ta'limotning mohiyati nimada ekanini bilmas edim.

Endilikda o'sha vaqtlarni eslar ekanman, shu narsa aniq-ravshan ayon bo'ladiki, mening e'tiqodim, ya'ni hayvoniy instinktlardan tashqari mening hayotimni harakatga keltirgan narsa, mening o'sha kezlardagi yakkayu yagona iymonim komil inson bo'lishga ishonch edi. Ammo komillikning mazmuni qanaqa, uning qanday maqsadlari bor — buni aytib berolmasdim. Men o'zimni aqliy jihatdan mukammallashtirishga harakat qildim — qo'limdan kelgan hamma narsani, hayot meni ro'para qilgan narsalarning barini o'rganishga intildim; men irodamni mukammallashtirishga harakat qildim — o'z-o'zimga qoidalar yaratib, ularga amal qilishga urindim; o'zimni jismonan mukammallashtirishga kirishdim — har xil mashqlar bilan kuchimni va chaqqonligimni o'stirdim, har xil muhtojliklarni ko'rib, o'zimni bardoshga va sabr-toqatga o'rgatdim. Bularning barini men mukammallashtirish deb

hisobladim. Albattaki, hamma narsaning ibtidosi ma'naviy mukammallashuvimda edi, ammo oradan ko'p o'tmay, uning o'rnini umuman mukammallashuv egalladi, ya'ni o'z-o'zimning nazdimda yoxud Xudoning qarshisida yaxshiroq bo'lish istagi emas, balki boshqa odamlar oldida yaxshiroq bo'lish istagi egalladi. Oradan ko'p o'tmay boshqa odamlar qarshisida yaxshiroq bo'lishga intilish o'rnini boshqa odamlardan kuchliroq bo'lish, ya'ni boshqalarga qaraganda shuhratliroq, dongdorroq, badavlatroq bo'lish istagi egalladi.

II

Vaqt-soati kelsa, men hayotim tarixini hikoya qilib beraman — yoshligimdagi o'n yillik umrim juda ibratli va ta'sirchan kechgan. O'ylaymanki, mening ko'nglimdan kechgan tuyg'ularning ko'pi boshqalardan ham kechgan. Men butun qalbm bilan yaxshi bo'lishga intilgandim; ammo men yosh edim, hirslearimga asir edim, ammo yaxshi bo'lish yo'llarini izlaganimda yolg'iz edim, mutlaqo yolg'iz edim. Har gal qalbmimdagi eng yaxshi mayllarimni, ya'ni ma'naviy jihatdan yaxshi bo'lmoqchi ekanimni namoyish qilsam, meni mazax qilishar va menga nafrat bildirishardi; yomon ehtiroslarga beriladigan bo'lsam, har gal meni maqtashar va rag'batlantirishar edilar.

Manfaatparastlik, shuhratparastlik, hokimiyatparastlik, shahvoniyat, mutakabbirlik, g'azab, intiqom - bularning hammasi hurmatga sazovor edi. Bu hislarga berilganimda men katta odamlarga o'xshab qolardim va mendan mamnun ekanliklarini his qilardim. Men xolajonim bilan birga turardim. Qo'y og'zidan cho'p olmagan bu pokiza ayol hamisha menga bir tilak bildirib, «er ko'rgan ayol bilan aloqada bo'lishingni istayman, chunki boadab ayol bilan aloqa qilgan yigitning savodi tez chiqadi» derdi. U menga yana bir toifa baxt tilardi - mening ad'yutant bo'lishimni, bo'lganga yarasha podshoning ad'yutanti bo'lishimni istardi; uning menga tilagan eng katta baxti shu ediki, mening juda ham badavlat qizga uylanishimni istar, bu uylanish oqibatida, menda son-sanoqsiz qullar bo'lishini xohlar edi.

Dahshatsiz, ijrg'anmasdan, yurak zil ketmasdan shu yillarni eslay olmayman. Men urushda odam o'ldirganman, o'ldirmoq niyatida duelga chaqirganman, tasarrufimdagi mujiklarni qartaga boy berganman, ularning mehnati evaziga yashaganman, ularni qatl etganman, fahsh ishlar bilan shug'ullanganman, aldaganman. Yolg'onchilik, o'g'irlik, har xil rangdagi zinokorlik, ichkilikbozlik, zo'ravonlik, qotillik... Men qilmagan jinoyat qolgan emas va buning hammasi uchun meni maqtashgan, tengdoshlarim meni nisbatan vijdonli odam, deb hisoblashgan va hozir ham hisoblashadi.

Shu ahvolda o'n yil yashadim.

Bu davr mobaynida shuhratparastligim, manfaatparastligim, mutakabbirlikim vajidan yoza boshladim. Hayotda nima noma'qulchilik qilgan bo'lsam, yozganlarimda ham shuni yozdim. Shuhratga erishmoq va pul topmoq uchun jamiki yaxshi narsani yashirib, yomon narsani yozmoq kerak edi. Men shunday qildim. Men yozgan narsalarimda loqaydlik pardasi ostida va hatto, jinday istehzo aralash yaxshilikka intilishlarimni necha martalab yashirib ketganman. Holbuki, yaxshilikka intilish hayotimning mazmunini tashkil qilardi. Shu yo'l bilan shuhratga erishdim — meni maqtadilar.

Yigirma olti yoshga to'lib, urushdan keyin Peterburgga keldim va yozuvchilar bilan topishdim. Meni o'zlariga yaqin olib qarshi olishdi, menga xushomadlar qilishdi. Bir aylanib ulgurmasimdan men topishgan odamlarning hayotga mutakabbirona qarashlarini o'zlashtirib oldim va yaxshiroq bo'lish borasida qilgan hamma avvalgi urinishlarim tag-tugi bilan xayolimdan uchdi-ketdi. Ushbu qarashlar beboshlik bilan kechirayotgan umrimga qo'shib bu hayotni oqlaydigan nazariyaga aylanadi.

Yozuvchilik borasidagi bu sheriklarimning hayotga qarashi shundan iborat edi: umuman hayot o'z yo'lida rivojlanib boradi va uning bu rivojida biz, ya'ni fikrlovchi odamlar asosiy ishtirokchilar sifatida ko'rinamiz; fikrlovchi odamlar orasida esa biz — san'atkorlar, shoirlar asosiy ta'sir kuchiga egamiz. Zimmamizdagi burchimiz — odamlarni o'rgatish. Ammo bunda o'z-o'zingga beriladigan savol ko'ndalang bo'lishi mumkin — xo'sh, men o'zim nimani bilamanu, odamlarga nimani o'rgataman?

Shu savol ko'ndalang bo'lmasin uchun yuqoridagi nazariyamizda bir gap aytili — san'atkor birovga bir narsa o'rgatmog'i uchun o'zi biron narsa bilishi shart emas, san'atkor bilan shoir g'ayrushuuriy tarzda o'rgatishadi. Men juda ajoyib san'atkor va shoir hisoblanardim, shuning uchun ham g'oyat tabiiy bir tarzda bu nazariyani o'zlashtirib oldim. Men — shoirman, san'atkorman, o'zim nimani o'rgatayotganimni bilmagan holda asar yozib, odamlarga o'rgataman. Buning uchun menga qalam haqi berishadi, yeganim oddimda, yemaganim ketimda, turarjoyim soz, ayollar bisyor, ulfatlarim joyida. Xullas, shuhratim yuksak. Bundan kelib chiqadiki, men o'rgatgan narsa juda yaxshi ekan.

Poeziyaning ahamiyatiga va hayotning rivojlanishiga bo'lgan bu ishonch — iymon edi va men uning muhiblaridan biri edim. Bu iymonning muhibi bo'lish qulay va yoqimli edi. Shu ahvolda shu iymonga sajda qilib, uning chinligiga shak keltirmay men ancha yashadim. Ammo ikki yil o'tgach va ayniqsa, bunday hayotimning uchinchi yili boshlangach, men bu iymonning benuqsonligiga shubha qila boshladim va uni tadqiq qilishga kirishdim. Menda shubha tug'ilishiga turtki bo'lgan birinchi omil shu bo'ldiki, bu iymonning muhiblari hamma vaqt ham o'zaro ittifoq emas edilar. Ba'zilar deyishardi: biz — eng yaxshi va eng foydali ustozlarmiz, biz kerak narsani o'rgatamiz, boshqalar noto'g'ri o'rgatishadi. Boshqalari esa bunday deyishadi: yo'q, biz chin ustozmiz, sizlar noto'g'ri o'rgatasiz. Shunday deb ular bir-birlari bilan bahsga kirishadi, tortishadi, so'kishishadi, bir-birlarini aldaydi, bir-birlariga makkorlik qilishadi. Bundan tashqari, ularning orasida shunaqa odamlar ham ko'p ediki, ular kim haqu kim nohakdigini o'ylab ham o'tirishmasdi, balki bizning shu faoliyatimizdan foydalanib, o'zlarining g'arazli niyatlariga osongina erishardilar-qo'yardilar. Bularning hammasi meni iymonimizning chinligiga shak keltirishga majbur qildi.

Bundan tashqari, yozuvchilik iymonining chinligiga shubha paydo bo'lgandan keyin men uning muhiblari hayotini sinchiklab kuzata boshladim va amin bo'ldimki, bu iymonning deyarli hamma muhiblari — yozuvchilar vijdotsiz odamlar ekan, ularning ko'pchiligi yaramas odamlar ekan, ularni ikki pulga arzimaydigan kaslar desa ham bo'ladi; ular avvalgi bebosh hayotimda, harbiy hayotimda uchratgan odamlarning ko'pidan tuban turadi, lekin ular juda ham o'zlariga bino qo'igan va o'z-o'zlaridan benihoya mamnun odamlar. Faqat avliyolargina o'z-o'zlaridan shunaqa mamnun bo'lishlari mumkin yoki avliyolik nimaligini bilmaydiganlarga shunaqa bo'lsalar, ehtimol. Men odamlarni yomon ko'rib qoldim, o'zimdanda ham ko'nglim qoldi. Shunda angladimki, bu iymon — yolg'on!

Ammo g'alati joyi shundaki, bu iymonning yolg'onligini tushunib, undan yuz o'girganimdan keyin shu odamlar tomonidan menga berilgan rutbadan — san'atkor, shoir, ustoz rutbasidan yuz o'girmadim. Go'llik bilan o'ylabmanki, men shoirman, san'atkorman, binobarin, o'zim nimani o'rgatayotganimni bilmagan holda hammaga aql o'rgataveraman. Shunday qildim ham.

Bu odamlarga yaqin bo'lib men yangi bir gunoh orttirdim — menda mutakabbirlik juda avj olib ketdi va nima o'rgatayotganimni bilmagan holda odamlarga aql o'rgatish zimmandagi burchimdir, degan majnunona ishonch paydo bo'ldi.

Endilikda o'sha zamonlarni esga olar ekanman, o'zimning o'sha paytdagi kayfiyatimni va o'sha odamlarning (bunaqa odamlar hozir ham behisob) kayfiyatini xotirlar ekanman, ham kulgim keladi, ham yig'lagim, ham rahmim qo'zg'aladi, ham dahshatga tushaman. Jinnixonaga tushgan odamning ko'nglidan shunaqa tuyg'ular kechsa kerak.

U paytlarda biz hammamiz astoydil ishongan edikki, biz ko'p gapirmog'imiz, tinmay yozmog'imiz, yozganimizni beto'xtov chop etmog'imiz darkor, buni qancha tez va qancha ko'p qilsak, shuncha yaxshi, chunki bularning bari insoniyat manfaatlari uchun zarur. Va bizga o'xshaganlardan son mingtasi bir-birini inkor etib, bir-birini so'kib, boshqalarga aql o'rgatib tinmay yozdilar va yozganlarini chop etdilar. Shunday qilib, biz hech narsa bilmasligimizni payqamagan holda, hayotning «yaxshi degani nimayu yomon degani nima?» degan eng oddiy savoliga nima deb javob berishni bilmagan holda, bir-birimizning gapimizni tinglamagan holda hammamiz yoppasiga gapira ketdik. Ammo ba'zan menga ham «barakalla» desinlar va meni ham jinday maqtab qo'ysinlar degan

maqsadda, bir-birimizga ofarinlar yog'dirdik va bir-birimizni maqtab, ko'klarga ko'tardik. Bu olag'ovur ichida ahyon-ahyonda g'azabimiz ham qo'zib turar va bir-birimizning ovozimizni bosib, qichqirishga tushardik. Bu ayni jinnixonaning o'zi emasmi?!

Minglab ishchilar, tunu kun kuchdan qolib, horib-toliqib ishlashar, millionlab so'zlarni terishar va bosishar, pochta esa ularni butun Rossiya bo'ylab tarqatar edi, biz esa hamon uzluksiz ravishda jazavaga tushib o'rgatar, o'rgatar va yana o'rgatar edik, bu o'rgatishimizning keti-oxiri ko'rinmas edi va biz yana zarda ham qilib qo'yardik — bizning gapimizni kam tinglashyapti.

Ko'p g'alati edi bu, lekin endi menga hammasi tushunarli. Haqiqiy, chin yurakdan chiqqan mulohazamiz shu ediki, biz imkoni boricha ko'proq pul olishni va maqto'v eshitishni istar edik. Bu maqsadga erishish yo'lida biz kitob yozish va gazeta chiqarishdan boshqa hech narsa bilmas edik. Biz shu ishlarni qildik ham. Ammo shu qadar behuda ishlarni qilib turib, o'zimizni juda kerakli ulkan odamlar deb komil ishonch bilan hisoblamog'imiz uchun, bizning faoliyatimizni oqlaydigan, unga biron ma'no ato etadigan mulohaza ham kerak edi. Shu sababdan biz quyidagi gapni to'qib chiqardik: mavjud narsaki bor, ularning hammasi aqlga muvofiqdir. Nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi rivoj topadi. Rivojlanish esa ma'rifat vositasida amalga oshadi. Ma'rifat deganimizning darajasi kitob va gazetalarning qay darajada tarqalishi bilan o'lchanadi. Biz kitob yozganimiz va gazeta chiqarganimiz uchun bizga pul to'lashadi, shuning uchun ham biz eng foydali va yaxshi odamlarmiz. Agar biz hammamiz shu mulohazaga qo'shilsak, undan yaxshi mulohaza bo'lmas edi. Ammo bir odam tomonidan aytilgan bitta fikrga qarshi boshqa odam har doim butunlay unga zid boshqa bir fikr aytardi, bu esa bizni o'ylanishga majbur etardi. Ammo biz buni payqamas edik. Bizga pul to'lashardi va firqamizga mansub odamlar bizni maqtashardi — shundoq bo'lgandan keyin bizning har qaysimiz o'zimizni haq deb hisoblardik.

Endi menga ayonki, bularning bari jinnixonadagi ahvoldan sira ham farq qilmaydi. U paytlarda esa men buni g'ira-shira anglardim, xolos va hamma jinnilarga o'xshab o'zimdanda boshqa hammani jinni deb atar edim.

III

Ana shu tentaklik qo'ynida men uylangunimga qadar yana olti yil umr kechirdim. Bu vaqt ichida men xorijga borib keldim. Ovro'podagi hayot haqida Ovro'podagi ilg'or, o'qimishli odamlar bilan muloqot shu paytgacha amal qilib yashab kelganim mukammallashuv haqidagi e'tiqodimni yanada mustahkamladi, chunki bu yerdagi odamlar ham ayni shu e'tiqodga sig'inar ekanlar. Mendagi e'tiqod bizning davrimizdagi o'qimishli odamlarning ko'pchiligida bo'lgani kabi odatiy bir shaklga kirdi. Bu e'tiqod «taraqqiy» degan so'z bilan ifodalanar edi. U paytlarda menga bu so'z allaqanday ma'no anglatadiganday tuyular edi. U paytlarda hali tushunmas edimki, men «qanday qilib yaxshiroq yashamog'im kerak?» deganga o'xshash savollar girdobida iztirob chekayotgan har qanday odam kabi «taraqqiyga muvofiq yashamoq kerak», deb javob berar ekanman, to'liqlar yuzida shamol har tomonga sudrayotgan qayiqqa tushib qolgan odam «yo'l bo'lsin?» degan uning uchun yagona va asosiy savolga javob berish o'rniga «allaqayoqqa yelib ketib boryapmiz» degandek bo'lgan ekanman.

U paytlarda men hali buni payqamagan edim. Bizning davrimizda hayotni tushunib yetmagan odamlar ana shu umumiy xurofot qobig'iga burkanib oladilar. Men ahyon-ahyonda aqlim bilan emas, tuyg'ularim bilan bundan norozi bo'lib qo'yardim. Masalan, Parijda bo'lgan vaqtimda qatl manzarasini ko'rdimu, mendagi taraqqiyga e'tiqodning zamini bo'sh ekanini sezib qoldim. Qatl qilingan odamning kallasi tanasidan judo bo'lib, ikkovi ham gupillab qutiga tushganday bo'lganini ko'rib, aqlim bilan emas, butun vujudim bilan angladimki, mavjud narsaning aqlga muvofiqligi va taraqqiyot haqidagi hech qanday nazariya bu ishni sira-sira oqlay olmaydi. Agar dunyodagi hamma odamlar qandaydir nazariyalarga amal qilib, dunyo yaratilgandan beri shuni zarur deb hisoblab kelgan ekanlar, men bilamanki, bu kerak emas, bu yomon ish. Shuning uchun nima narsa yaxshiyu nima narsa zarur ekanini

odamlarning gap-so‘ziyu qilg‘iliqlari emas, taraqqiyot emas, balki men yuragimning amriga ko‘ra belgilayman. Taraqqiyot degan narsaga xurofiy e‘tiqod qo‘yishning hayot uchun kifoya emasligini anglashimga sababchi bo‘lgan yana bir voqea katta akamning o‘limi bo‘ldi. Dono, bag‘rikeng, jiddiy odam edi u. U juda yosh kasalga chalindi, bir yildan ortiqroq azob tortdi va qiynalib, nimaga yashaganini tushunmay va nega vafot etayotganiga yanada kamroq aqli yetib olamdan ko‘z yumdi. U qiynalib uzila-uzila jon taslim qilaetgan kezlarda hech qanaqa nazariya bu savollarga na menga, na unga javob bera oldi.

Ammo bunday shubhalar ahyon-ahyondagina yuragimni chulg‘ab olardi, aslida esa men taraqqiyot haqidagi e‘tiqodga ixlos qo‘yib yashashda davom etardim: «Hamma narsa rivojlanyapti, men ham rivojlanyapman, nima uchun hamma bilan birga men ham rivojlanyapman — keyinchalik ko‘rarmiz».

O‘sha paytlardagi e‘tiqodimni shunday deb ifodalasam bo‘lar deyman.

Xorijdan qaytganimdan keyin men qishloqda istiqomat qila boshladim va dehqon bolalari o‘qiydigan maktabda dars berdim. Maktabdagi mashg‘ulotlar menga juda manzur bo‘ldi, chunki ularda adabiy ustozlik faoliyatida men uchun ayon — oshkor bo‘lib qolgan, xo‘b jonimga tegib ulgurgan yolg‘on yo‘q edi. Bu yerda ham men taraqqiyot yo‘lida jonbozlik qildim, biroq endi men taraqqiyotning o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lib qolgandim. Men o‘zimga o‘zim dedimki, ba‘zi bir hodisalarda taraqqiyot noto‘g‘ri sodir bo‘lgan, endilikda ibtidoiy odamlarga, dehqon bolalarga batamom erkin munosabatda bo‘lmoq kerak, ularga o‘zlari xohlagan taraqqiyot yo‘lini tanlab olishni taklif qilmoq lozim.

Vaholanki, men hamon o‘sha-o‘sha hal qilib bo‘lmaydigan bitta masala atrofida aylanayotgan ekanman. Bu masala — nimaga o‘rgatayotganingni bilmay turib, birovga aql o‘rgatish edi. Nega desangiz, men ko‘rdim — hamma har xil narsani o‘rgatar ekan va nima o‘rgatayotganlari o‘zlari uchun ham qorong‘i ekanini o‘zlaridan yashirmoq uchun bir-birlari bilan bahslashib yotishar ekan. Men o‘ylaymanki, shu zahotiyiq dehqon bolalari bilan birgalikda bu qiyinchilikni bartaraf qilish mumkin — buning uchun bolalarga o‘zlari xohlagan narsani o‘rgatish kerak. Endilikda ko‘nglimga kelgan o‘sha noma‘qulchilikni amalga oshirmoq uchun qanchalik o‘lib-tirilganimni eslasam, kulgim qistaydi. Shuning uchun noma‘qulchilikni, men ularga hech qanaqa kerakli narsani o‘rgata olmasligimni ich-ichimdan yaxshi bilardim, chunki nima kerakligini o‘zim ham bilmas edim. Maktabda bir yilcha dars berganimdan keyin yana xorijga jo‘nadim. Bu gal maqsadim — xorijda o‘zi hech narsani bilmagan holda boshqalarga qanday ta‘lim berishning yo‘llarini o‘rgatmoq edi.

Menga shunday tuyuldiki, men xorijda buni o‘rganib oldim va xorijning bu boradagi jamiki donoligi bilan qurollangan holda dehqonlar ozodlikka chiqqan yili Rossiyaga qaytdim va vositachilik o‘rnini egallab, maktablardagi savodsiz odamlarni ham, o‘zim nashr eta boshlagan jurnal orqali esa o‘qimishli odamlarni ham o‘qita boshladim. Ishlar yurishib ketgandek ko‘ringan edi, lekin ko‘p o‘tmasdan aqlan uncha sog‘lom emasligimni va bu ahvol uzoq davom etishi mumkin ekanligini his qildim. Balki men o‘shandayoq keyinchalik — ellik yoshimda boshimga tushadigan chuqur tushkunlik dardiga giriftor bo‘lgan bo‘lardim. Meni bundan faqat bir narsa qutqarib qoldi — mening hayotimning yana bir tomoni bor ediki, men hali uni totib ko‘rganim yo‘q edi. Hayotimning shu tomoni meni qutqaradi degan umidda edim. Bu — oilaviy hayot edi.

Bir yil mobaynida men vositachilik bilan shug‘ullandim, maktabda dars berdim, jurnalda ishladim va haddan tashqari qiynalib ketdim. Men uchun hamma narsa ayqash-uyqash bo‘lib ketdi — vositachilik borasidagi kurashlar menga juda og‘irlik qildi, maktabdagi mashg‘ulotlarimdan ham putur ketdi, jurnaldagi mavqeim o‘z-o‘zimga juda yomon ko‘rinib qoldi. Bularning bariga sabab hamon o‘sha-o‘sha edi — nima ta‘lim berishni bilmagan holda hammaga ta‘lim bermoqchi, aql o‘rgatmoqchi bo‘lardim va buni hammadan yashirmoqni istardim. Shu tufayli mey jismonan emas, ruhan xastalikka chalilib qoldim. Shunda hamma narsadan qo‘l siltadimda, toza havodan nafas olish, to‘yib qimiz ichish va vahshiyona bir tarzda hayot kechirmoq uchun cho‘lga, boshqirdlar huzuriga yo‘l oldim.

U yerdan qaytib kelib uylandim. Baxtiyor oilaviy hayotning yangi sharoiti meni hayotning umumiy

ma'nosini izlash borasidagi har qanday xatti-harakatlardan butunlay qaytardi. Bu vaqt mobaynida mening butun diqqat-e'tiborim oilamga, xotinimga, bolalarimga qaratildi, shuning uchun tirikchilik yo'lida tuzukroq mablag' topish tashvishlari birinchi o'ringa chiqdi. Kamolotga intilish o'rnini, avvalroq, umuman kamolotga, taraqqiyotga intilish egallagan edi. Endi uning o'rniga to'g'ridan-to'g'ri oilamning ahvolini baqadri imkon yaxshilash ishtiyoqi paydo bo'ldi.

Shu ahvolda yana o'n besh yil o'tdi.

Men yozuvchilikni hech narsaga arzimaydigan behuda ish deb hisoblasam-da, bu o'n besh yil mobaynida yozishda davom etdim. Men endi yozuvchilikning mazasini tushunib qolgandim, arzimagan mehnat uchun olinadigan jaraq-jaraq qalam haqiga, qarsaklaru ofarinlarga mazaxo'rak bo'lib qolgandim. Shuning uchun damimni ichimga yutib, ulardan moddiy ahvolimni yaxshilash vositasi sifatida foydalanishda davom etdim va ular yordamida mening hayotim va umuman hayotning ma'nosi to'g'risidagi ko'nglimdagi har qanaqa savollarning unini o'chirishga harakat qildim. Bu kezlarda men uchun yagona haqiqat bor edi — shunday yashaginki, buning oqibatida o'zing oilang bilan birga huzur-halovatda hayot kechir, imkoni boricha farog'atda yasha. Yozgan asarlarimda ham shunday ta'lim berdim. Shu ahvolda yashashda davom etdim, ammo bundan besh yilcha muqaddam men g'alati holatlarni kechira boshladim — avvallariga bir necha daqiqa davomida hayotim to'xtab qolayotganday, dovdirab qolayotganday bo'ladigan bo'lib qoldim. Go'yoki qanday yashashim kerakligini, nima qilmog'im kerakligini mutlaqo bilmas edim. Bunday hollarda esankirab, tushkunlikka tushib qolardim. Ammo bu o'tib ketardi va men avvalgiday yashashda davom etaverardim. Keyin bu dovdirash daqiqalari tez-tez takror bo'la boshladi. Bu har gal bir xil shaklda sodir bo'lardi. Hayotning bunday to'xtab qolishlari har gal bir xil — nima uchun? Xo'sh, keyin-chi? — degan savollarda ifodalanardi.

Avvaliga menga shunday tuyuldi, bular maqsadsiz, noo'rin berilgan savollar. Nazarimda bularning hammasi ma'lum gaplar edi, agar men vaqti-soati kelib ularni hal qilish bilan shug'ullanadigan bo'lsam, bu ish men uchun sira-sira qiyin bo'lmaydi, faqat hozir bu bilan shug'ullanishga ortiqcha vaqtim yo'q, kerak bo'lganda ularning hammasiga javob topa olaman. Biroq savollar ustma-ust qalashib yog'ilaverdi, borgan sari qat'iyroq tarzda ularga javob talab qilinaverdi va ustma-ust bir nuqtaga tushgan kabi bu javobsiz savollar birlashib, kattakon bir qora dog'ni tashkil qildi.

Odamzod dardi bedavo bir dardga chalinadigan bo'lsa, odatda shunday bo'ladi. Avvaliga xastalikning arzimas belgilari namoyon bo'ladi. Bemor ularga e'tibor bermaydi. Keyin bu belgilar takror-takror uchrayveradi va bora-bora bo'linmaydigan, bitta yaxlit dardga aylanadi. Dard kuchaygandan kuchayadi va bemor biror tadorikni ko'rib ulgurmay anglaydiki, u oddiy xastalik deb qabul qilgan narsa uning uchun dunyodagi eng muhim narsa ekan. Bu — ajal ekan!

Men ham xuddi shuni boshimdan kechirdim. Men angladimki, bu tasodifiy xastalik emas, balki boshqa juda muhim bir narsa. Modomiki bir xil savollar takror-takror ko'ndalang bo'laverayotgan ekan, ularga javob bermoq kerak. Shunda men ularga javob berishga unnab ko'rdim. Savollar juda jo'n, bolalarnikiga o'xshagan, bema'ni savollarga o'xshardi. Ammo men ularni olib, hal qilishga unnashim bilanoq shunga amin bo'ldimki, birinchidan, ular bolalarning savoli emas, behuda emas, balki hayotdagi eng muhim va eng teran savollar ekan. Ikkinchidan, men har qancha boshimni qotirmay, ularni sira ham hal qilolmayman. Samaradagi mulkim bilan shug'ullanishdan avval, o'g'limning tarbiyasiga kirishmoqdan, qo'lga qalam olib kitob yozishga o'tirmoqdan avval bularning hammasini nima maqsadda qilmoqchi ekanligimni bilmog'im kerak. Nima maqsadda ekanini bilmagunimcha, men hech narsa qilolmayman. O'sha kezlarda xo'jalik haqidagi fikrlar juda ham fikru zikrimni band etgan edi. Bir kuni shu o'ylar ichida bir fikr miyamga keldi: «Xo'p, yaxshi, Samara guberniyasida sening 6000 desyatina yering, 300 bosh yilqing bo'lsin... Xo'sh, keyin-chi?..» Mening juda Ham boshim qotib qoldi. Undan nari nima deb o'ylashni ham bilmay qoldim. Yoki bolalarni qanday tarbiyalayotganim haqida o'ylay boshlashim bilanoq, o'zimga: «Nima uchun?» — derdim.

Yoki xalq qanday qilib farovonlikka erishmog‘i mumkinligi to‘g‘risida mulohaza yuritganda, to‘satdan o‘z-o‘zimga: «Mening nima ishim bora!»— deb yuborardim. Yoki mening asarlarimni qanday shonshuhratlar kutayotgani haqida o‘ylasam, o‘zimga o‘zim derdim: «Xo‘p, yaxshi, sening shuhrating Gogolnikidan, Pushkinnikidan, Shekspirnikidan, Molernikidan, dunyodagi jamiki yozuvchilarnikidan ham ortiqroq bo‘ladi. Xo‘sh, nima bo‘pti? Innaykeyin-chi?»

Bu savolga javob topolmay, tilimni tishlab qolardim.

IV

Hayotim to‘xtab qoldi. Men nafas olishim, ovqat yeyishim, suv ichishim, uxlashim mumkin edi, nafas olmasam ham, ovqat yemasam ham, suv ichmasam ham, uxlamasam ham bo‘laverar edi. Lekin, bari bir, hayotim to‘xtab qolgan edi. Negaki, menda «qondirsam aqlga muvofiq ish qilgan bo‘laman» deb hisoblaydigan bironta xohish qolmagan edi. Agar men biror narsani xohlab qolsam, avvaldanoq bilar edimki, uni qanoatlantiramanmi yoki yo‘qmi, bari bir, bundan hech narsa chiqmaydi.

Agar biror sehrgar farishta kelsayu menga hamma istaklaringni bajo keltiraman desa, men unga nima deyishimni bilmagan bo‘lardim. Agar shirakayf vaqtlarimda ko‘nglimda istak emas, yo‘q, avvalgi ko‘nikilgan istaklarning qoralamasi ko‘rinib qolsa, sog‘ daqiqalarimda bilamanki, bularning bari ro‘yo, istaydigan narsaning o‘zi yo‘q. Hatto haqiqatni bilishni ham istamay qo‘ygandim, haqiqat nimada ekanini sezib turardim.

Haqiqat shunda ediki, yashashda hech qanday ma‘no yo‘q edi.

Men go‘yoki yashab-yashab, yurib-yurib bir tubsiz jarlik bo‘yiga kelib qolganday va oldinda halokatdan boshqa hech narsa yo‘qday edi. To‘xtash ham mumkin emas, orqaga qaytib ham bo‘lmaydi, oldinaa yolg‘on hayot va yolg‘on baxtdan o‘zga, chinakam iztiroblar va chinakam o‘limdan, ya‘ni to‘la-total mahv bo‘lishdan boshqa hech narsa yo‘qligini ko‘rmaslik uchun ko‘zni yumib ham bo‘lmaydi.

Hayot ko‘nglimga urdi — allaqanday yengib bo‘lmaydigan bir kuch meni bir amallab undan xalos bo‘lishga unday boshladi. Menda o‘z-o‘zimni o‘ldirish istagi paydo bo‘ldi, deb aytolmayman. Meni hayotdan xalos bo‘lishga chorlayotgan kuch xohishdan ko‘ra kuchliroq, to‘laroq, umumiyroq edi. Bu kuch avvallari menda jo‘sh urgan yashash istagiga o‘xshardi, faqat unga teskari yo‘nalishga ega edi. Men butun kuchim bilan hayotdan mosuvo bo‘lishga intilardim. Avvallari hayotni yaxshilash haqidagi fikrlar ko‘nglimga qanchalik tabiiy kelgan bo‘lsa, endi o‘zimni o‘ldirish haqidagi fikr ham shunaqa o‘z-o‘zidan keldi. Bu fikr shunchalar jozibador ediki, shoshib-pishib uni amalga oshirib qo‘ymaslik uchun men o‘zimga nisbatan ba‘zi bir chora-tadbirlarni ko‘rmakka majbur bo‘ldim. Men faqat bir boisdangina shoshmaslikni ixtiyor etdim — kalavaning uchini topmoq uchun hamma harakatni qilib ko‘rmoqchi bo‘ldim. Kalavaning uchini topolmasam, «bu ishni qilishga hamma vaqt ulguraman» dedim o‘z-o‘zimga. Men baxtli odam ekanman-da — o‘shanda har kuni oqshomlarda o‘zim yolg‘iz o‘tiradigan xonadan tizimchani olib chiqib tashladim — yechinayotib, bexosdan ikki javon o‘rtasidagi to‘singa o‘zimni o‘zim osib qo‘ymay dedim-da. Ovga ham miltiq ko‘tarib bormay qo‘ydim, chunki tepkini bir bosish bilan odam osongina hayotdan mahrum bo‘ladi-qo‘yadi — shunga laqqa uchmay dedim. Nima istashimni o‘zim ham bilmay qolgan edim: bir tomondan hayotdan bezib bo‘lgan edim, undan xalos bo‘lishni istardim va ayni chog‘da undan yana nimadir umidvor edim.

Bu voqealar boshimga tushgan kezlarda men har jihatdan mukammal baxt egasi deb hisoblanishim kerak edi, ya‘ni men hali ellik yoshga to‘lganim yo‘q edi. Mening olijanob ayolim bor edi, u meni sevardi, men uni sevardim, farzandlarim yaxshi bolalar edi, mulkim bor edi — men sira harakat qilmasam-da, u o‘sib, gullab-yashnab yotardi. Yaqinlarim va tanishlarim meni hurmat qilishar, begonalar meni avvalgiga qaraganda o‘n chandon ortiqroq maqtashar va hech qanday zo‘rma-zo‘rakiliksiz men o‘zimni mashhur odam, deb hisoblasam bo‘laverardi. Buning ustiga men nafaqat jismonan yoki ruhan biron xastalikka chalingan edim, balki, aksincha, ham jismonan, ham ruhan

shunaqa baquvvat edimki, bunaqa quvvatni tengqurlarim orasida kamdan-kam hollarda uchratganman: jismonan olganda, men pichan o'rimida mujiklar bilan tengma-teng ishlay olardim, aqliy ish bilan esa surunkasiga sakkiz-o'n soat ishlashim mumkin edi. Ishlaganda ham bunaqa zo'riqish oqibatida, hech qanaqa aziyat chekmasdim. Ana shunday ahvolda men shunga keldimki, yashay olmay qoldim va o'limdan qo'rqqanimdan jonimga bexosdan qasd qilib qo'ymasligim uchun o'zimga nisbatan ba'zi chora-tadbirlarni ko'rib qo'yishga to'g'ri keldi.

Ruhiy holatim men uchun shunday ifodalandi: allakim menga qarshi yomon bir bema'ni hazil qilib, menga shu hayotimni ato etgan. Men o'zimning «biror» kimsa tomonidan yaratilganimni tan olmas edim. Shunga qaramay, bu dunyoda meni barpo eta turib, allakim ustimdan yomon bir bema'ni hazil qilgan degan tasavvur men uchun eng tabiiy tasavvur shakli edi.

Beixtiyor ravishda menda shunday tasavvur paydo bo'lardi: yuqorida — allaqaerda kimdir bor. U mening oz emas — ko'p emas, 30 — 40 yil umr kechirganimni, bu yillar mobaynida o'qib o'sganimni, jismonan va ruhan baquvvat tortganimni, endi esa aqlim butunlay balog'atga yetganda, men hayotning eng baland cho'qqisiga yetib kelganimni, bu cho'qqidan butun hayotni kaftdagidek ko'rib turganimni va shu ahvolda shu cho'qqi ustida hayotda hech narsa yo'qligini, hech narsa bo'lmaganini va bo'lishi ham mumkin emasligini aniq-taniq anglaganimcha ovsarlarcha qaqqayib turganimni ko'rib ustimdan rosa mazax qilib kulyapti. «U yana kuladi-ya...»

Ammo mening ustimdan kulayotgan bu allakim bormi yo yo'qmi — buning menga farqi yo'q. Men na butun hayotimga, na undagi biron xatti-harakatimga aql bovar qiladigan hech qanaqa ma'no bera olmadim. Men faqat bir narsaga hayron edim — qanday qilib hayotimning dastlabki fasllarida mening bunga aqlim yetmadiykin? Bularning bari ko'pdan beri hammaga ma'lum edi-ku? Bugun bo'lmasa ertaga sevgan odamlarim boshiga xastaliklar yog'ilib keladi, ajal g'ippa bo'g'adi (ba'zilarni olib ham ketdi). Xastaliklaru ajal mening boshimga ham tushadi va ulardan keyin qo'lansa hid bilan qurtlardan boshqa hech narsa qolmaydi. Nimaiki ish qilgan bo'lmay ularning hammasi unut bo'ladi, ertami-kechmi o'zimning xotiram ham butkul o'chadi. Shundoq bo'lgandan keyin bu sarsonu ovoragarchilikning nima keragi bor? Qanday qilib odamzod bularning barini ko'rmasligi va yashashda davom etaverishi mumkin? Hammadan ham hayron qoladigan joyi shunda. Faqat sarxush holatdagina yashasang bo'ladi, kayfing tarqashi bilan esa, bularning hammasi yolg'on, o'ta behuda va bema'ni yolg'on ekanini ko'rmaslikning iloji yo'q. Ha, shunaqa, bu ishning hech qanaqa kuladigan joyi yo'q, mazax qilishning ham keragi yo'q, bu o'ta shafqatsizlik va bema'nilikdan boshqa narsa emas.

Ko'pdan beri bir sayyoh haqida sharq masalini aytib yurishadi. Sayyoh dashtu biyobonda qahru g'azabdan tutaqqan yirtqichga ro'para kelibdi. Undan xalos bo'lish niyatida sayyoh suvsiz quduqqa sakrabdi. Ammo ko'rsaki, uning tubida dahshatli bir ajdaho sayyohni yeyman, deb og'zini ochib turibdi. Sho'rlik sayyoh nima qilishini bilmay qolibdi — quduqdan qaytib chiqay desa qonsiragan yirtqichning changalida halok bo'ladi, quduqning tubiga tushsa, ajdahoga yem bo'ladi. Quduq devoridagi yoriqdan bir buta o'sib chiqqan ekan — yo'lovchi shu butaning shoxiga ilinib,

Muallaq osilib qoladi. Borgani sari uning bilaklaridan quvvat ketadi, oradan ko'p o'tmay qismati tugashini, ikki tomondan uni kutib turgan xatarning biriga ro'para kelishini his qiladi, lekin shundoq bo'lsa ham, u butani mahkam changallaganicha osilib turaveradi. Bir mahal sayyoh osilgan hoida o'girilib qarasa, biri qora, biri oq ikkita sichqon u osilib turgan butaning tevaragida baravar uymalanib, tagidan kemirayotgan emish. Ana, ko'p o'tmay, shox o'z-o'zidan qirsillab sinadi-yu, sayyoh ajdahoning og'ziga tushadi. Sayyoh buni ko'rib turibdi, u biladiki, muqarrar halok bo'ladi. Ammo hozircha osilib turar ekan, u tevarak-atrofiga alanglaydi va shoxning barglarida bir necha tomchi asal ko'radi. So'ng bir amallab, uni tili bilan yalay boshlaydi. Men ham uulli shu sayyohga o'xshayman: men ham hayot butog'iga zo'r-bazo'r osilib turibman, bilaman meni parcha-parcha qilib tashlashga tayyor turgan o'lim ajdahosi kutyapti; nima uchun men bu mislsiz qiynoqlar changaliga tushib qolganimni o'zim tushunmayman. Shunday bo'lsa-da, men avvallari menga tasalli bergan asalni yalashga harakat qilaman, lekin bu asal endi menga ortiq huzur baxsh etmaydi, oq sichqon bilan qora

sichqon, ya'ni tun bilan kun men ushlab olgan shohni kemirgandan kemiryapti. Men ajdahoni aniq-ravshan ko'rib turibman va endi asal menga shirin tuyulmayapti. Ko'zim faqat bir narsani — muqarrar ajdahoniyu sichqonlarni ko'ryapti, xolos. Va men Ulardan nigohimni ayirib ololmayapman. Bu esa masal emas, bu chinakam, hech qanday shubha tug'dirmaydigan va hammaga ayon bo'lgan haqiqatdir.

Avvallari yolg'on hayot quvonchlari ajdahodan taraladigan dahshatni bosib turardi, endi bu meni ortiq alday olmaydi. Menga «sen hayotning ma'nosini tushuna olmaysan, bu haqda hadeb o'ylayverma, yashayver» deb har qancha uqtirishmasin, men buni qilolmayman, chunki avvallari buni ancha uzoq muddat davomida qilganman. Endilikda qarshimda yugurib ketayotgan va meni o'lim sari eltayotgan kun bilan tunni ko'rmasligimning iloji yo'q. Men faqat shuni ko'raman, negaki faqat shugina haqiqatdir. Qolgan narsalarning hammasi — yolg'on!

Mening ko'zlarimni shafqatsiz haqiqatdan boshqa narsalardan ko'ra uzoqroq vaqt mobaynida to'sib turgan anavi ikki tomchi asal esa, ya'ni oilaga muhabbat va men san'at deb atagan yozuvchilikka ishtiyoq, men uchun ortiq shirasini yo'qotdi.

«Oila...» — derdim men o'z-o'zimga, lekin oila degani — xotin, farzandlar... ular ham odam. Men qanday sharoitda yashasam, ular ham shunday sharoitda hayot kechiradi; ular ham yo yolg'onga botib yashamoqlari kerak yoki dahshatli haqiqatni ko'rmoqlari zarur. Ular nima uchun yashamoqlari kerak? Nima uchun men ularni sevmog'im kerak? Ularni avaylab, ularga g'amxo'rlik qilib, o'stirib nima qilaman? Ular ham menga o'xshash tushkunlik o'tlarida qovrilsinmi yo hamoqat uchunmi? Ularni yaxshi ko'radigan bo'lsam, men ulardan haqiqatni yashira olmayman — bilish bobida qo'yilgan har bir qadam shu haqiqatga olib boradi. Haqiqat esa — o'lim!

«San'at, poeziya?..» Odamlarning maqtovi ta'sirida men uzoq vaqt davomida o'z-o'zinni ishontirib keldimki, bu ishni bajarsa bo'ladi. Ha, qay bir soniyada o'lim keladi, u hamma narsani — meni ham, ishimni ham, ular haqidagi xotirani ham mahv etadi, ammo shunga qaramay, bari bir, u ishni bajarish kerak. Biroq ko'p o'tmay ko'rdimki, bu ham yolg'on ekan. Menga shu narsa ayon ediki, san'at hayotning bezagidir, kitobxonni avrab, hayot qo'yniga chorlaydi. Ammo hayot men uchun o'zining jozibasini yo'qotib bo'lgan, shunday bo'lgach, men qanday qilib boshqalarni avrashim mumkin? Men hali o'z hayotim bilan yashay boshlamagan kezlarda, begona hayot to'lqinlarida suzib borar ekanman, hali men ifodalashni bilmasam-da, «hayotda ma'no bor» deb ishonib yurgan paytlarimda har xil tusdagi hayotning she'riyatda va san'atda aks etishi menga huzur baxsh etar edi, men san'at ko'zgidagi hayotni tomosha qilib zavqlanar edim, ammo men hayotning ma'nosini qidira boshlaganimdan keyin, men o'zim yashamog'im zarurligini his qila boshlagandan so'ng, bu ko'zgu men uchun yo ortiqcha, keraksiz va kulgili buyumga aylandi yoki menga azob bera boshladi. Ko'zguda ko'rgan narsalarim, unda aks etgan ahvolimning bema'niligi va tushkunligi menga ortiq tasalli bermay qo'ydi. Qalbimning ich-ichida mening hayotimda ma'no bor deb ishongan paytimda men bajonidil bu ko'zgidagi narsalarni ko'rib xursand bo'lardim. U kezlarda ana shu nur va soyaning o'yini — hayotdagi kulgili, fojiona, ta'sirli, go'zal, dahshatli narsalarning hammasi menga bir ermakday edi. Ammo hayot bema'ni va dahshatli narsa ekanini bilganimdan so'ng ko'zgidagi o'yin meni ortiq mashg'ul qilmay qo'idi. Mening tayanchimni kemirayotgan sichqonlar bilan ajdahoni ko'rganimdan keyin asalning toti men uchun sira ham totli bo'lmay qoldi.

Ammo bu hali hammasi emas edi. Agar men hayotning ma'nosi yo'q ekanini shunchaki tushunib qo'ya qolganimda, buni bilib xotirjam bo'lib qo'ya qolishim, «ha, endi qismatim shu ekan-da» deb ko'nib qo'ya qolishim mumkin edi. Ammo men shuning o'zi bilan xotirjamlanib qo'ya qolmas edim. Agar men bir o'rmonda istiqomat qilsamu shu o'rmondan chiqib ketadigan yo'l yo'q ekanini bilsam, yashayverishim mumkin edi. Biroq men o'rmonda adashib qolgan bir kimsa edim. U adashganini bilib, yanada tahlikaga tushadi, har tomonga bosh urib, yo'lni topib olgisi keladi, har bir qadami uni yanada chalg'itayotganini yaxshi biladi, biroq shunga qaramay, o'zini har yonga urishdan to'xtata olmaydi.

Ana shunisi dahshatli edi. Bu dahshatdan xalos bo'lmoq uchun men o'zinni o'zim o'ldirmoqchi bo'ldim. Men boshimga tushajak dahshatni o'ylab, benihoya dahshatga tushdim, bu dahshat yuz

beradigan holatdan ko'ra dahshatliroq ekanini bilardim. Ammo bu dahshatni ko'nglimdan quvib chiqarishga va uning poyonini bardosh bilan kutishga majolim yo'q edi. Zulmat dahshati haddan tashqari katta edi va men tezroq, imkoni boricha tezroq o'q bilan yoki sirtmoq yordamida undan xalos bo'lishni istar edim. Xuddi ana shu tuyg'u meni o'z jonimga qasd qilishga hamma narsadan kuchliroq undadi.

«Yo'g'-e, ehtimol, men biron narsani ko'zdan ochirgandirman yoki biron narsani anglay olmagandirman? — derdim men qayta-qayta o'z-o'zimga. — Ana shu tutqunlik holati odamlarni doimo chulg'ab olgan bo'lishi sira ham mumkin emas-ku?» Shu vajdan men meni qiynagan savollarga odamlar jamg'argan bilimlarning hamma sohalaridan javob izlay boshladim. Izlashlarim iztiroblar ichida uzoq davom etdi, men shunchaki bekorchi qiziqishimni qondirish uchun bo'shshibgina izlaganim yo'q, balki halok bo'lib borayotgan odam najot izlaganiday, tunu kun, tish-tirnog'im bilan tirishib, ne-ne azoblarga dosh berib izladim, lekin hech narsa topolmadim.

Men hamma ilmlardan javob izladim va javob topa olmadimgina emas, balki amin bo'ldimki, menga o'xshab ilmdan javob izlagan boshqa odamlar ham hech narsa topolmagan ekanlar. Topolmagangina emas, balki ochiq-oydin shuni e'tirof qilishganki, meni tushkunlikka olib kelgan o'sha narsa, ya'ni hayotning ma'nosizligi inson erishishi mumkin bo'lgan birdan-bir xulosadir.

Men hamma joyda izladim. Mening olimlar dunyosi bilan aloqalarim juda yaxshi edi. Shuning uchun xilma-xil ilm sohalaridagi olimlar bilan suhbatlar qurdim. Ular faqat kitoblar orqaligina emas, jonli suhbatlarida ham mening oldimda o'z bilimlarini yashirmay to'kib soldilar. Shu tufayli va yana hayotning o'zi tufayli men hayot savoliga ilm nima, deb javob berishini batafsil bilib oldim.

Biroq ilm hayot savoliga bergan javobidan boshqa hech narsa deb javob berolmas ekan. Men bunga ancha vaqtgacha sira ishonmay yurdim. Ilm ohanglari juda sipo va o'ta jiddiy, uning ko'pgina qonun-qoidalarining inson hayotiga daxli yo'q — ilm ularni tasdiqlash bilan ovora. Men bularni ko'rib, «ancha vaqtgacha ilm sohasiga tishim o'tmayapti, hech narsa tushunmayapman» deb yurdim. Menga shunday tuyulardiki, men topgan javoblar savollarimga mos kelmayotgan ekan, bunda ilmning hech qanday aybi yo'q, hamma gap o'zinning nodonligimda, ilmsizligimda. Ammo bu ish men uchun shunchaki ermak yoxud bekorchilikdan shug'ullanayotgan ish emas edi, balki hayot-mamot masalasi edi. Shuning uchun xohlasam-xohlamasam shunday e'tiqodga keldimki, mening savollarim har qanday ilmning negizini tashkil qiluvchi birdan-bir savollardir, shuning uchun bu savollarni qo'ygan bo'lsam, buning uchun men aybdor emas, balki ularga javob berolmagan ilm aybdor, chunki ilm shu savollarga javob beraman, deb da'vo qiladi.

Ellik yoshimda meni o'z-o'zimga suiqasd qilishga undagan savol oddiy go'dakdan tortib, donishmand qariyagacha har bir odamning qalbidan o'rin olgan eng oddiy savol edi. Lekin bu savolga javob topmasa, yashab bo'lmaydi, buni men o'z hayotimda sinab ko'rdim. Bu savol quyidagicha turur: «Men bugun qilayotgan ishdan qanday samara chiqadi? Ertaga qiladigan ishimdan-chi? Mening jamiki hayotimdan nima ma'no chiqadi?»

Boshqacha qilib ifodalasa, savol bunday bo'ladi: «Men yashab nima qilaman? Biron narsani istashimdan nima ma'no? Biror ish qilmog'imning nima keragi bor?» Yana boshqacharoq savolni bunday ifodalasa bo'ladi: «O'lim haq, men, albatta, bu dunyodan o'taman. Mening yashashimda shunday ma'no bormiki, mening o'limim uni mahv eta olmasa?»

Har xil tarzda ifodalangan, aslida bir xil o'lgan ana shu savolga men inson to'plagan turli bilimlardan javob izladim. Oqibatda shunday to'xtamga keldimki, shu savolga nisbatan olganda butun insoniyatning bilimi ikki bir-biriga zid yarim doiralarga ajralar ekan. Bu yarim doiralarning nihoyalarida bir-biriga zid ikki qutb bo'lar ekan. Ularning biri manfiy, ikkinchisi musbat; ammo na u qutbda, na bu qutbda hayot masalasiga javob yo'q.

Bir qator ilmlar bu savolni tan olishmaydigan ko'rinadi, lekin ular o'zlari mustaqil qo'ygan savollarga juda aniq va ravshan javob berishadi. Bular tajribaga asoslangan ilmlar, ularning eng chekka nuqtasida matematika turadi. Ikkinchi qator ilmlar savolni tan olishadi, lekin unga javob berishmaydi.

Ularning eng chekka nuqtasida metafizika turadi.

Ilk yoshligimdan boshlab men ilmi aqliyaga qiziqib kelganman, keyinchalik esa matematik ilmlar ham, tabiiy fanlar ham e'tiborimni tortdi. Men o'z savolimni oldimga aniq-ravshan qilib ko'ndalang qo'ymagunimcha, bu savolning o'zi ich-ichimda pishib o'tmaguncha va qat'iyat bilan hal qilinishini talab qilmaguncha, men bu ilmlar o'sha savolga bergan soxta javoblar bilan qanoatlanib keldim.

Tajriba sohasida men o'z-o'zimga derdim: «Hamma narsa rivojlanadi, tarkibiy qismlarga ajraladi, murakkablashish va mukammallashish sari boradi. Bu harakatni belgilab turuvchi qonunlar bor. Sen — butunning bir qismisan. Imkoni boricha butunni bilsang, rivojlanish qonunini bilsang, shu bilan sen shu butunlikdagi o'z o'ringni ham bilgan bo'lasan». Men uchun har qancha xijolatli bo'lsa ham tan olmog'im kerakki, bir zamonlar men shu javobdan qanoat hosil qilgan edim. Bu o'sha o'zim murakkablashib, mukammallashib borayotgan kezlarimda ro'y bergan edi. Muskullarim chiniqib pishib borar, xotiram boyir, fikrlash qobiliyatim va idrokim ortib borardi. Men o'sib-ulg'aymoqda edim va butun vujudimda shu o'sish-ulg'ayishni his qilib turardim. Tabiiyki, men «o'z-o'zidan butun dunyoning qonuni ayni shuning o'zi bo'lsa kerak va hayotim savollariga javobni ham shundan topsam kerak» deb o'ylagandim. Ammo vaqti soati kelib men o'sishdan to'xtadim, endi ortiq o'smayotganimni, quruqshab borayotganimni his qildim, muskullarim zaiflasha boshladi, tishlarim to'kila boshladi — shunda ko'rdimki, boyagi qonun menga hech baloni tushuntirib berolmas ekan. Qolaversa, hech qachon bunaqa qonunning o'zi bo'lmagan ekan va bo'lishi ham mumkin emas ekan, hayotimning muayyan bir davrida o'zida topgan narsani men qonun deb yurgan ekanman. Endi men qonunni belgilashga yanada talabchanroq yondosha boshladim. Shunda menga ayon bo'ldiki, intihosiz rivojlanish qonunlarining bo'lishi mumkin emas ekan; yana shu narsa ayon bo'ldiki, «intihosiz makonda va zamonda hamma narsa rivojlanadi, tarkibiy qismlarga ajraladi, murakkablashadi, mukammallashadi» deyish hech narsa demaslik bilan barobar ekan. Bularning hammasi ma'nosiz so'zlar, negaki intihosiz narsada na murakkablik, na soddalik, na orqasi, na oldi, na yaxshi, na yomoni bor.

Eng muhimi esa — mening shaxsiy savolim, ya'ni «xohishu istaklarim bilan birga men o'zim nimaman?» degan savol hali ham mutlaqo javobsiz qolmoqda edi. Shunda angladimki, bu ilmlar juda qiziqarli va jozibali, ammo bu ilmlarning aniqligi va ravshanligi ularning hayot savollariga tatbiq qilinishiga teskari mutanosibdir: ular hayot masalalariga qancha kam tatbiq qilinsalar, shuncha aniqroq va ravshanroq bo'ladilar, hayot masalalarini hal qilishga qancha ko'proq harakat qilsalar, shuncha mukammalroq va jozibasizroq bo'la boradilar. Agar bu ilm sohalarining hayot masalalarini hal qilishga uringanlariga, ya'ni fiziologiya, psixologiya, biologiya, sotsiologiya kabilarga murojaat qilsang, bunda kishini lol qoldiradigan fikriy qashshoqlikni, uchchiga chiqqan mujmallikni, hal qilib bo'lmaydigan masalalarni hal qilaman degan behuda dag'dag'alarni ko'rasan. Bunda bir mutafakkir boshqasi bilan uzluksiz qirpichoq bo'lib yotadi, hatto bir mutafakkirning o'zida fikrlarida chigal ziddiyatlar uchraydi. Agar bordi-yu, hayot masalalarini hal qilish bilan shug'ullanmaydigan ilm sohalariga murojaat qilsang, ular o'zlarining ilmiy, maxsus savollariga bergan javoblarini ko'rib, inson tafakkurining qudratiga lol qolasan, lekin oldindan bilasanki, ularda hayot masalalariga javob yo'q. Bu ilmlar to'g'ridan-to'g'ri hayot savollarini chetlab o'tishadi. Ular deydi: «Sening kim ekaning va nimaga yashayotganing to'g'risidagi savolga bizda javob yo'q. Va, umuman, biz bu bilan shug'ullanmaymiz. Ammo bordi-yu, sen yorug'lik qonunlarini, kimyoviy birikmalar qonunlarini, organizmlar rivojining qonunlarini bilmoqchi bo'lsang, mabodo sen jismlar, ularning shakllarining qonunlarini, sonlar va kattaliklar nisbatini bilmoqni ixtiyor etsang yoxud o'z aqling qonunlarini bilishga zaruriyat tug'ilsa, bularning hammasiga bizda aniq, ravshan va shubha tug'dirmaydigan javoblar bor».

Umuman, tajribaga asoslangan ilmlarning hayot savoliga munosabatini bunday ifodalasa bo'ladi. Savol: «Men nima uchun yashayapman?» Javob: «Cheksiz katta fazoda cheksiz uzoq vaqt davomida cheksiz kichkina zarralar cheksiz murakkablikda turlarini o'zgartiradilar. Agar sen ana shu turlar

o'zgarishining qonunini anglasang, nima uchun yashayotganingni ham anglab olasan».

Ilmi aqliyaga taalluqli ilmlar sohasida o'zimga o'zim shunday derdim: «Butun insoniyat ma'naviy ibtidoalar va ularga rahnamolik qiluvchi ideallar asosida yashaydi va rivojlanadi. Bu ideallar dinlarda, fanlarda, san'atlarda, davlatchilik shakllarida o'z ifodasini topadi. Bu ideallar yuksalgandan yuksala boradi va insoniyat eng oliy ne'matlar sari boradi. Men insoniyatning bir bo'lagiman, shuning uchun ham mening vazifam insoniyat ideallarini anglash va amalga oshirishga ko'maklashishdir». Men aqlim qodir vaqtlarimda shu gaplarga qanoat qilgan edim, ammo ko'nglimda hayot savodi aniq-taniq holda ko'ndalang bo'lishi bilan bu nazariya bir zumda boshdan-oyoq kunpayakun bo'ldi. Avvalo shuni aytish kerakki, bunga o'xshash ilmlarda muayyan g'irromlik bor — ular insoniyatning kichik bir qismini o'rganish oqibatida chiqargan xulosalarini umumiy xulosalar o'rnida taqdim etadilar. Bundan tashqari bunday qarashlarning turfa xil tarafdorlari o'rtasida «insoniyat ideallari nimadan iborat», degan masala ustida bir-biriga zid fikrlar mavjud. Ammo eng bema'nisi demayligu, eng g'alatisi shundaki, bu nazariyaga ko'ra har bir odam qarshisida ko'ndalang bo'luvchi «Men nimaman?» yoxud «Men nima uchun yashayapman?» yoki «Men nima qilmog'im kerak?» degan savollarga javob berishdan avval inson bitta masalaga javob bermog'i lozim. Bu masala quyidagicha turur: «Butun bir insoniyat bor. Uning nima ekani menga ma'lum emas. Men uning bir zarrasiman, binobarin, shu zarraning qisqagina bir muddat mobaynidagi hayotini bilaman. Shunga qaramay, men «butun insoniyatning hayoti nimadir? degan masalani hal qilib berishim kerak». Binobarin, odamzod o'zining nima ekanini anglamoq uchun uning o'zi kabi hali o'zligini anglab yetmagan ayrim-ayrim odamlardan tashkil topuvchi sirli imkoniyatning nima ekanini anglab olmog'i zarur.

E'tirof etmog'im kerakki, men bunga ishongan chog'larim bo'lgan. U chog'larda meni o'zimning sevimli ideallarim bor edi, bu ideallar mening injiqliklarimni oqlar edi. O'shanda men bir nazariyani yaratish ishtiyoqida edim. Bu nazariyaga asoslanib, men o'z injiqliklarimga insoniyat qonuni sifatida qaramog'im mumkin bo'lardi. Ammo mening ko'nglimda hayot savoli butun ravshanligi bilan ko'ndalang bo'lgani hamon, bu javob ham qoqigulday to'zib ketdi. Shunda angladimki, xuddi tajribaga asoslangan ilmlarda haqiqiy ilmlar bilan bir qatorda o'zlariga tegishli bo'lmagan savollarga javob berishga urinadigan chala ilmlar bo'lgani kabi, bu sohada ham o'zlariga tegishli bo'lmagan masalalarga javob berishga harakat qiladigan bir qator ilmlar bo'lib, ular ancha keng tarqalgan ekan. Bu sohaning chala ilmlari — huqukdgunoslik, ijtimoiy ilmlar, tarixngunoslik — ayrim inson masalalarini hal qilishga kirishganida u qolib ketib, har qaysisi o'ziga xos tarzda butun insoniyat hayotining masalalarini hal qilishga kirishib ketadilar.

Ammo tajribaga asoslangan ilmlar sohasida «qanday yashamog'im kerak?» deb chin yurakdan so'raydigan odam «cheksiz makonda cheksiz zamonda cheksiz murakkablik bilan sodir bo'ladigan cheksiz zarralar o'zgarishini o'rgan, shunda sen o'z hayotingni anglaysan», degan javobga qanoat hosil qilolmaydi. Xuddi shunga o'xshash samimiy odam «biz insoniyatning na ibtidosini, na intihosini bilamiz, biz uning kichik bir qismini ham bila olmaymiz. Lekin sen ana shu insoniyatni yaxlit olib, uning nimaligini angla. Shunda o'zingning kimligingni anglab olasan» degan javobga ham qanoat qila olmaydi. Xuddi tajribaga asoslangan chala ilmlarda bo'lgani kabi bu chala ilmlar ham o'z vazifalaridan nechog'li chalg'ib ketsalar, ulardagi mujmalliklar, chalakashliklar, bema'niliklar va ziddiyatlar shunchalik ko'payib boraveradi. Tajribaga asoslangan ilmning vazifasi moddiy hodisalar o'rtasidagi sababiy izchillikni o'rganishdir. Ammo bu ilm hodisalar orasidagi eng so'nggi sababiyat masalasini qo'yishi bilan bema'ni bir hol yuzaga keladi. Ilmi aqliyaning vazifasi hayotning besababiy mohiyatini idrok etishdir. Unda ham hodisalarni ijtimoiy, tarixiy deb ajratib olib, ular orasidagi sababiy aloqalarni tadqiq qilishga kirishish bilan bema'ni bir vaziyat yuzaga keladi.

Tajribaga asoslangan ilm o'z tadqiqoti doirasiga eng pirovard sababni kiritmagan takdirdagina ijobiy samara beradi va inson aqlining ulug'vorligini namoyish etadi. Va aksincha, ilmi aqliya sababiy aloqalarning muntazamligi haqidagi masaladan mutlaqo yuz o'girib, insonni pirovard sababga nisbatan olib tadqiq qilgandagina haqiqiy fan bo'ladi va inson aqlining ulug'vorligini namoyish etadi. Bu

sohadagi ilm, ya'ni yarim doiraning qutbini tashkil qiluvchi metafizika yoxud ilmi aqliya — falsafa ana shunaqa. Bu ilm bitta masalani aniq-ravshan qo'yadi: «Men va butun dunyo nima? Men nima uchun yashayapmanu dunyo nima uchun mavjud?» Bu ilm vujudga kelganidan beri bu savolga bir xil javob berib keladi. Faylasuf mendagi va jamiki mavjud narsadagi hayotning mohiyatini g'oya deydimi, substantsiya deb ataydimi yoki ruh, iroda deb belgilaydimi, bari bir, bitta gapni aytadi: «Bu mohiyat mavjud va men o'sha mohiyatni tashkil qilaman». Biroq u aniq mutafakkir bo'ladigan bo'lsa, bu mohiyatning nima uchun kerakligini bilmaydi va bu savolga javob bermaydi. Men so'rayman: «Bu mohiyatning borligi nimadan? Bu mohiyat mavjud bo'lsa va kelgusida ham bo'lsa, bundan nima kelib chiqadi?» Falsafa nafaqat bu savolga javob bermaydi, balki o'zi ham qo'shilishib so'raydi. Agar u chinakamiga falsafa bo'ladigan bo'lsa, uning butun ishi shundan iborat bo'lmog'i kerakki, u shu masalani aniq-taniq qo'ymog'i kerak. Agar u o'z vazifasiga qattiq rioya qiladigan bo'lsa, «men nimaman va butun dunyo nima?» degan savolga «hamma narsa va hech narsa» deb, «dunyo nechun mavjud va men nimaga yashayapman?» degan savolga «bilmayman» deb javob berishdan o'zga iloji bo'lmas edi.

Shunday qilib, falsafaning ilmi aqliya borasidagi javoblarini harchand aylantirib ko'rmaylik, men ulardan javobga o'xshagan hech narsa topolmayman. Buning sababi nima bo'lsaykin? Albatta, tajribaga asoslangan fanlardagi kabi javob savolimga taallukdi bo'lmay qolganidan bo'lmasa kerak. Yo'q, bu o'rinda hamma aqliy faoliyat mening savolimga javob topishga qaratilgan, lekin shunda ham javob berilmadi. Negaki, javobning o'zi yo'q. Shuning uchun javobning o'rniga yana o'sha savolning o'zi ko'ndalang bo'laveradi. Faqat har gal yangi, murakkablashgan shaklda...

VI

Hayot savoliga javob izlar ekanman, men xuddi o'rmonda adashib qolgan odamda kechadigan tuyg'uni kechirdim. Yura-yura o'rmon chetidagi yalanglikka chiqdim. Bir daraxt tepasiga chiqib, olis-olislardagi hududsiz makonni ko'rdim, ammo unda bironta ham imorat yo'q va bo'lishi ham mumkin emas edi. Qaytib o'rmon qa'riga kirdim, u yerda zulmat hukmron edi, bu yerda ham bironta imorat yo'q edi.

Shu ahvolda inson bilimlari o'rmonida tentirab yurdim. Bir tomonimda matematik bilimlar va tajribaga asoslangan bilimlar yog'dusi. lar mening ko'z o'ngimda ravshan ufqlarni namoyon etdi, biroq ular shunday ufqlar ediki, uni mo'ljallab borib, bironta ham imoratga yo'liqa olmasding, chunki imoratning o'zi yo'q edi. Ikkinchi tomonimda ilmi akdiyaga mansub ilmlar zulmati. Men bu zulmat qa'riga kirib borganim sari zulmat quyuqlashgandan quyuqlasha borardi. Nihoyat, ishonch hosil qildimki, qutulishning iloji yo'q va bo'lishi ham mumkin emas.

Bilimlarning nurlil tomonlariga mahliyo bo'lib yurib, anglardimki, men savoldan o'zimni olib qochyapman, xolos. Mening nigohim qarshisida namoyon bo'lgan ufqlar har qancha ravshan, har qancha jozibador bo'lmasin, bu intihosiz ilmlar qo'yniga sho'ng'imoq har qancha maroqli bo'lmasin, men endi yaxshi anglardimki, ular, ya'ni bu bilimlar menga qancha kamroq kerak bo'lsa, mening savolimga javob berishdan qancha uzoq bo'lsa, shunchalik ravshanroq edilar.

«Ha, ilm-fan shu qadar matonat bilan nimalarni bilishni istashi endi menga ma'lum», — derdim o'z-o'zimga. Ammo bu yo'lda mening hayotim ma'nosi haqidagi savolga javob yo'q. Ilmi aqliya sohasida esa bilardimki, ilmning maqsadi to'g'ridan-to'g'ri mening savolimga javob berishga qaratilgan bo'lishiga qaramay, balki ayni shu qaratilgani tufayli bo'lsa ham ajab emas, men o'z-o'zimga bergan javobdan boshqa javob yo'q edi: «Mening hayotimning qanday ma'nosi bor?» — «Hech qanday». Yoki: «Mening hayotimdan nima chiqadi?» — «Hech narsa». Yoki: «Hamma mavjud narsa nima uchun mavjud va men nima uchun mavjudman?» — «Mavjudliging uchun mavjudsan». Insoniyat ilmining bir tomonini so'roqqa tutib, men so'ramagan narsalarim haqida behisob miqdorda aniq javoblar oldim. Ular yulduzlarning kimyoviy tarkibi, quyoshning Gerkules yulduzlari turkumi sari

harakati, inson va uning turlarining kelib chiqishi, cheksiz kichik atomlarning shakllari, efirning cheksiz kichkina vaznsiz zarralarining tebranishi haqidagi javoblar edi. Ammo «mening hayotimning ma'nosi nimada?» degan savolimga bilimlarning bu sohasi beradigan javob bir xil edi: «Sen — mening hayotim deb atayotgan narsaning aynan o'zisan, sen - zarralarning muvaqqat tasodifiy qo'shiluvisan. Bu zarralarning bir-biriga ta'siri, o'zgarishi sen «mening hayotim» deb ataydigan narsani barpo etadi. Bu qo'shiluv bir necha muddat amal qilib turadi, keyin bu zarralarning o'zaro aloqasi to'xtaydi — shunda sen «hayotim» deb ataydigan narsa ham to'xtaydi. Ana unda sening savollaring ham to'xtaydi. Sen — tasodifan qorilib qolgan bir tutam allanimasan. Bu bir tutam allanima chirydi. Shu allanimaning chirishini sen «o'zimning hayotim» deb ataysan. Allanima shataloq otib yugurib ketadi — shu bilan chirish ham tugaydi, hamma savollar ham to'xtaydi». Ilmlarning aniq tomoni shunaqa javob beradi. Agarda u o'z asoslariga qat'iy amal qilish niyatida bo'lsa, boshqa gap ayta olmaydi ham.

Bunaqa javobdan ma'lum bo'ladi, javob savolga javob bermas ekan. Men hayotimning ma'nosini bilmog'im kerak, «sening hayoting cheksiz bir narsaning zarrasidir» degan gap nafaqat Hayotimga ma'no baxsh etmaydi, balki bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday ma'noni mahv etadi.

Tajribaga asoslangan aniq ilmlarning bu tomoni aqli ilmiya bilan g'ira-shira til biriktirib, «hayotning ma'nosi taraqqiy etishda va bu taraqqiy etishga ko'maklashuvda» der ekan, bu gapni ham o'zining mujmalligi va xiraligiga ko'ra javob qatorida hisoblab bo'lmaydi.

Bilimlarning boshqa tomoni, ya'ni ilmi aqliya o'z asoslariga qat'iy amal qilib, bu savolga bevosita javob berar ekan, hamma asrlar da va hamma joyda faqat bitta javobni aytib kelgan va hozir ham shuni aytadi: «Dunyo chek siz va anglab bo'lmaydigan bir narsa. Inso hayoti ana shu anglab bo'lmaydigan narsaning anglab bo'lmaydigan bir bo'lasi». Men yana ilmi aqliya bilan tajribaga asoslangan ilmlarning til biriktirishi oqibatida paydo bo'ladigan huquqshunoslik, siyosatshunoslik, tarixshunoslik deganga o'xshash chala ilmlarning keraksiz, ortiqcha yukini istisno qilaman. Bu ilmlarga ham yana mutlaqo xato qilgan holda taraqqiyot mukammallashuv tushunchalarini olib kiradilar! Faqat farqi shundaki, aniq fanlarda hamma narsaning taraqqiyoti haqida gapirilardi, bu yerda esa gap odamlar hayotining rivoji haqida ketadi. Ammo har ikkovidagi xato bir xil: cheksiz narsaning taraqqiyoti, mukammallashuvi na maqsadga, na yo'nalishga ega bo'lolmaydi va mening savolimga nisbatan hech narsa deb javob berolmaydi. Ilmi aqliyaga xos ilmlar chinakam falsafaga o'xshab, aniq ish yuritadigan bo'lsa faqat mavjud hodisalarni yangi falsafiy ka taklarga joylab, ularni yangi nomlar bilan atashga xizmat qiluvchi o'sha Shopengauer aytgay professorona falsafa bo'lmasa, filosof eng muhim masalani nazariyadan qochirmasa, uning beradigan javobi hamisha bitta bo'ladi. Bu jsavob Suqrot, Shopengauer, Sulaymon payg'ambar, Budda tomonidan berilgan javobdir.

«Biz hayotdan qay darajada uzoqlashsak, faqat shu darajada haqiqatga yaqinlashib boramiz, — degan ekan Suqrot o'limga tayyorgarlik ko'rayotganida. — Haqiqatni sevguchi bizlar hayotda nimaga intilamiz? Tanimizdan mosuvo bo'lishga va tan hayotidan kelib chiquvchi jamiki yovuzlikdan xalos bo'lishga intilamiz. Shundoq ekan, ajal eshigimizni qoqib kelganda, biz nechuk xursand bo'lmaylik?»

«Donishmand odam butun umri davomida o'limni izlaydi, shuning uchun o'lim unga qo'rqinchli emas».

«Dunyoning ichki mohiyatini iroda deb anglab, — deydi Shopengauer, — va bu iroda tabiatning ko'r kuchlarining ongsiz intilishlaridan boshlab insonning ong to'la faoliyatigacha hamma hodisalarda moddiy tarzda namoyon bo'lishini e'tirof etgan bilan biz bir natijani mutlaqo chetlab o'tolmaymiz: irodani erkin inkor etish bilan birga, uning o'z-o'zini mahv etish bilan birga hamma hodisalar g'oyib bo'ladi, moddiylikning hamma bosqichlaridagi doimiy intilishlar hamda bemaqsad va beistirohat ro'y beradigan mayllar (holbuki butun olam shu intilishlar va mayllarda hamda ular orqali voqe bo'ladi) yo'q bo'ladi, xilma-xil muntazam shakllari yo'qoladi, shakllar bilan birga uning Hamma hodisalari o'zining umumiy shakllari bilan birga, makoni va zamoni bilan birga ro'ib bo'ladi va nihoyat, uning eng so'nggi asosini shakli — sub'ekt va ob'ekt ham yo'q bo'ladi. Iroda bo'lmasa, tasavvur ham yo'q, dunyo ha; yo'q. Bizning qarshimizda, albatta, yolg'iz hech narsa qoladi. Ammo ana shu hechlikka

o'tishga to'sqinlik qiladigan narsa bizning tabiatimizdir. Tabiatimiz esa yashashga ishtiyoqimizdan; irodamizdan o'zga narsa emas. Bizning dunyomiz kabi o'zimiz ham tarkiban ana shu irodadan iboratmiz. Biz hechlikdan qo'rqib dahshatga tushamizmi yoxud ayni shundoq yashashni istaymizmi — buning faqat bitta ma'nosi bor: bizning o'zimiz turgan-bitganimiz ana shu yashash ishtiyoqidan iboratmiz, undan o'zga narsa emasmiz va undan boshqa hech narsani bilmaymiz. Shuning uchun o'zimiz irodaga to'la bo'lsak; biz uchun iroda mutlaqo mahv etilgandan keyin nima qoladi? Hech narsa. Biroq aksincha ham shunaqa — agar kimlardadir iroda o'zgarib qolgan bo'lsa va o'z-o'zidan yuz o'g'irgan bo'lsa, ular uchun bizning voqeyi dunyomiz jamiki quyoshlari va jamiki somon yo'llari bilan birga hech narsadan o'zga emas».

«Hamma narsa behudadir, — deydi Sulaymon payg'ambar, — behudadan-behuda, nimaiki bo'lsa, bari behuda! Odamzod quyosh nurlari ostida terga pishib mehnat qiladi. Bundan unga nima naf? Avlodlar ketadi, avlodlar keladi, yer esa mangu qoladi. Nima bo'lgan bo'lsa, o'sha bo'ladi, nima ro'y bergan bo'lsa, o'sha ro'y beradi. Bu yorug' dunyoda hech qanaqa yangi narsa yo'q. Ba'zan biroy narsa tilga tushadi — «qara, bu yangilik» deyishadi. Ammo bu bizdan avval necha asrlar muqaddam ro'y bergan bo'ladi. O'tganlarni xotirda saqlamaymiz, ammo bundan keyin bo'ladigan narsalar ham bizdan keyin bo'ladiganlarning xotirasida saqlanib qolmaydi. Men — Yekleziast, Quddusi sharifda Isroil ustidan podsho edim. Ko'nglimda bir xohish uyg'onib, yer yuzida ro'y berayotgan voqealarning hammasini tadqiq etmoqchi va aql tarozusidan o'tkazmoqchi bo'ldim. Bani odamga Xudo shu og'ir mashg'ulotni ravo ko'radi. Bu yorug' dunyoda bo'layotgan ishlarning hammasini ko'rdim. Ko'rdim — bari behuda, bekorga jonni qiynamang... Yurakdan chiqarib o'zimga dedim: mana, sen oliy martabaga erishding, mendan avval Quddusi sharifda mavjud bo'lgan jamiki donolikdan ortiqroq donolikka erishding. Mening qalbim ham ko'p donoliklar ko'rdi, ko'p bilimlarga oshno bo'ldi. Shunda men butun qudratimni donolikni anglashga, farosatsizlik bilan ahmoqlikni anglashga baxsh etdim. Ammo bildimki, bularning bari jonga jabr ekan. Sababki, donolik ko'p joyda g'ussa ko'p bo'lar ekan: bilimli ko'p odamning boshi qayg'udan chiqmas ekan.

Shunda men o'zimga dedim: «Qani, seni bir xurramlik sinovidan o'tkazay, yaxshilikdan lazzatlanay». Ammo bu ham behuda ekan. Kulgi haqida «bu bema'nilik» dedim, xurramlik to'g'risida esa «u nima qilyapti?» dedim. Keyin ich-ichimdan chiqarib, tanamni sharob bilan lazzatlantirmoqchi bo'ldim. Yana shuni ixtiyor etdimki, ko'nglim donolikni rahnamo deb bilgani holda, uzim hamoqatning nimaligini ham bilmay, toki bani odam uchun nima yaxshi ekanini o'z ko'zim bilan ko'ray, ular bu yorug' dunyoda kechiradigan Qisqagina umrlarida nima ishlarni qilmoqlari kerakligini bilay. Men katta ishlarni amalga oshirdim: o'zimga imoratlar qurdim, tokzorlar barpo etdim. O'zimga bog'lar yaratdim va u yerda har xil mevali daraxtlar o'tqazdim, bog'-rog'larni, u yerda o'sayotgan daraxtlarni sug'orish uchun hovuzlar qazdirdim, o'zimga mulozimlar va kanizlar oldim, bola-chaqalarim ham serobgina edi, mendan avval Quddusi sharifda o'tganlarning hammasinikidan ko'ra men to'plagan yirik va mayda chorva ko'proq edi: har xil podsholardan va viloyatlardan o'zim uchun kumushu oltin hamda boshqa qimmatbaho toshlar yig'dim; saroyimga xonandayu raqqosalarni to'pladim, bani odamga zavq-shavq ato qiluvchi har xil musiqa asboblarni keltirdim. Shunda men Quddusi sharifda mendan avval o'tganlarning hammasidan ham ulug'roq va badavlatroq bo'lib qoldim. Donoligimga ham hamma tan bergan edi. Ko'zim nimani ko'rsa, men qaytarmay hammasini xarid qilar, ko'nglim qanaqa ermakni tusasa, men hech qaysisini rad etmas edim. Nihoyat, men o'z qo'llarim bilan qilgan hamma ishlarimga, peshona teri to'kib qilgan mehnatimga nazar tashladim. Va ko'rdimki, bularning bari behuda va bari jonga jabr. Bu yorug' dunyoda ulardan naf yo'q. Men orqamga o'girilib, donolikka ham, farosatsizlikka ham, ahmoqlikka ham nazar tashladim. Lekin bildimki, ularning barining qismaty bir ekan. Shunda ich-ichimdan chiqarib o'zimga dedim: «Axir, tentak odamning qismati mening ham boshimga tushar ekan, nima uchun men juda ham dono bo'lib yuribman?» Shunda ich-ichimday o'zimga aytdim: «Bu ham behuda», Negaki, ahmoq odamni xotirda saqlamaganlaridek, dono odamni xam mangu xotirda tutmaydilar, kelajak kunlarda ularning hammasi

unut bo‘ladi va nadomatlar bo‘lsinki, dono odam ham ahmoq bilan barobar dunyodan o‘tadi! Shunda men hayotni yomon ko‘rib ketdim, chunki yorug‘ dunyoda qilinadigan ishlar ko‘zimga yomon ko‘rinib ketdi, chunki hammasi behuda va jonga jabr edi. Yorug‘ dunyoda qilgan jamiki mehnatim ko‘zimga yomon ko‘rinib ketdi, chunki men uni o‘zimdan keyin keladigan odamga qoldirmog‘im kerak. Chunki odamzod bu yorug‘ dunyoda mehnat qilib, bu mehnatidan, chekkan tashvishlaridan nima ko‘radi? Negaki, uning hamma kuni qayg‘uli, hamma mehnati — tashvish. Hatto, kechalari ham uning yuragi tinim bilmaydi. Bu ham — behuda. Yeb-ichmokday ne‘mat ham, mehnatdan so‘ng rohatu farog‘at bilan jonini yayratish ham odamning o‘z hukmida emas.

Hamma narsaning va hammaning qismati bir. Batavfiq odamning ham, betavfiqning ham, yaxshi-yomonning ham, pokiza va iflosning ham, qurbonlik qilgan va qilmaganning ham, sersaxovat va gunohkorning ham, qasam ichuvchi va Qasamxo‘rning ham qismati bitta. Yorug‘ dunyodagi hamma ishlarda qismatning bitta ekani yomon, shu tufayli bani odamning yuragi yomonlikka to‘la, ularning yuragidan aql qochgan, hayotlaridan ham aql ketgan. Shundan keyin ular o‘tganlar safidan o‘rin oladi. Tiriklar orasida qolganlar hali nimalardandir umidvor bo‘lsa bo‘ladi, negaki, o‘lik arslon bo‘lgandan ko‘ra tirik kUchuk bo‘lgan yaxshi. Tiriklar vaqt-soati yetib, Qazo topishlarini biladilar, o‘liklar esa hech narsani bilmaydilar, ular ortiq inoyat ha^ ko‘rmaydilar, negaki, ularning xotirasi ha^ unut bo‘lgan, ularning muhabbati ham, ularning nafrati ham, ularning rashki ham g‘oyib bo‘lib bo‘lgan, bu yorug‘ dunyoda endi ular hech narsa bilan sharaflanmaydilar».

Sulaymon payg‘ambar shunday deydi. Yoxud shu so‘zlarni yozgan odam shunday deydi.

Endi hind donishmandlari nima deyishini eshiting:

«Yosh baxtiyor shahzoda Sakna-Muniga xastaliklar, qarilik, o‘lim begona edi. Kunlardan birida u saylga boradi va tishlari to‘kilib ketgan, so‘laklari oqib yotgan, munkillagan bir cholni ko‘radi. Shu paytgacha qarilikni ko‘rmagan shahzoda aravakashdan buning nimaligini, nima sababdan bu odam shu qadar ayanchli va xunuk ahvolga tushganini so‘raydi. Bunday qismat hamma odamlarning boshida bor ekanini, yosh shahzoda ham vaqt-soati kelib, albatta, shu ahvolga tushajagini eshitib, shahzoda saylga borgisi kelmay qoladi va bu gaplarning hammasini o‘ylab ko‘rmoq uchun orqaga qaytishni buyuradi. Uyga yetib borgach, ichkariga berkinib olib, o‘ylashga boshlaydi. Bir necha muddat o‘tgach, shahzoda bir narsadan taskin topadi. U yana shodu xurram va baxtiyor kayfiyatda saylga yo‘l oladi. Bu gal unga bemor ro‘para keladi. Uning ko‘z o‘ngida o‘lguday toliqqan, ko‘karib ketgan, ko‘zlaridan nur ketgan, dag‘-dag‘ qaltiroq bosgan bechorahol bir odam gavdalanadi. Shu paytgacha xastalik nima ekanini bilmagan shahzoda to‘xtab, nima gap ekanini so‘raydi. Shunda bu xastalik ekanini, hamma odamlar xastalikka uchrashi mumkinligini, uning o‘zi, sog‘lom va baxtiyor yurgan shahzoda ham, ehtimol, ertaga shunaqa bemor bo‘lib qolishi mumkinligini eshitib, qayfi buziladi, kayfichog‘lik qilishga xushi qolmaydi va uyga qaytishni buyuradi. U uyida yana o‘zicha biror taskin izlaydi va uni topadi, shekilli. Chunki u yana bir marta sayru tomoshaga otlanadi. Ammo uchinchi marta ham yo‘lda bir voqeaga yo‘liqadi — odamlar nimadir ko‘tarib ketishayotganini ko‘radi. «Nima bu?» — «Bandalikni bajo keltirgan odam». — «Bandalikni bajo keltirish qanaqa bo‘ladi?» — deb so‘raydi shahzoda. — «Bandalikni bajo keltirish shu odamga o‘xshab jon taslim qilish bo‘ladi», — deb javob berishadi. Shahzoda tobutning oldiga boradi, pardani ko‘tarib mayitning yuziga qaraydi. — «Bu odam endi nima bo‘ladi?» — deb so‘raydi shahzoda. — «Uni yerga ko‘madilar», — deb javob berishadi shahzodaga. — «Nega?» — «Negaki, endi u hech qachon boshqa tirilmaydi, u chirib-iriydi, keyin tuproqqa aylanadi». — «Hamma odamlarning ham qismati shunaqami? Men ham shu ko‘yga tushamanmi? Meni ham ko‘mishadimi? Men ham irib-chirib, qurtlarga yem bo‘lamanmi?» — «Ha». — «Orqaga qayt! Men sayrga bormayman. Bundan keyin hech qachon hech Qanaqa sayrga bormayman».

Shunday qilib, Sakna-Muni hayotdan taskin topa olmadi va «hayotning turgan-bitgani ulug‘ bir yovuzlikdir» degan to‘xtamga kelib, butun Qalb kuchini undan xalos bo‘lishga va boshqalarni Undan xalos etishga sarfladi. «Xalos etganda ham shunday qilmoq kerakki, odamning vafotidan keyin hayot bir amallab qayta tiklanmasin, uni butunlay, tag-tugi bilan tubdan mahv etigd kerak». Hind

donishmandlari shunday deydi.

Insoniyat donolari hayot savollariga bergan bevosita javoblar bunday turur:

«Jismning hayoti yovuzlikdan va yolgʻondan iborat. Shuning uchun ham bu jism hayotini mahv etish neʼmatdir, biz shu neʼmatni tilamogʻimiz darkor», — deydi Suqrot.

«Hayot shunaqa narsaki, uning boridan yoʻgʻi yaxshiroq boʻlardir. Hayot — yovuzlik, yovuzlikdan hechlikka koʻchish hayotdagi birdan-bir neʼmatdir», — deydi Shopengauer.

«Dunyodagi hamma narsa — hamoqat ham, donolik ham, boylik ham, qashshoqlik ham, shod-xurramlik va qaygʻu-alam ham, hammasi behuda va arziyas narsalardir. Inson oʻladi va undan hech narsa qolmaydi. Bu bemaʼnilikdir», — deydi Sulaymon paygʻambar.

«Azob-uqubatlari, zaiflashish, qarish va oʻlim muqarrar ekanini anglab turib yashab boʻlmaydi, odam oʻzini hayotdan xalos etmogʻi, har qanday yashash imkonidan mahrum etmogʻi kerak», — deydi Buddha.

Ana shu katta aql egalari aytgan narsalarni ularga oʻxshagan million-million odamlar ham aytgan, oʻylagan, his etgan. Men ham shunday oʻylayman va shunday his qilaman.

Shunday qilib, mening bilimlar oʻrmonida dovdirab yurishim nafaqat meni tushkunlik botqogʻidan xalos eta oldi, aksincha, uni yanada chuqurlashtirdi. Bir sohadagi bilimlar hayot savollariga javob bermadi, boshqa sohadagi bilimlar esa javob berdi-yu, bu javobi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri mening tushkunligimni tasdiqladi. Bu javob yana shuni koʻrsatdiki, men chiqargan xulosa adashishlarimning hosilasi emas, xasta tafakkurimning mahsuli emas, aksincha, u mening oʻylarim toʻgʻri boʻlganini tasdiqladi. Mening oʻylarim insoniyatning eng baquvvat aql egalarining xulosalariga toʻgʻri keldi.

Oʻzini laqillatishning hojati yoʻq. Hammasi — behuda. Tugʻilmagan odam baxtiyor, oʻlim hayotdan yaxshi; shuning uchun hayotdan xalos boʻlmoq kerak.

VII

Savolimga ilmlar bobida tuzukroq javob topolmagach, men uni hayotdan izlay boshladim. Men bu javobni tevaragimni qurshagan odamlar hayotidan topmoqqa umid qildim. Shuning uchun xuddi oʻzimga oʻxshagan odamlar hayotini kuzata boshladim, mening tevaragimdagi odamlar qanday yashayotganini, meni qiynoqqa solgan savollarga munosabati qanaqa ekanini oʻrganishga kirishdim.

Shunda maʼlumot darajasi va yashash tarziga koʻra men bilan bir xil mavqeda boʻlgan odamlardan topganim shu boʻldi: shuni topdimki, mening doiramga mansub odamlar uchun hammamiz tushib qolgan dahshatli ahvoldan qutulishning toʻrt yoʻli bor ekan.

Bu boshi berk koʻchadan chiqishning birinchi chorasi bilmaslik ekan. Uning maʼnosi shundan iboratki, hayot yovuz narsa ekanini va yashashning maʼnosizligini bilmaslik, anglamaslik kerak. Bu toifa odamlar — ayniqsa, ayollarning koʻpchiligi, yo hali juda yosh odamlar yoxud oʻta befarosat kishilar — Shopengauer, Sulaymon paygʻambar, Buddha qarshisida koʻndalang boʻlgan hayot masalasini hali tushunib yetmaydilar. Ular na pastda kutib yotgan ajdahoni, na ular yopishib olgan shoxni kemirayotgan sichqonlarni koʻrishadi, ular faqat asal yalash bilan ovora. Ammo ularning asal yalashlari fursati kelib toʻxtaydi, biror kimsa ularning eʼtiborini ajdaho bilan sichqonlarga qaratadi-yu, shu bilan ularning asal yalashi toʻxtaydi. Men bu odamlardan hech narsa oʻrgana olmayman. Bilgan narsangni bilmay qolishning iloji yoʻq-da...

Ikkinchi chora — epikurona chora. Uning maʼnosi shundan iboratki, hayotdan umidvor boʻlmoqning imkoni yoʻqligini bilaturib, hozircha mavjud neʼmatlarning hammasidan istifoda etiladi, na ajdahoga, na sichqonlarga qaraladi, asalni esa toʻyib-toʻyib yalayveriladi, ayniqsa, shoxdagi asal moʻl boʻlsa... Sulaymon paygʻambar bu chorani bunday ifodalaydi:

«Va men shodu xurramlikni alqadim, negaki yorugʻ dunyoda odam farzandi uchun yeb-ichish va shodu xurramlik qilishdan koʻra yaxshiroq narsa yoʻq: bu yorugʻ dunyoda Xudo unga ato qilgan umrning kunlari mehnat bilan oʻtadigan boʻlgach, u yeb-ichmogʻi va xurram boʻlmogʻi joiz.

Shunday qilib, bor, shodu xurramlik bilan noningni ye va shodu xurramlik bilan sharobingni ich... Behuda ketadigan hayotingning hamma kunlarida, jamiki behuda kunlaringda yaxshi ko'rgan ayoling bilan turmush lazzatlarini tot... Negaki, bularning hammasi sening hayotdagi qismating, yorug' dunyodagi mehnating evaziga oladigan ulushing... Kuch-quvvatiga qarab qo'ling nima ishni bajarishga qodir bo'lsa, hammasini bajar, chunki sening so'nggi manzilingda — go'rda na ish bor, na mulohaza, na bilim bor, na donolik».

Mening doiramga mansub odamlarning ko'pchiligi ana shu ikkinchi yo'lni ma'qul ko'radilar. Ular yashaydigan sharoit shunaqaki, bu sharoit ularni qurshagan noz-ne'matlarni mo'l-ko'l qilib qo'ygan, ular yomonlikka kamroq ro'para keladilar. Buning natijasida ularning vijdoni ko'r bo'lib qolgan. Bu esa ularning farovon sharoiti tasodif ekanini unutishga imkon beradi. Ular o'ylamaydilar, hamma ham Sulaymon payg'ambarga o'xshab 1000 xotinga va 1000 qasrga ega bo'lavermaydi, har bir 1000 xotinlik odamga 1000 ta xotinsiz erkak to'g'ri keladi va har bitta qasrga peshonasining teri bilan bu qasrni qurayotgan 1000 ta odam to'g'ri keladi. Bir tasodif bilan bugun men Sulaymon bo'lib qolgan bo'lsam, shu tasodifning o'zi ertaga meni Sulaymonning quliga aylantirib qo'yadi. Bu odamlarning xayoloti ham shu qadar sayoz va cheklanganki, ular Buddaga tinchlik bermagan narsalarni. unutilib yuborishga imkon beradi. Xastaliklar, qarilik va o'lim muqarrar ekanini ular eslariga keltirmaydilar. Holbuki, xastalik, qarilik, o'lim keladi-yu, hamma huzur-halovat chippakka chiqadi. Bu odamlarning ba'zi birlari fikrlari va xayolotlarining nochorligini falsafa deb hisoblaydilar va uni pozitiv falsafa deb ataydilar. Ammo mening nazarimda, bu ularni savolni ko'rmasal yalab yotganlar toifasidan ajratib olishga imkon bermaydi. Men bu odamlarga taq-lid qila olmasdim: ulardagi xayolotning nochorligi menda yo'q edi va men uni o'zimda sun'iy ravishda bor qilolmasdim. Men har qanday tirik odam kabi bir marta ko'zim tushgandan keyin sichqonlar bilan ajdahodan ko'zimni uzolmasdim.

Uchinchi chora — kuch va quvvat chorasidir. U shundatt iboratki, hayot yovuz narsa ekanini va uning ma'nosizligini anglagach, hayotni mahv etadilar. Kamdan-kam odamlar bu ishni qiladilar — ular baquvvat va izchil odamlar bo'ladi. Uning ustidan qilingan hazil naqadar bema'ni ekanini anglab va o'lim ne'mati tiriklik ne'matidan nechog'li afzal ekanini va undan ko'ra yashamay qo'ya qolgan ma'qul ekanini anglab, jonlariga qasd qilishadi-yu, bu bema'ni maynavozchilikka chek qo'yisha qoladi. Suiqasd vositalari ham anqoning urug'i emas — bo'yinga solgani sirtmoq, suv, yurakka sanchgani pichoq, temir yo'llarda poezdlar... Bizning davramizga mansub kishilar o'rtasida bu yo'lga qadam qo'yayotganlari borgan sari ko'payib bormoqda. Bunday qiladigan odamlarning ko'pchiligi hayotning avji yuksak paytida, ma'naviy kuchlari gullab-yashnab turgan kezlarda, inson tafakkurini tah-qirlovchi odatlar hali tabiatiga singishib ulgurmay, jonlariga qasd qiladilar. Men bu choraning eng munosib chora ekanini ko'rdim va o'zim ham shunday qilmoqchi bo'ldim.

To'rtinchi chora o'zlik chorasidir. U shundan iboratki, hayotning yovuz narsa ekanini va ma'nosizligini anglab, odam yashashidan hech narsa chiqmasligini oldindan bilsa-da, yashashda davom etaveradi. Bu toifa odamlar o'lim hayotdan afzalroq ekanini bilishadi, ammo oqilona ish qilishga, ya'ni tezroq yolg'onga xotima qo'yib, o'zlarini o'ldirishga kuchlari yetmaganidan, go'yo biror narsani kutayotgandek yuraveradilar. O'zlik chorasi ana shudir, negaki, agar men yaxshiroq chorani bilsam va uni amalga oshirish o'zimning hukmimda bo'lsa, nega endi shu yaxshiroq chorani qilmasligim kerak?.. Men shu toifaga mansub edim.

Shunday qilib, mening toifamdagi odamlar bu dahshatli ziddiyatdan ana shu to'rt chora bilan xalos bo'ladilar. Men aqlimni ishga solib, har qancha o'ylab ko'rmasal, ana shu to'rtta choradan boshqasini topolmadim. Birinchi chora — hayot ma'nosiz ekanini, yovuz va behuda narsa ekanini, undan ko'ra yashamay qo'ya qolgan ma'qul ekanini anglamaslik. Men buni bilmasligim mumkin emas edi va uni bilganimdan keyin esa undan ko'z yummog'imning iloji yo'q edi. Ikkinchi chora — hayot qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, kelajakni o'ylamay undan istifoda etish. Men buni ham qilolmasdim. Men qarilik, iztirob, o'lim borligini bilib turib, Sakna-Muniga o'xshab ovga borolmasdim. Mening xayolotim haddan ziyod kuchli edi. Bundan tashqari, men mening hissamga bir

lahzalik huzur-halovat ato etadigan bir daqiqalik tasodifdan ham mamnun bo'lolmasdim. Uchinchi chora — hayot yovuz va ma'nosiz narsa ekanini anglab, o'z joniga qasd qilmoqdir. Men buni anglab yetgandim, lekin nima uchundir hadeganda o'zimga qo'l ko'tarolmai kelyapman.

To'rtinchi chora — Sulaymon payg'ambar va Shopengauer holatida yashash, ya'ni hayot menga nisbatan qilingan bir bema'ni, tahqirli hazid ekanini bilib turib, yashashda davom etishdir. Hech narsa bo'lmaganday yashayverasan, har kuni bet-qo'lingni yuvasan, kiyimlaringni kiyasan, tushlik qilasan, gap sotasan va hatto, kitoblar yozasan. Bu men uchun turgan-bitgani azob-uqubat edi, o'z-o'zimdanda ijirg'anar edim, lekin shu ahvolda qolishda davom etardim.

Endilikda bir narsani ko'rib turibman — agar men o'zimni o'zim o'ldirmagan bo'lsam, buning sababi shundaki, yuritgan mulohazalarimda allanechuk adolatsizlik bor ekanini g'ira-shira his qilardim. Hayotning ma'nosizligini tan olishga olib kelgan mening mulohazalarimning va donolar mulohazalarining mantig'i har qancha ishonchli va shubhasiz tuyulmasin, menda o'z mulohazalarimning ibtidosi chinligiga allaqanday shubha saqlanib qolgan edi.

Bu shubha quyidagicha edi: men o'z aqlim bilan hayotning bema'ni ekanini e'tirof etdim. Agar oliy tafakkur bo'lmasa (bunday tafakkur yo'q va hech narsa uning borligini isbot qilib berolmaydi), unda oddiy tafakkur men uchun hayotning ijodkoridir. Agar mening tafakkurim bo'lmasa, men uchun hayot ham bo'lmas edi. Ammo tafakkurning o'zi, aqlning o'zi hayotning ijodkori bo'lsa, u qanday qilib, nechuk hayotni inkor etadi. Yoki boshqa tomondan olib ko'raylik: agar hayot bo'lmasa edi, mening tafakkurim, aqlim ham bo'lmas edi. Binobarin, aql — hayotning farzandi ekan-da! Hayot — hamma narsa. Aql hayotning samarasi va shu aql hayotning o'zini inkor etadi. Su o'rinda nimadir joyida emasligini, allanechuk xatolik borligini his qilardim. «Hayot ma'nosiz yovuzlikdir, bunga shakshubha yo'q», — derdim men o'zimga-o'zim. Ammo men yashab keldim, yashayapman, butun insoniyat yashab keldi va yashamoqda. Nechuk shunday? Yashamay qo'ya qolsa ham bo'laveradigan bir holda u nima uchun yashaydi?

Nima balo, biz Shopengauer bilan ikkimiz shu qadar donomizki, hayotning ma'nosizligini va yovuz narsa ekanini faqat ikkovimiz tushundikmi?

Hayotning o'tkinchiligi, behudaligi haqidagi mulohazalar unchalik murakkab emas, eng oddiy odamlar ham ko'pdan beri shunday mulohaza yuritishadi va yashashda davom etishadi. Qandoq bo'ldi? Ular yashashda davom etaverib, hayotning aqlga muvofiqligiga shubha qilishni hech qachon xayollariga keltirmaydimi?

Donolarning donolari tomonidan ma'qullangan mening bilimim tufayli kashf qildimki, bu dunyoda hamma narsa — organik dunyo ham, noorganik dunyo ham haddan tashqari oqilona tartibga ega, faqat birgina mening ahvolim bema'ni, xolos. Bu tentaklar esa, ya'ni oddiy odamlarning ko'pchiligi olamda organik va noorganik dunyo qanday tartiblanganidan butunlay bexabar, lekin shunday yashashdiki, go'yo ularga Hayotlari haddan tashqari aqlga muvofiq tartiblanganday tuyuladi.

Shunda birdan miyamga bir fikr keldi — balki men biron narsadan bexabardirman? Hali bilib ulgurmagan biron sinoat bordir? Axir bilimsiz odam ham shunday qiladi-ku? Bilimsizlik hamma vaqt shunday deydi-ku? Agar u biron narsani bilmasa, bilmagan narsasini bema'ni, ahmoqona narsa deb ataydi. Bundan kelib chiqadiki, insoniyatni yaxlit oladigan bo'lsak, u o'z hayotining ma'nosini anglab yetganday shu paytgacha yashab keldi va yashamoqda, agar uni anglamaganida, tushunib yetmaganida insoniyat yashay olmasdi, men bo'lsam, bu hayotni boshdan-oyoq ma'nosiz deyapman va yashay olmayman, deb nola chekyapman.

Hayotni inkor etishga Shopengauer ikkovimizga hech kim xalaqit bermaydi. Unday bo'ladigan bo'lsa, o'zingni o'ldir-qo'y, mulohaza yuritmayсан. Yashashda davom etib, hayotning ma'nosini tushuna olmas ekansan, hadeb tipirchilashni bas qil, hayotni angalay olmayapman, deb gap sotishlarni, nola chekishlarni bas qil. Biror quvnoq davraga tushib qolsang, ko'rasanki, hamma shodu xurram, hamma nima qilayotganini yaxshi biladi, senga esa yoqmaydi, zerikasan, siqilasan. O'rningdan tur-da, ket.

Axir chindan ham, kimlarmiz biz o‘zimiz? O‘z-o‘zimizni o‘ldirishimiz zarur ekaniga amin bo‘lsak-da, uni amalga oshirishga qurbimiz yetmasa? Eng ojiz, eng betayin odamlar emasmizmi? Boshqacha aytganda, devona to‘rvasini hammaga peshkash qilganiday tentakligimizni hammaga ko‘z-ko‘z qiluvchi uchchiga chiqqan bema’ni odamlar emasmizmi?

Axir, donoligimiz har qanchalik chin bo‘lmasin, biz shu donoligimiz yordamida hayotimizning ma’nosini bila olmadik-ku? Harholda yashab kelayotgan insoniyat — millionlab odamlar hayotning ma’nosiga shubha qilmaydi.

Haqiqatan ham, men ozmi-ko‘pmi biror jihatini biladigan hayot paydo bo‘lgan qadim-qadim zamonlardan beri odamlar hayotning behudaligi, o‘tkinchiligi haqidagi mulohazadan xabardor holda yashab kelyapti. Bu mulohaza menga hayotning ma’nosizligini ko‘rsatdi, holbuki odamlar unda qay bir ma’no bor deb biladilar. Odamlar biron-bir tarzda hayot kechira boshlagan zamonlardan beri ular hayotning ma’nosidan voqif bo‘lganlar va shu voqiflik bilan bizning kunlarimizgacha yashab keldilar. Menda va mening tevaragimda nimaiki mavjud bo‘lsa, bularning bari ularning hayotni bilishi samarasidir. Men bu hayotni muhokama qilishda va qoralashda muayyan fikr qurollaridan foydalanaman. Bu qurollarning barini men emas, ular yaratgan. Men o‘zim ham ular tufayli tug‘ildim, o‘sdim-ulg‘aydim, balog‘atga yetdim. Ular yer qa‘ridan temir qazib chiqarishdi, o‘rmon kesishni o‘rganishdi, sigirlarni qo‘lga o‘rgatishdi, otlarni o‘rgatishdi, ekin ekishni o‘rganishdi, birgalikda yashashni o‘rganishdi, hayotimizni tartibga solishdi, meni o‘ylashga, gapirishga o‘rgatishdi. Men bo‘lsam, ular barpo etgan bog‘ning mevasi bo‘la turib, ularning tuzini yeb, suvini ichib ulg‘ayib, ulardan o‘rganib, ularning fikrlari va so‘zlari bilan fikr qilib, ularga xayollari ma’nosiz narsa ekanini isbotlamoqchi bo‘lib yuribman! «Bunda allanechuk xato bor, — deyman o‘z-o‘zimga. — Nimadadir adashyapman». Ammo bu xato nimada ekanini, nimada adashayotganimni sira topa olmasdim.

VIII

Bu shubhalarimning barini men hozirga kelibgina bir-biriga bog‘lab, ma’nolikkina qilib aytib beryapman. U paytlarda bunday gapirib berolmasdim. U paytlarda mening hayotning behudaligi haqidagi xulosalarim mantiqan har qancha muqarrar ko‘rinmasin, eng buyuk mutafakkirlarning mulohazalari bilan tasdiqlanmasin, ularning qay bir jihatlari menga ancha nosozday ko‘rinardi. Bu nosozlik mulohazalarning o‘zidami yoxud masalaning qo‘yilishidami — buni bilmasdim, faqat his qilardimki, uning mantiqiy ishontirish kuchi benihoya mukammal, faqat bu kifoya emas. Bu dalillarning hammasi meni inontirib, harakat qilishga majbur etolmadi, ya’ni men mulohazalarimdan kelib chiqadigan ishni bajarmadim — o‘zimni o‘zim o‘ldirmadim. Agar bu yerda men aqlimni ishga solib, mantiqiy mulohazalar yo‘li bilan shu xulosaga keldim va o‘zimni o‘zim o‘ldirmadim desam yolg‘on gapirgan bo‘lar edim. Tafakkurim ishlab turgandi, lekin u bilan birga yana boshqa nimadir ishlab turgandi. Men uni faqat birgina yo‘sinda hayot tuyg‘usi deb atay olaman, xolos. Yana shunday bir kuch ishlab turgan ediki, bu kuch boshqa bir narsaga emas, balki ayni shu narsaga diqqatimni jalb qilishga majbur etdi va meni nochor tushkunlik ahvolidan olib chiqib, fikrlarimni butunlay boshqa bir yo‘nalishga solib yubordi. Bu kuch meni e’tibor berishga majbur qildiki, men o‘zimga o‘xshagan yuzlarcha odam bilan hali jamiki insoniyatni tashkil qilmaymiz, men hali insoniyatning hayotidan butunlay bexabarman, uni bilmayman.

Mening tegramni jips qurshab olgan tengkurlarimga qarab, men shunday odamlarnigina ko‘rardimki, ular yo masalani tushunmas edilar, yo masalani tushunar edilaru, bu tushunganlarini piyonistalik dudlariga ko‘mishga urinishardi; yo masalani tushunib, yashashlariga chek qo‘yishardi yoki masalani anglab, ojizliklari sababidan noumidlik va nochorlik qo‘ynida kunlarini ko‘rishda davom etardilar. Boshqacha odamlarni ko‘rganim yo‘q. Men uncha ko‘pchilikni tashkil Qilmaydigan o‘qimishli, badavlat va bekorchixo‘ja odamlar toifasiga mansub edim va o‘ylardimkts ana shu toifa butun insoniyatni tashkil qiladts qolganlar, milliard-milliard yashab o‘tganlar va yashayotganlarga esa

shunchaki bir gap, ular odam emas allaqanday jonivorlar...

Hozirda menga juda g'alati, aql bovar qilmaydigan darajada tushunish qiyin bo'lib tuyuladi — qanday qilib men hayot haqida mulohaza yurita turib, tevarak-atrofimni har tomondan qurshab olgan insoniyatning hayotini ko'rmay qoldim ekan? Qanday qilib men shu darajada kulgili xato qildimki, o'zimning hayotimni, Sulaymon payg'ambar, Shopengauerlar hayotini chinakam hayot, durust hayot deb o'yladim-u, milliardlab odamlarning hayotini diqqatga arzimaydigan bir narsa deb hisobladim. Bularning bari bugun menga har qancha g'alati tuyulmasin, e'tirof etishim kerak — o'sha paytda shunday o'ylagan edim. Mutakabbirlikim aqlimni ko'r qilib qo'ygan ekan o'shanda. Shu sababdan biz Sulaymon payg'ambaru Shopengauer bilan birga masalani juda to'g'ri va chinakamiga qo'ydik, boshqa hech qanaqa gap bo'lgani yo'q, bunga zarracha shak-shabha bo'lishi mumkin emas, yana shunisi shubhasizki, anavi milliard-milliard odamlar hali masalaning butun mohiyatini tushunib oladigan darajaga yetib borgan emas, deb o'ylabman. Va biror marta o'ylab ko'rmabmanki, «dunyoda yashab o'tgan va yashayotgan milliard-milliard odamlar o'z hayotlarining ma'nosini nimada ko'rganlar va hozir nimada ko'radilar?»

Men shu telbalik quchog'ida ancha uzoq yashadim. Bu telbalik so'zda emas, balki amalda. U bizga, ya'ni eng liberal va o'qimishli odamlarga xos. Ammo menda haqiqiy ishchi xalqiga nisbatan allaqanday g'alati muhabbat bor — shu muhabbat meni ishchilarni anglashga va ular biz o'ylaganchalik ahmoq emasligini ko'rishga majbur qiladi. Bilmadim, shu sabab bo'ldimi yoki o'zimni osmokdan boshqa narsaga kuchim yetmasligiga, men uchun eng yaxshisi shu ekaniga astoydil ishonganim sabab bo'ldimi — bilmadim, harhodda, men agar yashamoqni istasam va hayotning ma'nosini bilmoqchi bo'lsam, men hayot ma'nosini, allaqachon bu ma'noni yo'qotib qo'yib, o'zini-o'zi o'ldirish qasdida yurganlar orasidan emas, balki yashagan va yashashda davom etayotgan, yashaganda ham, o'z yemaklarida, ham o'z hayotlarining, ham bizning hayotimizning yukini ko'tarib borayotgan milliard-milliard o'tgan va hayot odamlardan izlashim kerakligini his qildim. Shunda men yashab o'tgan va yashashda davom etayotgan odamlarning, olim emas, badavlat emas, oddiy odamlarning hayotiga o'girilib qaradim va butunlay boshqa bir manzarani ko'rdim. Shunda ana shu o'tmishda yashab o'tgan va hozir yashayotgan milliard-milliard odamlar — juda oz qismini istisno qilmaganda — mening tasnifimga to'g'ri kelmasligini, men ularni masalani tushunmaydiganlar toifasiga kiradi, deb Hisoblay olmasligimni ko'rdim. Qo'sha olmasligimning boisi shunda ediki, ularning o'zlari masalani qo'yishar va hayron qoladigan darajada ravshanlik bilan unga javob berishardi. Ularni aysh-ishratga mukkasidan ketgan odamlar deb ham e'tirof eta olmasdim, chunki ularning hayotida huzur-halovatdan ko'ra muhtojliklar va azob-uqubatlar ko'proq edi; ularning ma'nosiz hayotini g'ayrishiuriy tarzda bir amallab kechirib turgan odamlar sirasiga ham hech qo'sha olmasdim, chunki ular har qanday hayot hodisasini va o'lim hollarini izohlab berishadi. O'z-o'zini o'ldirishni esa eng katta qabohat deb biladilar. Shunday bo'lib chiqardiki, butun insoniyat hayotning ma'nosini biladi, lekin men bu ma'noni tan olmayman va undan nafrat qilaman. Shunday bo'lib chiqardiki, oqilona bilim hayotning ma'nosini bermaydi, hayotni istisno etadi, milliardlab odamlar tomonidan, butun insoniyat tomonidan hayotga beriladigan ma'no esa allaqanday soxta, la'natlangan bilimga asoslanardi.

Oqilona bilim olimlar va donishmandlar shaxsiyatida hayotning ma'nosini inkor etadi, millionlab odamlar, keng xalq ommasi, butun insoniyat esa nooqilona bilimda bu ma'noni tan oladi. Ana shu nooqilona yoxud g'ayrishiuriy bilim iymon bo'lib chiqyaptiki, men uni nazardan soqit qilolmayman. Bu Xudo, uning o'g'li, Muqaddas Ruh, dunyoning olti kunda yaralgani, shaytonlar va farishtalar va men aqldan ozgunimga qadar sira qabul qilolmaydigan boshqa hamma narsalar.

Mening ahvolim juda ham yomon edi. Men bilardim — men oqilona bilim yo'lida hayotni inkor etishdan boshqa hech narsa topolmayman, iymonda esa aqlni inkor etishdan boshqa hech narsa yo'q. Aqlni inkor etish esa hayotni inkor etishdan ko'ra qiyinroq. Oqilona bilimga ko'ra shunday xulosa chiqardiki, hayot yovuz narsa, odamlar buni biladi, yashash-yashamaslik odamlarga bog'liq, ular esa

yashashda davom etishadi, men ham garchi hayotning ma'nosi yo'qligini va u yovuz tsarsaligini ko'pdan beri bilsam-da, yashashda davom etyapman. Iymonga ko'ra shunday xulosa chiqar ediki, agar men hayotning ma'nosini anglamoqchi bo'lsam, o'zi ma'noga muhtoj bo'lgan aqddan bosh tortmog'im darkor edi.

IX

G'alati ziddiyat. Undan qutulishning faqat ikki yo'li bor: yo men aqlga muvofiq deb bilgan, oqilona narsa deb hisoblaganim men o'ylagancha oqilona emas yoxud menga noaqliy bo'lib tuyulgan, g'ayrihuuriy deb hisoblangan narsa, menga tuyulgan darajada noaqliy emas. Shundan keyin men oqilona bilimim mulohazalarining mantig'ini tekshira boshladim.

Oqilona bilimim mulohazalarining mantig'ini tekshirar ekanman, ular menga mutlaqo to'g'ri bo'lib ko'rindi. Hayot hech narsa ekani to'g'risidagi xulosa muqarrar edi, biroq men shu o'rinda bir xatoni ko'rdim. Xato shunda ediki, mening fikrlashim o'zim qo'ygan masalaga muvofiq emas edi. Masala bunday edi: men yashab nima qilaman? Ya'ni mening o'tkinchi, bebaqo, mahv etilajak hayotimda qanday chin narsa chiqadi? Bu cheksiz dunyoda mening cheklangan hayotimdan qanday ma'no chiqadi? Bu savollarga javob berish maqsadida men hayotni o'rgandim.

Qo'yilishi mumkin bo'lgan hayot masalalarining barini hal qilsam-da, bu meni qanoatlantirmasligi mumkin edi, chunki mening savolim boshda qanchalik jo'n ko'rinmasin, cheklangan narsani cheksiz narsa bilan va, aksincha, izohlab berish talabini o'z ichiga olar edi.

Mening savolim bunday edi: mening hayotimning g'ayrizamoni, g'ayrisababiy va g'ayrifazoviy qimmati qanday? Bu savolga esa men bunday javob berardim: mening hayotimning zamoni, sababiy va fazoviy qimmati qanaqa? Shunday bo'lib chiqdiki, xo'p aqlimni ishlatib uzoq vaqt qiynalganimdan keyin men «hech qanaqa» deb javob berdim.

Men mulohazalarimda doimiy tarzda cheklangan narsasini cheklanganga, cheksiz narsani cheksiz narsaga tenglashtirib qo'yardim. Boshqacha qilishga ilojim ham yo'q edi. Shu sababdan mening mulohazalarimdan chiqishi kerak bo'lgan xulosalar chikdi, xolos. Ya'ni kuch kuchdir, jism jismdir, iroda irodadir, hechlik hechlikdir. Bundan ortiq biron narsa chiqishi mumkin emas edi.

Matematikada bo'ladiganga o'xshash bir voqea ro'y bergan edi — unda tenglamani hal qilyapman, deb o'ylaysanu, ayniyatni hal qilgan bo'lib chiqasan. Mulohazalaring mantiqan to'g'ri, lekin javob $A = A$, $X = X$ yoki $0 = 0$ bo'lib chiqadi. Hayotimning qimmati masalasiga taalluqli mulohazalarimning natijasi ham shunday bo'lib chiqdi. Hamma ilmlarning bu savolga beradigan javobi ayniyatdan iboratdir.

Haqiqatan ham, qat'iy oqilona ilm shunday ilmki, u hayot savoliga men topgan javobdan, ya'ni mujmal javobdan boshqa javob bera olmaydi. Chunki bunday ilm xuddi Dekart qilgani kabi ishni hamma narsaga shak keltirishdan boshlaydi, shunchaki to'g'ri deb qabul qilingan har qanday taxminiy bilimlarni uloqtirib tashlaydi va hamma narsani boshidan aql va tajriba qonunlari asosida qaytadan ko'rib chiqadi. Avval-boshda menga shunday tuyuldiki, ilm musbat javob berdi. Bu Shopengauer chiqargan xulosa edi, ya'ni hayot ma'nosiz narsa, u yovuz narsa. Lekin masalani tahlil qilib ko'rdimki, yasavob musbat emas ekan. U menga shunday bo'lib tuyulgan ekan, xolos. Aslini olganda esa bu yasavob braxmanlarda, Sulaymon payg'ambarda, Shopengauerda ifodalangandek qat'iy tarzda ifodalanadigan bo'lsa, faqat mujmal javobdir. $0 = 0$ degan ayniyatdir: menga hech narsa bo'lib ko'ringan hayot hech narsadir. Shunday qilib ko'rinadiki, falsafiy bilim hech narsani inkor qilmaydi, u faqat bu masalani falsafa hal qila bilmaydi, mabodo hal qilmoqchi bo'lsa, javobi mujmal bo'ladi, deb javob beradi.

Buni tushungach, yana shuni tushundimki, oqilona ilmlardan mening savolimga javob izlab bo'lmas edi, oqilona ilmlar tomonidan beriladigan javob masala boshqacha qo'yilgan tarzdagina, faqat mulohazalar doirasiga cheksiz narsaga cheklangan narsaning munosabati haqidagi masala jalb qilingan

taqdirdagina javob olish mumkinligiga ishora bo'lardi, xolos. Men yana angladimki, din tomonidan beriladigan javoblar har qancha aqlga nomuvofiq va xunuk bo'lmasin, ular bir afzallikka ega: ularda har bir javobga cheklangan narsaning cheksiz narsaga munosabati kiritilgan. Axir, busiz javobning bo'lishi mumkin emas-da! Men «qanday yashamog'im Kerak?» degan savolni qo'yishim bilan «Xudoning qonunlariga amal qilib» degan javobni olaman. «Mening hayotimdan qanaqa bir chinakam narsa kelib chiqadi?» degan so'roqqa «Mangu azob-uqubat yoki mangu rohat-farog'at» degan javob olaman. «Hayotimda o'lim mahv etolmaydigan qanday ma'no bor?» «Haqning jamoliga erishish, cheksiz Xudoga qo'shilish, jannat».

Shunday qilib, avvallari oqilona bilimlar menga yagona narsa sifatida tuyulardi, endi esa muqarrar tarzda shuni e'tirof etishga majbur bo'ldimki, hozir hayot kechirayotgan jamiki insoniyatda yana boshqa allaqanday bilim bor — bu nooqilona bilim — iymon. Shu iymon yashashga imkon beradi. Men hozir ham xuddi avvalgiday iymonning butun nooqilona xislatini ko'rib turardim, lekin men faqat iymongina insoniyatga hayot masalalariga javob berishini va shuning oqibatida yashashga imkon berishini tan olmasligim mumkin emasdi.

Oqilona bilim meni hayotning ma'nosizligini tan olishga olib keldi, mening hayotim to'xtab qoldi va men o'zimga suiqasd qilish yo'liga tushib qoldim. Tevarak-atrofimdagi odamlarga, butun insoniyatga o'girilib qarab turdimki, odamlar yashayapti va hayotning ma'nosini bilamiz deyishyapti. O'zimga o'girilib qaradim: men hayot ma'nosini bilganim darajada yashagan ekanman. Boshqa odamlarga o'xshab menga ham hayotning ma'nosini va yashash imkonini iymon bergan ekan.

Undan nariga o'girilib, boshqa mamlakatlarning menga zamondosh va o'tib ketgan odamlariga qarab ham yana o'sha ahvolning o'zini ko'rdim. Qaerdaki hayot bo'lsa, o'sha joyda insoniyat paydo bo'lgandan beri unga yashash imkonini beradigan iymon bor. Va iymonning asosiy belgilari hamma joyda va hamisha bir xil.

Har qanday iymon kimga bo'lmasin va qanday bo'lmasin javob bergan bo'lsa, iymonning har qanday javobi insonning cheklangan hayotiga cheklanmagan narsaning ma'nosini baxsh etadi va bu ma'noni azob-uqubatlari, muhtojliklari, o'lim mahv etolmaydi. Binobarin, faqat iymondagina hayotning ma'nosini va yashash imkonini topish mumkin. Shunda angladimki, so'zning eng muhim ma'nosida olib qarasa, iymon «ko'z ilg'amas buyumlarni» va hokazolarni fosh qilishgina emas, karomatgina emas (bu iymonning sifatlaridan birining tasviri, xolos), insonning Xudoga munosabatigina emas (Xudo orqali iymonni belgilash kerak emas, avval iymonni belgilab olib, so'ngra Xudoni belgilash lozim), ko'pincha iymonni mana bunday tushun, deb odamga aytilgan gaplarga qo'shilishgina emas, balki iymon inson hayotining ma'nosini bilishdir va shu bilimi vajidan inson o'z-o'zini mahv etmaydi, balki yashaydi. Iymon hayotning qudratidir. Inson yashar ekan, u biror narsaga ishonadi, iymon keltiradi. Agar u «nima uchundir yashamoq kerak» deb biron narsaga ishonmasa, iymon keltirmasa, unda u yashamas edi. Agar u cheklangan narsani ko'rmasa va uning xayoliy bir narsa ekanini anglamasa, u ana shu cheklangan narsaga ishonardi; agar u cheklangan narsaning xayoliy ekanini anglasa, unda u cheksiz narsaga ishonmog'i kerak. Iymonsiz yashab bo'lmaydi.

Shunda men ichimdan kechganlarning hammasini eslab, dahshatga tushdim. Endi menga bir narsa ayon edi — inson yashay olmog'i uchun u yo cheksiz narsani ko'rmog'i kerak yoki hayot ma'nosini shunday tushunmog'i kerakki, buning natijasida cheklangan narsa cheksiz narsaga teng deb hisoblanmog'i shart. Menda shunday tushuncha bor edi, biroq men cheklangan narsaga ishonar ekanman, uning menga keragi yo'q edi. Shunda men uni akd tarozisida tekshira boshladim. Aql tarozisiga solib ko'rishim bilan avvalgi izohlarimning hammasi tirqirab ketdi. Ammo fursati yetib, men cheklangan narsaga ishonmay qo'ydim. Shunda men oqilona asoslarga tayanib, bilganlarimdan shunday izoh tuza boshladimki, bu izoh hayotning ma'nosini uqtirmog'i kerak edi. Ammo hech narsani tuzib bo'lmadi. Insoniyatning eng yetuk mutafakkirlari bilan birga men $0 = 0$ degan xulosaga keldim va bunaqa xulosaga kelganimni ko'rib rosa hayron bo'ldim. Holbuki, o'shanda boshqa hech qanaqa xulosaga kelib bo'lmas edi.

Tajribaga asoslangan bilimlardan javob izlaganimda men nima qilgan edim? Men nima uchun yashayotganimni bilmoqchi bo'lgan edim va buning uchun o'zimdagi tashqaridagi hamma narsani o'rganishga tutingandim. Ravshanki, men juda ko'p narsa bilmog'im mumkin edi, ammo o'zimga kerak hech narsani bilolmas edim.

Falsafiy bilimlardan javob izlaganimda nima qilgan edim? Mening ahvolimga tushib qolgan, menga o'xshab «nima uchun yashayapman?» degan savolga javob topolmagan odamlarning fikrlarini o'rgandim. Ravshanki, men o'zim bilgan narsadan, ya'ni «hech narsani bilib bo'lmaydi» degan xulosadan boshqa hech narsani bila olmas edim.

Men nimaman o'zi? Cheksiz narsaning bir qismiman. Masalaning butun mohiyati ana shu yKki so'zda ifodalangan. Nahotki faqat kechagi kundan boshlabgina insoniyat bu masalani o'z oldiga ko'ndalang qo'ygan bo'lsa? Nahotki, menga qadar hech kim ana shu jo'n savolni, har bir aqlli bolakayni tilining uchida turadigan shu savolni o'ziga o'zi bermagan bo'lsa?

Axir bu masala odamzod bino bo'lgan zamonlardayoq qo'yilgan, odamlar bino bo'lgan zamonlardanoq anglashilganki, bu masalani hal qilmoq uchun cheklangan narsani cheklangan narsaga va cheksiz narsani cheksizga tenglashtirmoq birday kifoya emas va odamlar bino bo'lgan zamonlardayoq cheklangan narsa bilan cheksiz narsaning munosabatlari topilgan va ifodalangan.

Cheklangan narsa cheksiz narsaga tenglashtirilgan va buning oqibatida hayotning ma'nosi kelib chiqadigan tushunchalarni, Xudo, erkinlik, yaxshilik tushunchalarini biz mantiqan tadqiq qilamiz. Unda bu tushunchalar aql tanqidiga dosh berolmaydi. Bilasizmi, bu nimaga o'xshaydi? Biz bola kabi haddan tashqari o'zimizga-o'zimiz mag'rur bo'lib, o'zimizdan-o'zimiz mamnun bo'lib, soatni olamizda, butun ichak-chavog'ini ag'darib ko'ramiz, qo'g'irchoqdek uni xo'b o'ynaymiz, keyin esa soat yurmay qolganidan rosa hayratga tushamiz. Bu ahvol juda dahshatli bo'lmaganida haddan ziyod kulgili bo'lardi.

Cheklangan narsa bilan cheksiz narsa o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish va hayot savoliga yashashga imkon beradigan javobni topish kerak. Bu yechim bor. Bu yechim hamma vaqt, hamma joyda va hamma xalqlarda bo'lgan. Bu yechim zamonlar qa'ridan kelib chiqadi, u shu qadar qiyin yechim-ki, biz o'zimiz sira ham bunday yechimga kela olmaymiz. Ana shu yechimni o'zimiz kunpayakun qilamiz, bundan maqsad o'sha hammaga xos va biz uchun javobsiz savolni yana qo'yishdir.

Cheksiz Xudo tushunchasi, ruhning ilohiyligi, odamzod qilmishlarining Xudoga bog'liqligi, yaxshilik va yomonlik, ma'naviyat tushunchalari insoniyat hayotining ko'zlarimizdan yashirin olisliklari qa'rida ishlab chiqilgan tushunchalardir. Bu tushunchalarsiz hayotning bo'lishi ham, mening o'zimning bo'lishim ham mumkin emas. Men bo'lsam, butun insoniyat bajargan bu ishni itqitib tashlab, hammasini boshqatdan o'z bilganimcha qilmoqchi bo'lib yuribman.

U paytlarda men hali bunaqa deb o'ylamas edim, ammo bu fikrlar miyamda uch bera boshlagan edi. Men, birinchidan, shuni tushunardim-ki, har qancha donoligimizga qaramay, biz Shopengauer va Sulaymon payg'ambar uchovimiz g'oyatda bema'ni ahvolga tushib qolganmiz: biz hayotning yovuz narsa ekanini bilamiz, bilamiz-u, yashashda davom etaveramiz. Bu uchchiga chiqqan bema'nilik emasmi? Men jamiki oqilona narsani haddan ziyod yaxshi ko'raman, shundoq bo'lgach, hayot bema'ni bo'lsa, hayotni mahv etish kerak. O'shanda uni inkor etadigan odam qolmaydi. Ikkinchidan, men shuni tushunardimki, bizning hamma mulohazalarimiz behuda aylanayotgan g'ildirakday boshi berk ko'cha ichida aylanib qolgan. Biz har qancha yaxshi mulohaza yuritmaylik, masalaga javob ola olmaymiz, oladigan javobimiz hamisha $O = O$ bo'ladi, sababki, biz tanlagan yo'l, aftidan, xato bo'lsa kerak. Uchinchidan, shuni tushuna boshladimki, iymon tomonidan beriladigan yasavoblarda insoniyatning juda teran donoligi mavjud, aql asosida ularni inkor etishga men haqli emasman. Eng muhimi esa faqat shu javoblardagina hayot savollariga javob mavjud.

Men buni tushunardim, lekin bundan hech qancha yengillik ko'rmadim.

Men endi har qanday iymonni qabul qilishga tayyor edim, faqat bu iymon mendan aqlni bevosita inkor etishni talab qilmasa bo'ldi. Negaki, bunday qilinsa, yolg'on bo'lardi. Shu tarzda men

kitoblardan buddizmni ham, islomni ham o'rgandim, hammadan ko'ra ko'proq ham kitoblardan, ham atrofimni qurshab olgan odamlarning hayotidan xristianlikni o'rgandim.

Tabiiyki, men hammadan avval o'z davramga mansub xudojo'y odamlarga, olim odamlarga, pravoslav dinshunoslarga, qari monaxlarga, yangi yo'nalishdagi pravoslav dinshunoslarga va hatto tavba-tazarru bilan gunohlardan poklanishni targ'ib qiluvchi yangi xristian deb atalmish toifadagi xudojo'ylarga murojaat qildim. Men ularning etaklaridan mahkam ushlab olib, ulardan iymonlari qanaqa ekanini, hayotning ma'nosini nimada ko'rishlarini surishtirdim.

Turli-tuman masalalarda ularga imkoni boricha yon berganimga, har xil bahsu munozaralardan o'zimni tiyganimga qaramasdan men bu odamlarning iymonlarini qabul qilolmas edim, chunki ko'rib turardimki, ular iymon deb atayotgan narsa hayotning ma'nosini oydinlashtiradigats emas, aksincha xiralashtiradigan narsa edi. Ularning o'zlari ham iymonlarini qattiq tutgan bo'lsalar, buni meni iymonga olib kelgan o'sha hayot savoliga javob berish uchun emas, balki allaqanday boshqa, menga begona maqsadlar yo'lida qilishgan edi.

Bu odamlar bilan muloqotga kirishganda necha martalab mening qalbimda umid cho'g'lari yaltilladi. Shu umid cho'g'laridan keyin yana avvalgi tushkunlik, ilojsizlik holatiga qaytish men uchun juda ham iztirobli bo'ldi. Ular menga o'z diniy e'tiqodlarini qancha ko'proq va batafsilroq bayon qilib bersalar, men ularning xatolarini nguncha ravshanroq ko'rar va ularning iymonlarida hayot ma'nosining izohini topaman, degan umidlarim chippakka chiqayotganini his qilardim.

Mening hafsalamni pir qilgan narsa bu odamlarning o'z diniy e'tiqodlarini bayon qilib berishayotganida men uchun hamisha yaqin bo'lgan xristian haqiqatlariga juda keraksiz va noqliq narsalarni qo'shib yuborganlari bo'lmadi; yo'q, hafsalamni pir qilgan narsa bu emas; meni bezdirgan narsa shu bo'ldiki, bu odamlarning hayoti ham xuddi menikiga o'xshash edi. Faqat farqi shundaki, ularning hayoti o'zlari diniy e'tiqodlarini bayon qilib aytgan qoidalariga mos kelmasdi. Men aniq his qildimki, ular o'zlarini o'zlari aldayapti va ular ham o'sha men bilgan hayot ma'nosidan boshqa ma'noni bilishmaydi, ya'ni umring o'tayotgan ekan, yashayver, hayot ne'matlaridan imkonning yetganicha istifoda qilaber. Men buni shunga qarab angladimki, agarda ular azob-uqubatlar, muhtojliklar va o'limdan qo'rqishni mahv etadigan ma'noni bilganlarida, bulardan qo'rqmagan bo'lardilar. Holbuki ular, ya'ni mening davramga mansub bo'lgan bu xudojo'ylar xuddi menga o'xshab to'q va farovon turmush kechirishar, ngu farovonlikni ko'paytirish va saqlab qolish g'amini yeyishar, muhtojliqdan, iztiroblardan, o'limdan qo'rqishar hamda dinga ishonmaydigan bizlarga o'xshab eng yaramas nafslarining gapiga kirib hayot kechirishardi, biz — dinga ishonmaydiganlardan ko'ra ular ko'proq gunoh botqog'iga botib ketishgan edi.

Hech qanaqa mulohazalar meni ularning iymoni chin ekaniga ishontirolmasdi. Meni ishontirishi mumkin bo'lgan birgina narsa bor edi — ularning xatti-harakatlari shundan dalolat bersaki, hayotning ma'nosini bilishadi; bu bilish esa ularga men uchun qo'rqinchli bo'lgan qashshoqlik, iztirob va o'limdan tap tortmaslikka imkon beradi. Bizning davramizga mansub bo'lgan bu turfa xil xudojo'ylar orasida esa men bunday xatti-harakatni ko'rmadim. Aksincha, bunday xatti-harakatlarni men bizning davramizga mansub bo'lgan dinga ishonmaydigan odamlar orasida ko'rdim, lekin bizning davramizga mansub xudojo'ylar orasida esa zinhor-bazinhor ko'rmadim.

Shunda men tushundim — bu odamlarning iymoni men izlagan iymon emas, ularning iymoni, Umuman, iymon emas, balki hayotdagi ishratbozlik taskinlaridan biri, xolos. Men yana angladimki, bu iymon, balki taskinlikka yaramasd ham, o'lim to'shagida yotib, jamiki gunohlarts uchun tavba-tazarru qilayotgan Sulaymon payg'ambarni jinday xotirjam qilishga yarar, lekin u ko'pchilik odamlar uchun sira yaramaydi, chunki bu odamlarning zimmasida boshqalarning mehnatlaridan foydalanib, vaqtichog'lik qilish emas, hayotni barpo etish vazifasi yotadi. Butun insoniyat yashamog'i mumkin bo'lsin uchun, hayotga ma'no baxsh etib, yashashni davom ettirish maqsadida yashamog'i uchun, ular — ana shu milliardlar boshqa, chinakam iymonni bilmoqlari kerak bo'ladi. Axir, iymonning mavjudligiga meni ishontirgan narsa — Sulaymon payg'ambar bilan Shopengauer uchovimizning

o'zimizni o'zimiz o'ldirmaganimiz bo'lgani yo'q, balki milliarddab odamlarning hayot kechirib kelgani va hamon yashayotgani, men bilan Sulaymon payg'ambarlarni o'z hayot to'liqlarida ko'tarib kelganlari bo'ldi.

Shunda men qashshoq, oddiy o'qimagan xudojo'ylar bilan, turli-tuman darveshlar, monaxlar, mujiklar bilan topisha boshladim. Xalqdan chiqqan bu odamlar ham xuddi bizning davraga mansub qalbaki xudojo'ylar kabi xristian diniy e'tiqodiga ega edilar. Ularning xristian haqiqatlariga ham juda ko'p xurofot aralashgan edi, biroq farqi shunda ediki, bizning davramizga mansub xudojo'ylarning xurofotlari ularning o'ziga mutlaqo kerak emas edi, ularning turmushiga sira mos tushmasdi, faqat o'ziga xos bir ishratbozlik ermagi edi, xolos; mehnatkash xalqdan chiqqan xudojo'ylarning xurofotlari esa ularning turmushi bilan shu qadar yaqindan bog'langanki, bu xurofotlarsiz ularning hayotini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bu xurofotlar ular yashashining zaruriy sharti edi. bizning davraga mansub xudojo'ylarning butun hayoti ularning iymoniga butunlay zid edi, mehnatkash xalqqa mansub xudojo'ylarning butun hayoti ularning iymoni bergan hayot ma'nosini to'la tasdiqlar edi. Shunda men bu odamlarning hayoti va e'tiqodlariga sinchiklab qaray boshladim va qaraganim sari chuqurroq amin bo'la bordimki, bu odamlarning iymoni chin iymon, bu iymon ular uchun juda zarur va yolg'iz shu iymongina ularga hayotning ma'nosini va yashash imkonini beradi. Bizning davramizda iymonsiz ham yashayveradiganlar ko'p, ularning orasida zo'r-bazo'r mingtadan bittasi o'zini xudojo'y deb tan olishi mumkin. Bunga qarama-qarshi o'laroq, ularning muhitida mingtadan bitta Xudoga ishonmaydigan odam topilishi amrimahol. Bizning davramiz odamlarining hayoti bekorchilik ichida ermaklar bilan o'tadi va yana hamma hayotdan norozi bo'ladi. Bu odamlarning butun hayoti esa og'ir mehnat ichida kechadi va ular badavlat odamlarga qaraganda hayotdan kamroq norozi bo'lishadi. Bizning davramizga mansub odamlar muhtojliklar va azob-uqubatlarni uchun taqdiridan ko'proq noliydilar va unga qarshilik ko'rsatadilar. Bunga qarama-qarshi o'laroq, oddiy odamlar xastaliklar va g'am-g'ussalarni hech qanday noroziliksiz, qarshilik ko'rsatmasdan, xotirjam qabul qiladilar. Ular qat'iy ishonadilarki, bularning hammasi xuddi shundoq bo'lmog'i kerak, boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, bularning bari — Xudoning ne'mati. Biz qancha. aqlli bo'lsak, hayotning ma'nosini shuncha kam tushunamiz, iztiroblar chekishimiz va qazomiznts allanechuk yovuz bir masxara deb hisoblaymiz. Bunga qarama-qarshi o'laroq oddiy odamlar osoyishta bir tarzda hayot kechiradilar, iztiroblar chekadilar va o'z qazolari sari boradilar, Ular iztirob chekkanda ham qandaydir xotirjam bo'ladilar, hatto, mamnuniyatlari sezilib turadi. Bizning davramizda xotirjam jon taslim qilish, nola-fig'onsiz, tushkunlikka berilmay vafot etish kamdan-kam uchraydigan voqea. Bunga qarama-qarshi o'laroq, xalq orasida nola-fig'on bilan isyon ko'tarib, g'am-g'ussaga botib jon taslim qilish haddan tashqari kam uchraydi. Bu odamlar biz Sulaymon payg'ambar bilan o'zimiz uchun hayotning yakkayu yagona hisoblanadigan juda ko'p narsalaridan mahrum, lekin shunga qaramay ular o'zlarini benihoya baxtiyor deb biladilar. Bunday odamlar haddan tashqari ko'p. Men tevarak-atrofimga kengroq nazar tashladim. Mendan avval o'tgan va men bilan bir zamonda yashayotgan son-sanoqsiz odamlarning hayotiga chuqurroq nazar tashladim. Va shunda hayotning ma'nosini anglagan, yashashni va jon taslim qilishni biladigan ikkita, uchta, o'nta emas, yuzta, mingta, millionta odamni ko'rdim. Fe'li atvori, aqli, ma'lumoti, mavqeiga ko'ra haddan tashqari xilma-xil bo'lgan bu odamlarning hammasi menga qarama-qarshi o'laroq hayotning ma'nosini bab-baravar darajada mukammal bilishardi, muhtojliklar va azob-uqubatlarni boshlaridan kechirib, xotirjam mehnat qilishardi, umrguzaronlik qilib vafot etishardi va bunda ma'nosiz, behuda narsani emas, ulug' bir ne'matni ko'rishardi.

Shunday qilib, men bu odamlarni yaxshi ko'rib qoddim. Men tirik odamlarning hayotiga qancha duqur kirib borsam, men kitoblarda o'qigan va eshitgan shunga o'xshash odamlarning o'tib ketgan hayotlariga qancha chuqur kirib borsam, ularni shuncha ko'proq yaxshi ko'rdim va o'zim uchun ham yashash shuncha yengil bo'lib qoldi. Shu ahvolda ikki yilcha hayot kechirdim va menda inqilob sodir bo'ldi. Bu inqilob menda anchadan beri pishib yetilib kelardi, uning uchqunlari hamisha men bilan birga edi. Menda shunday inqilob sodir bo'ldiki, oqibatda bizning davramizning hayotini, badavlat,

olim odamlarning hayotini jinimdan battar yomon ko‘rib qoldimgina emas, bu hayot men uchun butkul ma‘nosini yo‘qotdi. Bizning hamma xatti-harakatlarimiz, fikr yuritishlarimiz, ilm, san‘at — bularning bari menga bir ermakday, tantiqlikday ko‘rinib qoldi. Angladimki, bundan ma‘no izlab bo‘lmaydi. Hayotni ijod qiluvchi mehnatkash xalqning xatti-harakati esa menga birdan-bir arziydigan haqiqiy ish bo‘lib ko‘rindi. Shunda angladimki, shu hayotga ato qilingan ma‘no haqiqatdir. Va men bu haqiqatni qabul qildim.

XI

G‘alati bir manzara: odamlar diniy e‘tiqodlarga sig‘inib, ularga zid tarzda hayot kechirganlarini ko‘rganimda shu e‘tiqodlardan bezib ketgandim. Ammo odamlar xuddi shu e‘tiqodlarning O‘ziga amal qilib yashaganlarini ko‘rganimda ular menga g‘oyatda jozibador va oqilona ko‘rindi. Shunda men nega bir vaqtlar bu e‘tiqodlardan bezganimni, nega ularni ma‘nosiz deb hisoblaganimni, endilikda esa nima sababdan ularni qabul qilganimni va juda ma‘nodor, deb hisoblayotganimni tushundim. Men adashganimni va qanday qilib adashganimni angladim. Men noto‘g‘ri fikr yuritganim uchun adashgan emas ekanman, balki gunohkorona hayot kechirganim uchun adashgan ekanman. Men angladim — haqiqat yuzini mendan yashirgan narsa fikrlarimdagi xatolik bo‘lmagan ekan, balki favqulodda ishratbozlik sharoitida, maishatparastlik sharoitida, baloi nafsni qondirish yo‘lida o‘tkazgan hayotim bo‘lgan ekan. Yana angladim — «mening hayotim nima?» — degan savolim va «yovuzlik» deb bergan javobim mutlaqo to‘g‘ri bo‘lgan ekan. Xatolik shunda bo‘lgan ekanki, faqat mengagina taalluqli javobni butun hayotga nisbatan qo‘llabman. «Mening hayotim nima?» — deb o‘z-o‘zimdanda so‘rab, «yovuzlik va ma‘nosizlik», -deb javob olganman. Chindan ham mening hayotim baloi nafsni qondirishga qaratilgan bo‘lgan va shuning uchun ma‘nosiz hamda yomon bo‘lgan, shuning uchun ham «hayot ma‘nosiz va yovuz narsa» degan javob, umuman, odamlar hayotiga emas, yolg‘iz mening hayotimga taallukdidir. Men keyinchalik Injilda topganim haqiqatni angladim — unga ko‘ra odamlar yorug‘likdan ko‘ra ko‘proq zulmatni yaxshi ko‘rganlar, negaki ular yovuz ishlarni ko‘p qilishgan. Sababki, yomon ish qiladigan har bir odam yorug‘likni juda yomon ko‘radi va ishlari fosh bo‘lishidan qo‘rqib, yorug‘lik sari bormaydi.

Men angladimki, hayotning ma‘nosini tushunmoq uchun hammadan avval hayotning o‘zi ma‘nosiz va yovuz bo‘lmasligi kerak, shundan keyingina akd bilan uni tushunib olsa bo‘ladi. Men o‘z-o‘zidan ko‘rinib turgan ana shu haqiqat tegrasida nima uchun bu qadar uzoq o‘ralashib qolganimning sababini tushundim — insoniyatning hayoti to‘g‘risida gapirib, o‘ylaydigan bo‘lsang, hayotdagi bir nechta tekinxo‘rlarning emas, insoniyatning hayoti to‘g‘risida o‘ylash va gapirish kerak. Bu haqiqat $2 \times 2 = 4$ ga o‘xshash hamisha haqiqat bo‘lib kelgan, lekin men uni tan olgan emasman, chunki $2 \times 2 = 4$ ekanini tan olsam, men o‘zimning yaramas odam ekanimni tan olmog‘im kerak edi. Holbuki, $2 \times 2 = 4$ ligidan ko‘ra o‘zimni yaxshi odam, deb his etish men uchun muhimroq va zarurroq edi. Men yaxshi odamlarni sevib qoldim, o‘zimdanda-o‘zim nafratlanib ketdim. Endi menga hamma narsa ravshan bo‘ldi.

Mabodo butun umrini qiynoqlarda odamlarning boshini olish bilan o‘tkazgan bir jallod yoki butun umrini bir qorong‘i xonada o‘tkazgan, bu xonasini najosatga to‘latib, iflos qilib tashlagan va «shu xonadan chiqsam muqarrar halok bo‘laman» degan fikrni singdirib olgan biror uchchiga chiqqan piyonista yoxud jinni o‘z-o‘ziga «Hayot nima?» deb savol bersa nima bo‘lardi? O‘z-o‘zidan ayonki, «Hayot nima?» degan savolga ular «Hayot eng katta yovuzlikdir» degan javobdan boshqa javob ola bilmas edilar. Bunda jinnining javobi mutlaqo to‘g‘ri bo‘lardi, biroq faqat uning o‘zi uchun to‘g‘ri bo‘lardi. Unda qandoq bo‘ladi — men ham o‘shanga o‘xshagan bir telbamanmi? Nahotki, bizning hammamiz — badavlat, o‘qimishli odamlar shunga o‘xshash telba bo‘lsak?

Shunda angladim — ha, biz chindan ham ana shunaqa telbalmiz. Harholda, men muqarrar tarzda ana shunaqa telbaman. Darhaqiqat, qugd shunday hayot kechiradiki, u uchmog‘i, ovqat jamg‘armog‘i, in qurmog‘i kerak. Qush shunday qilayotganini ko‘rsam qushdan xursand bo‘laman. Echki, quyon,

bo'ri shunday hayot kechirishadiki, ular qorinlarini to'yg'azishi, urchishlari, oilalarini boqishlari kerak. Ularning shunday qilayotganlarini ko'rsam, men qat'iyon ishonamanki, ular baxtiyor va ularning hayoti oqilona. Xo'sh, inson nima qilmog'i kerak? U ham xuddi jonivorlar qilgan ishlarni qilib hayot kechirmog'i kerak, faqat farq shundaki, bu ishlarni inson yolg'iz o'zi qilsa, u muqarrar tarzda halok bo'ladi, u faqat o'zi uchun emas, hamma uchun qilmog'i zarur. U hamma uchun bu ishlarni qilayotganini ko'rsam, men qat'iyon ishonamanki, u baxtiyor va uning hayoti oqilona. Xo'sh, men o'zimning o'ttiz yillik ongli hayotimda nima qildim? Men nafaqat hamma uchun hayotni barpo etganim yo'q, men loqal o'zim uchun ham tirikchilik arkonlarini yaratganim yo'q. Men bir tekinxo'r tarzida hayot kechirdim va o'z-o'zimdanda «nimaga yashayapman?» deb so'radim-da, «hech narsaga» deb javob oldim. Agar inson hayotining ma'nosi tirikchilik arkonlarini barpo etishda bo'lsa, men o'ttiz yil mobaynida bu arkonlarni barpo etish o'rniga o'zimdanda ham, boshqalarda ham ularni yo'q qilish bilan shug'ullangan bo'lsam, qanday qilib «hayotim bema'ni va yovuz narsa» degandan boshqa javob olishim mumkin? U haqiqatan ham bema'ni va yovuz bo'lganda...

Dunyoning hayoti kimningdir irodasi bilan sodir bo'ladi — mana shu dunyoning hayoti va bizning hayotimiz orqali kimdir o'zining allaqanday ishini ro'yobga chiqaradi. Bu irodaning ma'nosini anglashga umidvor bo'lmoq uchun dastavval Uni bajarmoq kerak, ya'ni bizdan istayotgan ishlarini qilmog'imiz kerak. Agar men mendan istayotgan ishlarini qilmasam, mendan nima istashlarini ham hech qachon bilolmayman, bizning hammamizdan va butun dunyodan nima istashlarini esa inchnun bilolmayman.

Chorrahadagi och, yalang'och bir tilanchini bir imorat ichidagi ajoyib bir muassasaga olib kelishsa, qornini to'ydirib, ichirib, allaqanday bir dastani goh yuqoriga ko'tarishga, goh pastga tushirishga majbur etishsa, o'z-o'zidan ayonki, tilanchini nega olib kelishganini, dastani nega ko'tarib tushirish kerakligini, butun muassasaning qurilishi aqlga muvofiqmi-yo'qmi ekanini tahlil qilishdan avval tilanchi dastani harakatga keltirmog'i zarur. Agar u dastani harakatga keltirsa, bu dasta nasosni harakatga keltirayotganini, nasos suv haydayotganini, suv esa jo'yaklarga taralayotganini fahmlab oladi. Shundan keyin uni usti yopiq quduqdan olib chiqib, boshqa ishga o'tkazadilar — u mevalarni tera boshlaydi va xo'jayinni mamnun qiladi. Jo'n ishlardan yuqoriroq ishlarga o'tar ekan, u bu masalaning tuzilishini borgan sari chuqurroq anglay boradi va uning ishida ishtirok etar ekan, u hech qachon uzining bu yerda nima qilib yurganini so'ramaydi. Harholda, zinhor-bazinhor xo'jayinga ta'na qilmaydi. Xuddi shunga o'xshab, xo'jayinining irodasini bajo keltiruvchi o'qimagan, oddiy mehnatkash odamlar ham xo'jayinlariga ta'na qilmaydilar. Holbuki, biz ularni hayvon o'rnidd ko'ramiz-da, o'zimizni dono hisoblaymiz, xo'jayinning tuzini yeymiz-u, xo'jayin bizdan istagan ishni bajo keltirishni xohlamaymiz, uning o'rniga davra olib o'tirib olamiz-da, «Dastani ko'tarib tushirishning nima keragi bor? Juda bema'ni ish-ku bu!» deb safsata sotamiz. Shu tarzda bo'ladiganimiz bo'lib qolgan. Bo'ladiganimiz bo'lgani shuki, xo'jayinni tentak hisoblaymiz, bo'lmagani ham tuzuk edi deb bilamiz, o'zimizni dono deb bilamiz, lekin hech narsaga yaramasligimizni his qilamiz va bir amallab o'zimizni o'zimizdan xalos etish payida yuramiz.

XII

Oqilona bilimlar xatoligini anglash behuda mulohazabozlik vasvasasidan xalos bo'lishimga yordam berdi. Haqiqat haqidagi bilimni faqat hayot orqaligina topish mumkinligiga qat'iy ishonch meni o'z hayotimning to'g'riligiga shubha qilishga undadi. Biroq men o'zimning favqulodda odamligim haqidagi tasavvur changalidan qutulib qolishga ulgurdim va oddiy mehnatkash xalqning chinakam hayotini ko'rib, haqiqiy hayot faqat ana shu hayot ekaniga iymon keltirdim. Shu narsa meni qutqarib qoldi. Angladimki, agar men hayotni va uning ma'nosini anglamoqchi bo'lsam, mey tekinxo'rga xos hayot kechirmog'im kerak emas, balki chinakam hayot qo'ynida yashamog'im zarur, haqiqiy insoniyat bu hayotga qanday ma'no berayotgan bo'lsa, shu ma'noni qabul qilib, shu hayotga

singib ketmog'im va uni tekshirib ko'rmog'im shart.

Xuddi shu vaqtlarda men yana bir narsani kechirdim. Butun bir yil mobaynida men deyarlik har daqiqada o'z-o'zimdanda «bo'ynimga sirtmoq solsammi yoki bir o'q bilan bir yoqli qilsammikan?» deb so'rab yurgan kezlarimda men aytgan shunday o'ylar va ko'nglimdan kechgan kuzatuvlar bilan yonma-yon yuragim allanechuk bir hisdan iztirobda edi. Bu hisni men «Xudo izlash» degan iboradan boshqa biron ibora bilan atay olmayman.

Gapimga e'tibor bering: men Xudo izlashni his deyapman, mulohaza deyayotganim yo'q. Sababki, bu izlashlar mening mulohazalarim oqibatida kelib chiqqani yo'q, qolaversa, u, hatto, mulohazalarimga butkul zid edi, bu izlash to'g'ridan-to'g'ri yurakdan chiqib kelgandi. Bu tuyg'u jamiki yot, begona narsalar o'rtasida qo'rquv, yolg'izlik, kimsasizlik tuyg'usi va kimningdir yordamidan umidvorlik tuyg'usi edi.

Xudoning mavjudligini isbot qilish mumkin emasligiga to'laligicha iymonim komil edi. Kant buni menga isbot qilib bergandi va men Xudoning mavjudligini isbot qilib bo'lmasligini aniq anglagan edim. Lekin shunga qaramasdan, Men Xudoni izladim, uni topishga umid bog'ladim va eski odatimga ko'ra o'zim izlayotgan narsaga iltijolar qildim, lekin topolmadim. Goh Men dilimda Kant bilan Shopengauerning Xudoning mavjudligini isbot qilish mumkin emasligi haqidagi dalillarini taftishdan o'tkazardim, goh ularni rad etishga kirishardi. Men o'z-o'zimga derdim: sababiyat makon va zamon kabi tafakkur kategoriyalari emas. Agam men mavjud ekanman, demak, buning sababi bor va sababining sababi bor. Ana shu hamma narsaning sababi, sabablarning sababi — Xudo deb atalmish narsadir; men shu fikr ustida to'xtab, butun vujudim bilan shu sababning mavjuddigini anglashga harakat qildim. Olamda bir kuch bor ekanini va men shu kuchning hukmida ekanimni anglay boshlashim bilanoq men shu ondayoq yashash mumkin ekanini anglay boshladim. Biroq men o'zimga o'zim savol berdim: «Nimadir, axir, bu sabab, bu qudrat? Men uning to'g'risida qanday o'ylamog'im kerak? Xudo deb ataganimga qanday munosabatda bo'lmog'im kerak?» Bu savollarga faqat menga tanish javoblarga ko'ndalang bo'lardi: «U — yaratuvchi, barpo etuvchi». Bu javoblar meni qanoatlantirmas edi va men ko'nglimda yashashim uchun zarur narsa g'oyib bo'layotganini his qilardim. Men dahshatga tushib, izlaganimga sig'inib, ibodat qilib, menga yordam berishini so'rab tavallo qilardim. Ammo harchand ibodat qilganim sari, u mening tavallolarimni eshitmayotgani menga ko'proq ayon bo'lar va men tavallo qilish mumkin bo'lgan biron zot yo'qligiga amin bo'lardim. Va men yuragimda Xudo yo'qligini sezib, umidsizlikka tushsam-da, «Ey Xudo! O'zing rahm qil! O'zing najot ber! Ey Xudo! O'zing meni to'g'ri yo'lga sol!» deya tavallo qilishda davom etardim. Ammo hech kim rahm qo'lini uzatmas va men hayotim to'xtab qolayotganini his qilardim.

Ammo yana va yana boshqa har xil tomonlardan o'dsh to'xtamga kelaverar edim — axir, men hech qanday bahonayu sababsiz, biron-bir ma'nosiz dunyoga kelgan bo'lishim mumkin emas-ku? Axir, men inidan tushib ketgan bir polapon emasman-ku? Mayli, shunaqa polapon ham bo'la qolay, mayli, baland maysalar orasida chalqancha yotganimcha chiyillab yotibman, deylik. Ammo chiyillashimning boisi shuki, men bilaman — meni ochib chiqqan onam bor — meni isitgan, boqqan, sevgan. Qani o'sha onam? Agar meni tashlab ketishgan bo'lsalar, kim tashlab ketdi? Kimdir meni yaxshi ko'rib dunyoga keltirganini men o'z-o'zimdanda yashira olmayman. Xo'sh, ana shu «kimdir» kim? — Yana Xudo!

«U mening izlanishlarimni, tushkunliklarimni, kurashimni ko'rib turibdi. U — bor», — deyman o'zimga-o'zim. Bir lahzaga buni e'tirof etishim bilanoq menda hayot jo'sh ura boshlaydi va men yashash imkoni borligini ko'raman, yashash quvonchini his qilaman. Ammo Xudoning mavjudligini e'tirof etgandan keyin men yana unga munosabatni izlay boshlayman va menga yana o'sha Xudo, yaratganimiz, uch qiyofadagi xaloskor O'g'lini yuborgan Xudo namoyon bo'ladi. Yana o'sha Dunyodan tashqaridagi, mendan tashqaridagi Xudo ko'z o'ngimda muz parchasidek erib bitardi va Undan hech narsa qolmasdi, yana hayot bulog'i qurib qolardi va men qaytadan tushkunlikka tuyib, o'zimni o'ldirishdan boshqa ilojim qolmaganini his qilardim. Eng yomoni shu ediki, men buni ham qilolmasligimga ko'zim yetib turardi.

Ikki marta emas, uch marta emas, men o'nlab, yuzlab martalab, shu ahvolga tushdim — goh shodu xurram bo'lib qolar va jon kirganday bo'lardim gohi yana yashash imkoni yo'qligini anglab, tushkunlikka berilardim.

Esimda bor — navbahor kezlari edi. Yolg'iz o'zim o'rmonda sayr qilib yurib, o'rmon tovushlarini tinglardim. O'rmon tovushlarini tinglardimu kallamda hamon o'sha o'y — so'nggi uch yil mobaynida doimiy ravishda miyamni band qilib kelgan o'y charx urardi. Men yana Xudoni izlardim.

«Yaxshi, hech qanaqa Xudo yo'q bo'la qolsin, -derdim o'z-o'zimga. — Mening tasavvurimdan tashqaridagi Xudo yo'q deylik, ammo voqelik xuddi mening hayotim kabi. Hech narsa, hech qanaqa mo'jiza bunaqa narsani isbot qilib berolmaydi, chunki mo'jizalar mening tasavvurim doirasida, yana buning ustiga aql bovar qilmaydigan narsa bo'ladi».

«Ammo mening tasavvurim Xudo haqidami? O'sha o'zim izlayotgan Xudo haqidami? — deb so'rayman o'zimdano'zim. — Bu tasavvurning o'zi qaerdan kelib qoldi? Bu fikr ko'nglimga kelishi bilan yana mening vujudimda hayotning xurram to'lqinlari qo'zg'oldi. Tevaragimdagi hamma narsa jonlandi, hamma narsa ma'no kasb etdi. Ammo mening shodligim uncha uzoq davom etgani yo'q. Aql o'z ishini davom ettirardi. «Xudo tushunchasi Xudo emas, — derdim o'z-o'zimga. -Tushuncha mening dilimda sodir bo'ladigan narsa. Xudo haqidagi tushunchani men dilimda hosil qilishim ham mumkin, hosil qilmasligim ham mumkin. Bu men izlayotgan narsa emas. Men shunday narsani izlayapmanki, usiz hayotning bo'lishi mumkin emas». Shundan keyin tevaragimdagi va dilimdagi hamma narsa yana o'la boshladi va men yana o'z-o'zimni o'ldirgim kelib qoldi.

Biroq shu yerga kelganda men o'zimga o'zim o'girilib qaradim, dilimda sodir bo'layotgan narsalarga nazar soldim, dilimda yuzlab marta sodir bo'lgan o'lib-tirilishlarni esladim. Men faqat Xudoga ishongan kezarimdagina yashaganimni esladim. «Avvallari bo'lgani kabi hozir ham, — derdim o'zimga-o'zim, — Xudoni tan olishim bilan menga jon kiradi, yashay boshlayman, uni unutsam, unga ishonmay qo'ysam, darhol o'la boshlayman. Bu tirilish va o'lishlar nima bo'lsaykin? Axir, Xudoning mavjudligiga ishonchimni yo'qotgan kezarimdagini hayotimni hayot deb bo'lmaydi, Xudoni topishimga g'ira-shira umidim bo'lmaganida edi, allaqachon o'zimni-o'zim o'ldirib qo'ya qolgan bo'lardim. Men faqat uni his qilgan chog'larimda, uni izlagan chog'larimdagina chindan ham yashayman. «Xo'sh, men yana nimani izlayapman? — deb sado beradi dilimdagi ovoz. — Mana u. Usiz yashab bo'lmaydi. Xudoni tanimoq va yashamoq - aynan bir narsa. Xudo — hayotdir».

«Yasha, Xudoni izlab top, shunda hayoting Xudosiz bo'lmaydi». Shunda dilimdagi va atrofimdagi narsalarning hammasi har qachongidan kuchliroq nurlanib ketdi va bu nur meni ortiq tark etmadi.

Shu tarzda men jonimga suiqasd qilishdan Qutulib qoldim. Mendagi bu inqilob qachon va Qanday sodir bo'lganini aytib berolmayman. Mendagi hayot qudrati nechog'liq asta-sekin, bilinar-bilinmas tarzda mahv qilina borgan bo'lsa va men yashashning iloji yo'qligiga, hayotimning to'xtab qolishiga, o'z-o'zimni o'ldirish, ehtiyojiga kelgan bo'lsam, xuddi shu tarzda asta-sekin, bilinar-bilinmas tarzda menga hayot quvvati qaytib keldi. G'alati joyi shunda edi-ki, menga qaytgan hayot quvvati yangi emas, juda eski hayotimning ilk pallalarida meni o'ziga jalb etgan o'sha quvvat edi. Men hamma narsada avvalgilariga, bolaligim va yoshligimdagiga qaytdim. Men meni barpo etgan va mendan nimadir istaydigan ifodaga e'tiqod qo'yishga qaytdim; men hayotimning birdan-bir maqsadi - asosiy maqsadi yaxshiroq bo'lmoqdir, degan e'tiqodga, ya'ni o'sha iroda bilan rozi-rizolikda yashashga qaytdim; men ko'zimdano'zim pinhon bo'lgan olis tarixda butun insoniyat o'ziga rahnamo qilib olish uchun bu irodani ishlab chiqqan, degan to'xtamga qaytdim. Boshqacha aytganda, men Xudoga e'tiqodga, ma'naviy kamolot sari intilishga va hayot ma'nosini o'zida eltuvchi rivoyatga qaytdim. Faqat farqi shunda ediki, bir zamonlar bularning hammasi ongsiz tarzda qabul qilingandi, endi esa men busiz yashay olmasligimni bilardim.

Go'yo men boshimdan bunday voqeani kechirganday edim: esimda yo'q — qachondir meni qayiqqa o'tqazdilar, menga noma'lum bo'lgan allaqanday sohildan meni yo'lga ravona qildilar, boshqa sohilga tomon yo'nalishni ko'rsatishdi, mening tajribasiz qo'llarimga eshkakni tutqazishdida, meni

yolg'iz qoldirishdi. Men bilganimcha eshkak eshib, suzib ketdim. Ammo o'rtaga yetganim sari oqim tezlasha bordi; oqim meni manzildan boshka tomonga sudrardi. Yo'lda esa oqim ixtiyoriga tushib menga o'xshab sarsari suzayotgan yo'lovchilar borgan sari ko'proq uchray boshladi. Eshkak eshishda davom etayotgan yolg'iz yo'lovchilar ham bor edi. Eshkaklari qo'lidan tushgan yo'lvchilar ham bor edi. Odam liq to'la katta qayiqlar, zo'r kemalar ham bor edi — ularning ba'zilari oqimga qarshi kurashar, ba'zilari esa ixtiyorlarini butunlay oqimga topshirib qo'yishgan edi. Men suzib borganim sari yo'nalish bo'ylab quyiga, barcha suzib borayotganlar oqimiga qarar ekanman, menga berilgan yo'nalishni ko'proq unutardim. Oqimning qoq o'rtasida, quyi tomonga ketayotgan kemalar va qayiqlar qatorida men yo'nalishni butunlay yo'qotib qo'ydim va eshkaklarni tashladim. Mening tevaragimda har tomonimdan yelkanli va eshkakli qayiqlarda yo'lvchilar shodu xurramlik bilan qiyqirishib quyi tomonga yelib borishar va meni ham, bir-birlarini ham boshqa yo'nalishning bo'lishi mumkin emasligiga ishontirishmoqchi bo'lishardi. Men ularga ishondim va ular bilan suzib ketdim. Suzib ketaveribman, ketaveribman. Juda olislab ketib qolibman. Shu qadar oliski, shovvalarning ovozini eshitdim. Men bu shovvalarda toshlarga urilib nobud bo'lishim muqarrar edi. Shovvalarda dabdalasi chiqqan qayiqlarni ko'rdim. Birdan hushim joyiga keldi. Ancha vaqtgacha menga nima bo'lganini, qanaqa ahvolga tushib qolganimni aniqlay olmay turdim. Men qarshimda halokatdan boshqa narsani ko'rmas edim. Men shu halokat sari yelib-yuguribman, undan juda qo'rqar edim va hech qaerda undan qutulish chorasini ko'rmasdim, nima qilishimni bilmay qolgan edim. Ammo orqamga o'girilib qarab, hormay-tolmay oqimni yorib kelayotgan son-sanoqsiz qayiqlarni ko'rdim, sohil esimga tushdi, eshkaklarni, yo'nalishni esladim va orqaga — oqimga qarshi sohil tomonga suza boshladim.

Sohil — Xudo edi, yo'nalish — rivoyat edi, eshkaklar — menga berilgan erk edi. Men ularning yordamida sohilga — Xudoning jamoliga erishmoqqa suzmog'im kerak edi. Shunday qilib, menda hayot qudrati qaita tirildi va men yana yashay boshladim.

XIII

Men davramizning hayoti zohiran hayotga o'xshasa-da, aslida hayot emasligini tan olib, undan yuz o'girdim. Biz yashayotgan farovonlik sharoiti bizni hayotni anglash imkonidan mahrum qilar edi. Hayotni anglamoq uchun men istisnolar hayotini, o'zimizning, ya'ni hayot daraxtiga yopishib olgan tekinox'rlar hayotini emas, oddiy mehnatkash xalq hayotini anglamog'im, shu xalq hayotga beradigan ma'noni tushunmog'im lozim edi. Mening tevaragimdagi oddiy xalq rus xalqi edi. Men unga murojaat qildim, shu xalq hayotga beradigan ma'noga murojaat qildim. Bu ma'noni ifodalash mumkin bo'lsa, u quyidagicha edi: har bir odam bu dunyoga Xudoning irodasi bilan keladi. Xudo odamzodni shunday yaratgan-ki, har bir odam o'zining jonini nobud qilishi yoki asrab qolishi mumkin. Odamning hayotdagi vazifasi — o'z jonini saqlab qolishdir. O'z jonini saqlab qolish uchun Xudoning buyurganlariga amal qilib yashamoq lozim. Xudoning buyruqlariga amal qilib yashash uchun esa hayotning hamma sharoitidan voz kechish shart, mehnat qilib, mutelik bilan, sabr-qanoat bilan saxovatlik bo'lib yashamoq kerak. Bu ma'noni xalq o'zi sig'inadigan diniy e'tiqoddan topadi; bu e'tiqodlarni esa ularga ruhoniylar yetkazib kelgan va hozir ham yetkazib turadilar. Shuningdek, bu e'tiqodlar xalq ichida yashaydigan rivoyatlarda, afsonalarda, maqollarda va hikoyalarda ifodalanadi. Bu ma'no menga yasuda ayon edi va yuragimga yaqin edi. Ammo xalq iymonining ana shu ma'nosi bilan xalqimizda juda ko'p shunaqa narsalar bog'lanib ketadiki, ular meni o'zidan uzoqlashtiradi. Men ularga izoh topolmayman: turli-tuman sehru jodular,-cherkov marosimlari, ro'za tutishlari, avliyolarning suyaklariga va suvratlariga sajda qilishlar shular jumlasidan. Xalq ularni bir-biridan ajrata olmaydi, men ham ajrata olmayman. Ammo xalq e'tiqod qo'ygan narsalarning ko'pchiligi menga har qancha g'alati tuyulmasin, men ularning hammasini qabul qildim, cherkovga qatnadim, ertalab va kechqurunlari ibodat qildim, ro'za tutdim, dastlabki paytlarda aqlim hech narsaga qarshilik qilmadi. Avvallari nazarimda sira qilishning iloji bo'lmagan narsalar endilikda menda hech qanaqa

qarshilik uyg'otmadi.

Mening iymonga avvalgi munosabatim bilan Hozirgisi bir-biridan mutlaqo farq qilardi. Avvallari menga hayotning o'zi ma'noga to'lday tuyulardi va iymon menga mutlaqo luzumsiz bo'lgan, aql bovar qilmaydigan va hayot bilan bog'lanmagan qoidalarining ko'ngil tusagan bir tarzda tasdig'iday ko'rinardi. O'sha paytlarda men o'zim o'zimdanda bu qoidalar qanaqa ma'noga ega ekanini so'rab va ularning ma'nosiz ekanigida ishonch hosil qilib, ulardan yuz o'girganman. Endi esa butunlay buning aksi — men qat'iy bilamanki, mening hayotim hech qanaqa ma'noga ega emas va ega bo'lolmaydi ham, shuning uchun iymon qoidalari menga nafaqat luzumsiz ko'ringanlari yo'q, balki men chinakam tajriba orqali shunday to'xtamga kelgan edimki, faqat iymonning ana shu qoidalarigina hayotga ma'no beradi. Avvallari men ularga tishim o'tmaydigan mutlaqo keraksiz yozuvlarga qaragandek qarardim, endi esa, mabodo ularni tungunmasam, bilardimki, ularning ma'nosi bor va men o'z-o'zimga ularni anglamoqni o'rganish kerak derdim.

Men quyidagicha mulohaza yuritardim. Men o'zimga derdim: iymonni bilish ham butun insoniyat va uning aqli kabi sirli bir ibtidodan kelib chiqadi. Bu ibtido Xudodir, bu - inson jismining ham, aqlining ham ibtidosi. Mening jismim menga Xudodan vorislik yo'li bilan qanday yetib kelgan bo'lsa, mening aqlim va mening hayotni tanishim ham menga shunday yetib kelgan. Shuning uchun hayotni tanishimning hamma rivojlanish bosqichlari yolg'on bo'lishi mumkin emas. Odamlar chinakamiga ishongan nimaiki bo'lsa, u haqiqat bo'lmog'i kerak; u har xil yo'sinda ifodalanmog'i mumkin, biroq u yolg'on bo'lmog'i mumkin emas, shuning uchun ham mabodo u menga yolg'on bo'lib tuyulsa, buning ma'nosiy shundan iboratki, uni men anglamabman. Bunday tashqari yana o'zimga dedim: har qanday iymonning mohiyati shundan iboratki, u hayotga o'lim mahv etolmaydigan ma'no beradi. Tabiiyki, hashamat qo'ynida jon taslim qilayotgan podshoning, mehnat azobida o'layotgan qari qulning, norasida go'dakning, donishmand keksaning, devonasifat kampirning, baxtiyor juvonning, ehtiroslar quyunida o'rtanayotgan yigitning savoliga javob bermoq uchun, ya'ni turfa xil sharoitdagi har xil ma'lumot darajasiga ega bo'lgan odamlarning savoliga javob bermoq uchun — albattaki, hayotning «Men nima uchun yashayapman? Mening hayotimdan nima chiqadi?» degan o'sha yagona mangu savoliga beriladigan javob bitta bo'lsa, iymon beradigan javob mohiyatiga ko'ra bir xil bo'lsa-da, o'zining ko'rinishlarida cheksiz xilma-xil bo'lmog'i kerak. Albattaki, bu javob naqadar bir xilroq, teranroq, chinroq bo'ladigan bo'lsa, har bitta odamning ma'lumoti va mavqeiga mos tarzda ifoda qilishga urinilishi jihatidan shunchalik g'alati va badbashara ko'rinmog'i lozim. Ammo men uchun iymonning marosimiy tomonlarining g'alatiligini oqlaydigan bu tarzda mulohazalar men uchun yagona bo'lgan hayot ishida, ya'ni iymonda keyin o'zim pushaymon qiladigan xatti-harakatlar qilishimga yo'l qo'ymoqlik uchun harholda kifoya emas edi. Men xalq iymonining marosimli jihatlarini bajo keltirar ekanman, qalbimning jami kuchlari orqali xalqqa singib ketishni istardim, ammo bunday qila olmas edim. Agar shunday qiladigan bo'lsam, o'z-o'zimni aldagan bo'lib chiqardim, o'zim uchun muqaddas bo'lgan narsani mazax qilgan bo'lardim. Shu o'rinda bizning rus dinshunoslarining yangi asarlari menga yordamga keldi.

Bu dinshunoslarning tushuntirishiga ko'ra iymonning asosiy aqoidi gunohlardan xoli turuvchi cherkovdir. Bu aqidni tan olishdan muqarrar bir tarzda cherkov sig'inadigan hamma narsa haqiqatdir, degan xulosa kelib chiqadi. Bir-birlari bilan muhabbat orqali bog'langan va shuning uchun ham chinakam bilimga ega bo'lgan xudojo'ylar majmui sifatida cherkov mening iymonimning negizi bo'lib qoldi. O'zimga-o'zim dedimki: «Xudoning haqiqatiga bir odam yolg'iz o'zi erisha olmaydi, u bir-birlari bilan muhabbat orqali bog'langan odamlar majmuigagina namoyon bo'lishi mumkin. Haqiqatni tanimoq uchun bo'linmaslik kerak; bo'linmaslik uchun esa bir-birlarimizni sevmog' lozim va o'zing rozi bo'lmagan narsa bilan murosila qilmoq zarur. Haqiqat sevgi qarshisida jamol ko'rsatadi; shundoq ekan, agar sen cherkov marosimlariga bo'ysunmasang, sevgiga shikast yetkazgan bo'lasan, sevgiga shikast yetkazish bilan esa haqiqatni tanish imkonidan mahrum bo'lasan». Men hali u paytlarda bu mulohaza zamirida yotgan safsatani ko'rmagan edim. Men hali u paytlarda sevgi orqali birlashish juda

ulug‘ sevgini keltirib chiqarishi mumkinligini, lekin zinhor-bazinhor Nikey ramziyotida muayyan so‘zlar bilan ifodalangan diniy haqiqat berilishi mumkin emasligini bilmagan edim. Xuddi shuningdek, muhabbat haqiqatning ma‘lum ifodasini birlashtirmoq uchun hammaga majburiy bir narsa qilolmasligini ham ko‘rmagandim. Men hali U paytlarda bu mulohazalardagi xatoliklarni sezmagandim va shu sababdan pravoslav cherkovi marosimlarining ko‘p qismini tushunmagan holda qabul qilish va bajo keltirish imkoniga ega bo‘lgandim. U paytlarda men butun qalb kuchim bilan har qanday mulohazakorlikdan qochishga, ziddiyatlarni chetlab o‘tishga intilgandim va o‘zim unchalik qoniqmagandim cherkov qoidalarini imkoni boricha oqilona izohlashga harakat qilgandim.

Cherkov marosimlarini bajo keltirar ekanman, men aqlimni tizginlab olib, butun insoniyat rioya qiladigan rivoyatlarga o‘zimni bo‘ysundirdim. Men o‘z ajdodlarim bilan, sevikli otam, onam, bobolarim, buvilarim bilan birlashdim. Ular va ulardan avval o‘tganlar dinga ishonib yashashgan va meni dunyoga keltirishgan. Men xalqdan chiqqan, o‘zim hurmat qiladigan millionlab odamlar bilan birlashdim. Bundan tashqari, bu harakatlarimning hech qaysisida biron yomon jihat yo‘q edi (yomon deb men nafs balosiga berilishni hisoblardim). Erta tongda cherkov ibodatiga turar ekanman, bu ishim yaxshi ekanini bilardim. Negaki, fikratimdagi murakkab birlikni jilovlamog‘im uchun, o‘tgan ajdodlarim va zamondoshlarim bilan yaqinlashmog‘im uchun, hayot ma‘nosini izlamoq niyatlarida jismim farog‘atidan kechmoqda edimda. Ro‘za tutganimda ham, har kungi toat-ibodatni bajo keltirganimda ham, boshqa har xil rasm-rusumlarga rioya qilganimda ham shu bo‘lardim. Bu qurbonlar har qancha arziyas bo‘lmasin, ular yaxshilik yo‘lidagi qurbonlar edi. Men ro‘za tutar, Uydagi va cherkovdagi kundalik toat-ibodatlarni bajo keltirardim. Cherkovdagi ibodatlar vaqtida amri ma‘ruflarni tinglar ekanman, ularning har bir so‘zini anglashga va ilojim bo‘lgan kezlarda ularga ma‘no berishga harakat qilardim. Ibodatdagi men uchun eng muhim gap — «Bir-birimizni sevib hamfikir bo‘laylik...» — degan gap edi. Undan keyin keladigan «Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruhga sig‘inaylik» degan iborani tushirib qoldirardim, negaki ularni tushuna olmas edim.

XIV

Yashamoq uchun iymonga ega bo‘lmoq o‘sha kezlarda menga shu qadar zarur ediki, men diniy e‘tiqodlarning ziddiyatlari va noaniqliklarini o‘z-o‘zimdanda ongsiz ravishda yashirib keldim. Ammo marosimlarni bunday idrok etishning chegarasi bor edi. Ibodatlar vaqtida rohiblar tomonidan aytiladigan ba‘zi bir iltimosnomalarning mazmuni menga borgan sari ravshanroq bo‘laverdi. Men ulardagi ayrim iboralarni bir amallab o‘zimga o‘zim tushuntirib berdim. Podsho va uning qarindosh-urug‘lari haqida tez-tez takrorlanib turadigan ibodatlarni shu bilan izohladimki, ular yo‘ldan ozdiradigan parchalarga ko‘proq ro‘para keladilar, shuning uchun ularning haqiga ko‘proq ibodat qilmoq kerak. Yana ba‘zi bir tushunish qiyin bo‘lgan ibodatlarni dushmanning yovuzligi bilan izohladim. Ammo yana bir qator ibodatlar va sehrli marosimlar bor ediki, ularni harchand tushuntirgan bilan tushunib bo‘lmas edi. Yoki men ularni bir amallab tushuntirmoqchi bo‘lar ekanman, gaplarim yolg‘on ekanini his qilardim va bu bilan o‘zimning Xudoga munosabatimni yakson etayotganimni va iymonli bo‘lishning har qanday imkonini butunlay yo‘qotib qo‘yayotganimni fahmlab turardim. Asosiy bayramlarni bayram qilishda ham men xuddi shularni boshdan kechirardim. Shanba kunini yodda tutish zarurligi, ya‘ni bir kunni Xudoga murojaat qilishga bag‘ishlash kerakligi menga tushunarli edi. Ammo asosiy bayram qayta tirilish hodisalarini eslash ediki, men uning chinligini sira tasavvur qila olmas va anglay olmas edim. Va har haftada bayram qilinadigan kun ana shu qayta tirilish nomi bilan atalardi. Xuddi shu kuni sirli Yevxaristiya marosimi sodir bo‘lar ediki, buni men mutlaqo tushuna olmasdim. Mavluddan boshqa qolgan o‘n ikki bayram mo‘‘jizalar haqidagi xotirotlardan iborat edi. Eslasam, ularni inkor etmay degan maqsadda men ular to‘g‘risida o‘ylamaslikka harakat qilardim. Bu bayramlar Me‘roj, Xudoning jamol ko‘rsatishi va boshqalar edi. Bu bayramlar bayram qilinganda men uchun haddan tashqari arziyas bo‘lib ko‘ringan narsalarga allanechuk muhimlik berilayotganini

ko‘rib, men yo o‘zimga taskin beradigan biron izoh topishga harakat qilardim yoki meni vasvasaga solayotgan narsani ko‘rmaslik uchun ko‘zimni yumib olardim.

Bularning bari menda eng muhim deb hisoblanadigan, aslida menga odatdagi bir narsa bo‘lib tuyuladigan cho‘qintirish marosimida juda kuchli bir tarzda sodir bo‘lardi.

Bunda men tushunarsiz bir narsaga ro‘para Kelardim emas, aksincha, juda tushunarli haralotimga aylandi. Mo‘‘jizalarni soqit qilib ularga bir fabuladay qarar ekanman, bu mutolaa menga hayotning ma‘nosini namoyon etdi. kitoblarda Ulug‘ Makariyning, Ioasaf — shahzodaning (Buddaning tarixi) hayoti bor edi. Ularda Ioann Zlatoustning so‘zlari, quduqdagi yo‘lovchi tilla topib olgan Monax, sargardon Petr haqidagi hikoyalar bor edi. U yerda hammalari yakdillik bilan o‘lim hayotni istisno qilmaydi, degan shahidlarning tarixi bor edi. Savodsiz, telbanamo, cherkov ta‘limotidan butunlay bexabar odamlarning tarixi bor edi.

Ammo men Xudoga ishonadigan olimlarga yaqinlashib, ularning kitoblarini qo‘lga olishim bilanoq dilimda allanechuk shubhalar, noroziliklar, bahslardan g‘azablanish paydo bo‘lardi va men ularning gaplarini chuqurroq anglay borganim sari haqiqatdan tobora uzoqlashayotganimni va tubsiz jarlik sari borayotganimni his qilardim.

XV

Men necha martalab savodsizliklari va ilmsizliklari uchun mujiklarga havas qilganman. Iymonning menga o‘ta ma‘nosiz bo‘lib ko‘ringan qoidalari ularga sira ham yolg‘on bo‘lib tuyulmasdi; ular bu qoidalarni qabul qilishar va haqiqat deb ishonishardi. Bu haqiqatga men ishona olmasdim. Faqat men sho‘rlikkagina ayon ediki, haqiqat ko‘z ilg‘amas rishtalar orqali yolg‘on bilan chatishib ketgan va men uni bu ahvolda qabul qilolmayman. Shu ahvolda uch yil yashadim va dastlabki paytlarda endi ko‘zi ochilgan odamday haqiqatni bir chindim-bir chindimdan o‘zlashtira bordim. Men faqat sezgimning chorlovi bilan menga nurliroq tuyulgan tomonga tasmollab borardim. Unda haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi bu ziddiyatlar meni bu qadar lol qoddirmagan edi. Biron narsaga aqlim yetmagan chog‘larda o‘z-o‘zimga derdim: «Men o‘zim aybdorman, o‘zim ahmoqman». Ammo men o‘zim o‘rganayotgan haqiqatlar ichiga ko‘proq kira borganim sari, bu haqiqatlar hayotimning asosi bo‘la borganim sari, bu ziddiyatlar og‘irroq va dahshatliroq bo‘lib borar, men aqlim yetmagani uchun anglamagan narsa bilan o‘z-o‘zimga yolg‘on gapirmasdan anglash mumkin bo‘lmagan narsa o‘rtasidagi chegara keskinroq namoyon bo‘lardi.

Ana shu shubhalar va iztiroblarga qaramay men hali ham pravoslaviya tarafida edim. Biroq bir joyga kelib hayot masalalari ko‘ndalang bo‘ldi, ularni hal qilmoq kerak edi. Cherkov bu masalalarni men sig‘inadigan iymon asoslariga zid tarzda hal qila boshladi. Bu esa meni pravoslaviya bilan muloqotda bo‘lish imkoniyatidan uzil-kesil voz kechishga majbur qildi. Bu masalalar, birinchidan, pravoslav cherkovining boshqa cherkovlarga — katoliklarga va ixtilofchilarga munosabati masalasi edi. Bu kezlarda diniy e‘tiqodlarga qiziqishim oqibatida men Har xil yo‘nalishdagi, har xil mazhablardagi dindorlarga yaqinlashgan edim. Ular orasida katoliklar ham, protestantlar ham, qadimchilar Ham, molokanlar ham bor edi. Ularning orasida men vijdoni toza va chinakamiga xudojo‘y odamlarni ko‘p uchratganman. Men bu odamlarga birodar bo‘lishni istardim. Xo‘sh, nima bo‘ldi?

Men bilgan diniy ta‘limot menga yagona iymots va sevgi orqali hammamizni birlashtirishna yaktan qilishni va‘da qilgan edi. Buning o‘rniga bu ta‘limot o‘zining eng yaxshi vakillari orqali menga bunday dedi: bu odamlarning hammasi yolg‘on botqog‘iga botgan, allanima ularga hayot qudratini berarmish, bu — shayton vasvasasidan boshqa narsa emas, faqat bizgina bo‘lishi mumkin bo‘lgan yagona haqiqatga egalik qilamiz. Shunda ko‘rdimki, pravoslav rohiblar o‘zlari bilan bir xil diniy e‘tiqodlarga sig‘inmagan odamlarning hammasini kofir hisoblashar ekan. Xuddi shuningdek, katoliklar bilan boshqalar ham pravoslavlarni kofir deb bilishar ekanlar. Ko‘rdimki, kimda-kim pravoslavlariga o‘xshab

o‘z diniy e‘tiqodlarini o‘sha ramzlar va o‘sha so‘zlarda ifodalama, pravoslavlar ularga dushmanlik munosabatida bo‘lar ekanlar. Albatta, pravoslavlar buni yashirishga urinishardi. Holbuki, aslida o‘zi shundoq bo‘lishi ham kerak. Sababki, birinchidan, «sen yolg‘onga botgansan, men haqiqatga erishgan» degan gapning o‘zi bir odam boshqa odamga aytishi mumkin bo‘lgan eng shafqatsiz gapdir. Ikkinchidan, o‘zining farzandlari va birodarlarini yolg‘on iymonga sig‘intirishni istagan odamlarga do‘stlik munosabatida bo‘lishi mumkin emas. Qizig‘i shuki, diniy ta‘limotni qancha ko‘proq bilishsa, bu dushmanlik shuncha kuchaya boradi. «Haqiqat odamlarning sevgi orqali birlashuvidadir», — deb hisoblaganim uchun beixtiyor menga shunday ko‘rindiki, diniy ta‘limot o‘zi barpo qilishi kerak bo‘lgan narsani o‘zi vayron qilyapti.

Bizga o‘xshagan ma‘rifatli odamlarga bu holning bema‘niligi o‘z-o‘zidan ayon; shu darajada ayonki, dastlabki pallalarda shunaqa munosabatlarning bo‘lishi mumkinligiga aql bovar qilmaydi. Biz aholisi turli dinlarga sig‘inadigan har xil mamlakatlarda yashaganmiz va ko‘rganmiz: katolik pravoslavga va protestantga, protestant katolik va pravoslavga, pravoslav ham har ikkoviga nafrat bilan muomalada bo‘ladi, bir-birlarining e‘tiqodini sira ikkilanmay, komil ishonch bilan rad etishadi. Qadimchilar, pashkovchilar va boshqa mazhablarga munosabat ham xuddi shuning o‘zi. O‘z-o‘zingga deysan: «Axir, bunday bo‘lishi mumkin emas, nahotki bu shu qadar jo‘n bo‘lsa? Axir, ikki xil fikr qarama-qarshi bo‘lib, bir-birini rad etsa, na unisida, na bunisida iymonni tashkil qiluvchi yagona haqiqat bo‘lishi mumkin».

Odamlar buni ko‘rmasliklarining sira ham iloji yo‘q. Bu yerda nimadir bor. Buni qandaydir izohi bo‘lishi kerak. Men shunday izoh bor deb o‘ylagan edim va uni qidira boshladim, shu masalaga taallukdi adabiyotlarning imkoni boricha hammasini o‘qidim, iloji bo‘lgan odamlarning bari bilan maslahatlashdim. Lekin hech qanaqa izoh topa olmadim. Faqat topganim latifanamo bir izoh bo‘ldi — unga ko‘ra Suma gusarlari butun dunyodagi eng peshqadam polk deb Suma polkini hisoblashadi, sariq ulanlar esa dunyodagi eng peshqadam polk deganda sariq ulanlar polkini tushunishadi. Turli-tuman diniy e‘tiqodlarga mansub ruhoniylar, ularning eng yaxshi vakillari menga: «Biz o‘zimizni haqqa erishgan deb bilamiz, qolganlar adashadi, ularning haqiga duo qilishdan boshqa hech narsa qo‘limizdan kelmaydi», — degan gapni aytishdi, xolos. Men arximandritlar, arxiereylar, pirlar, tarkidunyo qilgan keksalar huzuriga bordim, lekin ularning hech qaysisi menga buni tushuntirib berishga urinib ham ko‘rgani yo‘q. faqat ulardan bittasigina menga hamma narsani tushuntirib berdi, ammo shundoq tushuntirdiki, men keyin hech kimdan hech narsa so‘ramay qo‘ydim.

Men degan edimki, dinga ishonmaydigan odamlar ichidan kimda-kim iymonga yuz o‘girsas (bizning jamiki yosh avlodimiz iymonga yuz o‘tirmog‘i kerak) birinchi ko‘ndalang bo‘ladigan masala «Nima uchun haqiqat lyuteranlikda emas, katoliklikda emas, balki pravoslavliyada?» — degan masala bo‘ladi. Katolik bilan protestant ham birdan-bir haqiqat o‘zlarining dinlarida ekanini tasdiqlaydi. Buni mujik bilmasligi mumkin, lekin yoshlar biladi, chunki buni ularga gimnaziya o‘qitishadi. Har bir xudojo‘y o‘z e‘tiqodlarini ro‘yobga chiqarayotganda o‘z tomoniga tortqilaydigan dalillar kifoya emas. «Diniy ta‘limotni eng oliy yuksaklikda anglasa bo‘lmasmikin? — dedim men. — Shu darajada yuksak bo‘lsaki, unda tafovutlar yo‘q bo‘lib ketsa? Qadimchilar bilan birga biz bir yo‘ldan boramiz-ku! Shu yo‘ldan yana nariga ketaversak bo‘lmasmikin? Ular salb, hamd-sano va mehrob tevaragida aylanish bizda boshqacha deyishadi. Biz ularga dedik: sizlar Nikeya ramziga, yetti sir-sinoatga ishonasizlar, biz ham ishonamiz. Kelinglar, shunda bahamjihat bo‘laylik, qolganida istaganingizni qiling. Bizni bular bilan birlashtirgan narsa shu bo‘ldiki, biz iymondagi eng muhim narsani nomuhim narsadan yuqori qo‘ydik. Endi katoliklarga ham «sizlar falon va falon masalalarga ishonasizlar, bular eng muhim masalalar, boshqa masalalarda istagan ishlaringni qilaveringlar» desak bo‘lmasmikin? Xuddi shu gaplarni protestantlarga aytib, ular bilan ham eng asosiy masalada hamjihat bo‘lsak bo‘lmaydimi?

Suhbatdoshim mening fikrimga qo‘shildi, lekin dediki, bunaqa yon berishlar diniy hokimiyatni malomatga qo‘yadi, uni ota-bobolarimizning dinidan chekinishda va dindorlar o‘rtasida ixtilof tug‘dirishda ayblashadi, holbuki diniy hokimiyatning asosiy vazifasi bizga bobokalonlarimizdan meros

bo‘lib qolgan yunon-rossiya pravoslav dinini ko‘z qorachig‘iday pokiza saqlashdir.

Shunda men hamma gapga tushundim. Men imon izlayman, hayotning qudratini izlayman, ular esa odamlar oldidagi muayyan insoniy majburiyatlarini yaxshiroq ado etish vositalarini izlashadi. Bu insoniy ishlarni ado etar ekanlar, ularni insoniy tarzda bajaradilar. Ular adashgan birodarlari uchun taassuflari haqida, Xudoning taxtiravoni oldida ularning haqiga qiladigan ibodatlari to‘g‘risida har qancha gapirishmasin, insoniy ishlarni ado etmoq uchun kuch ishlatmoq kerak. Kuch hamisha ishlatilgan, hozir ham ishlatilyapti, bundan keyin ham ishlatiladi. Ikki xil tariqat har qaysisi o‘zini haqiqat yo‘lida deb bilsa, bir-birlarini esa yolg‘onga cho‘mgan deb hisoblasa, birodarlarini haqiqatga jalb qilmoq uchun ular o‘z ta‘limotlarini targ‘ib qiladilar. Agar yolg‘on ta‘limotni cherkovning o‘zini haqiqatga oshno deb hisoblovchi tajribasiz qavmi o‘rtasida targ‘ib qilsa, cherkov bu kitoblarni yoqib yubormasligi, qavmini vasvasga solgan odamni ko‘zdan nari qilmasligi mumkin emas. Pravoslav cherkovining fikriga ko‘ra soxta olov alangasida yonayotgan va eng muhim masalada, imon masalasida cherkov qavmini yo‘ldan ozdirayotgan mazhabparastni nima qilmoq kerak? Uning kallasini olmoqdan yoki o‘zini zindonga solmoqdan o‘zga iloj bormi? Aleksey Mixaylovich zamonida gulxanda yoqishtan, ya‘ni zamonasining oliy jazosini qo‘llashgan; bizning davrimizda ham yana o‘sha oliy jazoni qo‘llashadi — bir kishilik hibsga mahkum etishadi. Men diniy e‘tiqod yo‘lida qilinayotgan ana shunaqa ishlarga e‘tiborimni qaratdim-da, dahshatga tushdim va pravoslaviyadan deyarli yuz o‘tirdim. Cherkovning hayotiy masalalariga ikkinchi munosabati uning urushga va qatlarga munosabati edi.

Shu paytda Rossiyada urush boshlanib qoldi. Ruslar xristian sevgisini alqab o‘z birodarlarini o‘ldira boshlashdi. Bu to‘g‘rida o‘ylamaslikning iloji yo‘q edi. Qotillik har qanday dinning birlamchi asoslariga zid bo‘lgan yovuzlik edi. Buni ko‘rmaslik mumkin emas edi. Holbuki, cherkovlarda bizning qurolimizning muvaffaqiyati uchun ibodatlar qilindi va din peshvolari qotillikni dindan kelib chiquvchi ish, deb tan olishdi. Nafaqat urushdagi bu qotillikni, balki urushdan keyin sodir bo‘lgan g‘alayonlar vaqtidagi odam o‘ldirishlarni ham shar‘iy bir narsa deb e‘tirof etishdi. Men cherkov arboblari, pirlarini, monaxlarni ko‘rdim — ular adashgan nochor yigitlarning o‘ldirilishini ma‘qullashdi. Men xristian diniga sig‘inadigan odamlar tomonidan qilinadigan ishlarning hammasiga e‘tiborimni qaratdim. Qaratdim-u, dahshatga tushdim.

XVI

Shunda shubhalarni yig‘ishtirib, uzil-kesil amin bo‘ldim — men kelib baridan tutgan imon bilimi hali to‘la haqiqat emas ekan. Avvallari bu diniy ta‘limot boshdan-oyoq hammasi yolg‘on derdim; ammo endilikda bunday deb bo‘lmas edi. Butun xalq haqiqatni bilishga erishgan edi, bunga shubha bo‘lmog‘i mumkin emas edi, aks holda bu xalq yashamagan bo‘lar edi. Haqiqatni taniy oladigan bo‘lib qolganimdan tashqari men allaqachon shu haqiqat bilan yashamoqda va uning jamiki chinligini his qilmokda edim, biroq ana ngu bilimimning o‘zida yolg‘on ham bor edi. Bunga ham mening shubham yo‘q edi. Shunday qilib, avvallari meni bezdirgan narsalarning hammasi endilikda jonli bir tarzda qarshimda gavdalandi.

Ammo yolg‘on qayoqdan kelib qoldi-yu, haqiqat qayoqdan keldi? Yolg‘on ham, haqiqat ham cherkov deb atalgan narsa tomonidan tarqatiladi. Yolg‘on ham, haqiqat ham rivoyatlarning tarkibidadir. Ularni muqaddas rivoyatlar va muqaddas kitoblar deb atashadi.

Shu tarzda xohlasam-xohlamasam men ana shu rivoyatlar va kitoblarni o‘rganishga, tadqiq etishga majbur bo‘ldim. Holbuki, hozirgacha ayni shundan qo‘rqar edim.

Men bir vaqtlar keraksiz narsa sifatida nafrat bilan o‘zim uloqtirib tashlagan dinshunoslikni o‘rganishga kirishdim. U paytlarda dinshunoslik menga bir qator keraksiz bema‘ni narsalarning yig‘indisiday tuyulgandi, u paytlarda mening tevaragimni har tomondan menga aniq-ravshan va ma‘noga to‘liq bo‘lib tuyulgan hayot hodisalari qurshab olgan edi, endilikda esa sog‘lom kallaga sig‘mayotgan narsani bajonidil uloqtirib ham tashlar edimu, ammo noiloj qolgan edim. Bu — diniy

e'tiqodning poydevori edi, harholda u menga namoyon bo'lgan hayot ma'nosini yaxlit bilish bilan chambarchas bog'liq edi. Mening kekxa, baquvvat aqlimga u har qancha vahshiyona ko'rinmasin, u xalos bo'lishning birdan-bir omili edi.

Uni anglamoq uchun, hatto, men ilm qoidalarini anglaganday emas, shunchaki jo'n anglamoq uchun uni ehtiyot bilan sinchiklab tekshirib chiqmoq kerak edi. Iymon bilimining xususiyatini bilib turib, men buni izlamayman va izlay olmayman. Men hamma narsaning izohini izlab o'tirmayman. Men bilaman — hamma narsaning izohi hamma narsaning ibtidosi sifatida cheksizlik ichida yashiringan bo'lmog'i kerak. Ammo men shunday anglamoq istaymanki, men buning oqibatida muqarrar tarzda izohlab bo'lmaydigan narsaga kelay; istaymanki, jamiki izohlab bo'lmaydigan narsa aqlimning talablari noto'g'ri bo'lgani uchun emas (akdimning talablari to'g'ri, ulardan tashqarida men hech narsani anglay olmayman), balki men o'z akdimning chegaralarini ko'rib turganim uchun izohlab bo'lmaydigan bo'lsa. Men shunday anglamoq istaymanki, har qanday izohlab bo'lmaydigan qoida mening qarshimda men ishonishim kerak bo'lgan narsa sifatida emas, akdning zaruriyati tarzida namoyon bo'lsa...

Diniy ta'limotda haqiqat borligi menda zarra shubha tug'dirmaydi. Ammo unda yolg'on mavjud ekaniga ham zarra shubham yo'q. Men ana shu haqiqat bilan yolg'onni topib, ularni bir-biridan ajratib olmog'im kerak. Men ana shu ishga kirishdim. Diniy ta'limotda men qanday yolg'on narsani topganim, qanday haqiqatni topganim, qanday xulosalarga kelganim navbatdagi asarimning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bu asar biror narsaga arzisa va biror kimsaga keragi bo'lsa, biror vaqtda yozilar va biror joyda chop etilar...

Men bularni uch yil avval yozgan edim.

Endilikda uning chop etilayotgan qismini qayta ko'rib chiqar ekanman va o'sha paytdagi fikrlarim mantig'iga hamda ko'nglimdan kechgan hislarga qaytar ekanman, yaqinda bir tush ko'rdim. Shu tushda jamiki kechirgan tuyg'ularim va tilga olgan hodisalar juda ixcham bir tarzda ifodalangan edi. Shuning uchun o'ylaymanki, tushim meni anglaganlarning ham xotirasini yangilaydi, men yuqoridagi sahifalarda uzundan-uzoq bayon qilib bergan narsalarni bir joyga jamlab, aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi. Mana o'sha tush: men to'shakda yotgan emishman. O'zimni yaxshi ham, yomon ham his qilmayotgan emishman. Chalqancha yotgan ekanman. Shunda yaxshi yotibmanmi, deya o'ylay boshlabman. Shunda oyog'imni noqulay his qilibman, kalta emishmi-ey, tagi notekis emishmi-ey, bilmadim, harholda noqulay emish-da. Men oyog'imni qimirlatib ko'ribman va shu bilan birga nimaning ustida qanday yotganimni o'ylay boshlabman. Shu paytgacha bu gap xayolimga kelmagan ekan. To'shagimni ko'zdan kechirib qaragam, arqondan to'qilgan to'r karavotda yotibman. Oyog'imning uchi past tomonda yotibdi, tizzam ochilib qolibdi. Shundan noqulaylik sezayotgan ekanman. Negadir bilar ekanman — tagimdagi to'r to'shakni u yoq-bu yoqqa sursa bo'larkan. Oyog'imni qimirlatib, to'r karavotning etak qismini bir yonga jinday suribman. Shunday qilsam, tinchroq yotadiganday ko'rinibman. Lekin men uni ko'proq surib yuboribman, oyog'imga ilintirmoqchi bo'libman, lekin oyog'im yetmabdi, aksiga olib to'r karavot yana jinday siljibdi-yu, oyoklarim osilib qolibdi. Qulayroq o'rnashib olishga komil ishonch bilan, butun gavdam bilan harakat qilib to'r karavotni o'nglab olmoqchi bo'libman, ammo bu harakatim bilan ish o'nglanish o'rniga batamom chappasiga ketibdi. Bir mahal qaragam, butun gavdam havoda muallaq osilib qolgan emish, oyog'imni cho'zsam, yerga tegmas emish. Yuragim vahimaga to'lib, qo'rqib ketibman. Shu yerga kelganda avval miyamga kelmagan bir narsani so'rayman: «Men qaerdaman va nimada yotibman?» Tevarak-atrofimga alang-jalang qarayman. Hammadan avval pastta — gavdam osilib turgan tomonga qarayman. Hali-zamon o'sha tomonga qulashimni tuyaman. Pastga qarayman-u, ko'zlarimga ishonmayman. Men shunaqa yuksakdamanki, qo'yaverasiz. Eng baland minoraning yoki tog' cho'qqisining balandligi ham uning oldida ip esholmaydi. Bunaqa balandlik avvallari yetti uxlab tushimga kirgan emas.

Men aniq-taniq ilg'ay olmayman — quyida, tepasida muallaq turganim va hadeb meni o'z bag'riga

chorlayotgan tubsiz o'pqonda biror narsani ko'ryapmanmi, yo'qmi? Yuragim uvushadi, o'zim dahshatga tushaman. Quyiga qarash qo'rqinchli. Sezib turibman, pastga qarasam, yotgan joyimdan sirg'anib tushib ketamanu nobud bo'laman. Men qaramayman, lekin qaramaslik yana ham yomon, chunki men «hozir tushib ketsam nima bo'ladi?» deb o'ylayman. Sezib turibman, qo'rquvdan eng so'nggi kuchlarimni yo'qotib, asta-asta orqamda sirg'alib, pastga tushib ketyapman. Yana bir lahzadan keyin tamom. Shunda birdan xayolimga: «Bu haqiqat bo'lishi mumkin emas, — degan fikr keladi. — Bu — tush. Uyg'on». Men uyg'onishga harakat qilaman, lekin uyg'onolmayman. «Nima qilish kerak? Nima qilsa bo'ladi?» — deya o'zimdano'zim so'rayman va yuqoriga qarayman. Yuqorida ham tubsizlik. Men samoning bu tubsizligiga qarayman-u, quyidagi tubsizlikni esdan chiqarishga tirishaman va chindan ham unuta boshlayman. Quyidagi cheksizlik meni dahshatga soladi va o'zidan bezdiradi, yuqoridagi cheksizlik esa o'ziga tortadi va menga kuch beradi. Men hamon tubsizlik ustida to'r karavotda ilinar-ilinmas osilganча muallaq turibman. Muallaq turganimni bilaman, lekin faqat yuqoriga qarayman. Qo'rquv meni asta-sekin tark eta boshlaydi. Ko'pincha tushda bo'ladigan kabi allaqanday ovoz deydi: «Bilib qo'y, bu — o'sha!» — shunda men yuqoridagi tubsizlik qa'riga borgan sari yutoqib qarayman va sekinasta xotirjam bo'la boshlaganimni his qilaman. Nimaiki bo'lib o'tgan bo'lsa, hammasi esimda; bularning bari qanday ro'y berganini eslayman — mana, oyoqlarimni qimirlatdim, mana, muallaq osilib qoldim, mana, qo'rquvdan dahshatga tushdim, mana, yuqoriga qarab, qo'rquvdan xalos bo'ldim va halokatdan omon qoldim. Shunda o'z-o'zimdano'zim so'rayman: «Xo'sh, endi bu yog'i nima bo'ladi? Hamon muallaq osilib turibmanmi?»

Endi men alang-jalang bo'lmayman, lekin butun vujudim bilan qaysi nuqtaga tayanib turganimni his qilaman. Ko'ramanki, men ortiq muallaq osilib turganim yo'q, qulayotganim ham yo'q, balki turgan joyimda mahkam turibman. Men o'zimdano'zim nechuk bunchalik mahkam turganimni so'rayman, tevaraginga qarayman, paypaslanaman, qarasam, ostimda, belimning tagida to'r karavotdan bir bo'lagi bor ekan, men shuning ustida osmonga qaraganча yotibman va u meni avvalgiday ko'tarib turibdi. Xuddi shu chog'da xuddi tushlarda bo'ladigandek, meni ko'tarib turgan kuch ko'z o'ngimda namoyon bo'ladi. Garchi bu kuch o'ngimda hech qanaqa ma'noga ega bo'lmasa-da, tushimda g'oyatda tabiiy, tushunarli va hech qanday shubha tug'dirmaydigan bo'lib ko'rinadi. Men tushimda hatto taajjub qilaman — nechuk men buni avvallari anglamadim ekan? Buni qarangki, mening miyamning ichida bir ustun bor ekan. Bu ustunning mustahkamligi har qanday shubhadan tashqari edi. Holbuki, bu nozik ustunning hech qanday tayanchi yo'q edi. Keyin shu ustundan bir ip o'tkazilgan ekan. U shunaqa ustalik bilan va ayni chog'da shunaqa jo'n bir tarzda o'tkazilgan ekanki, shu ipning ustiga beling bilan yotib, yuqoriga qarasang, pastga qulash haqidagi fikr, hatto, xayolingga ham kelmas ekan. Bularning bari menga ayon bo'ldi va men bundan mamnun bo'lib, xotirim jam bo'ldi. Go'yo allakim menga: «Buni ko'rib eslab qol», — deganday bo'ldi. Shu joyda uyg'onib ketdim.